

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TARIX FAKULTETI
“Tarix o’qitish metodikasi” kafedresi

Norova Gulzoda

BITIRUV MALAKAVIY ISH

**MAVZU: 7-SINF TARIX DARSLARIDA “XI-XV ASRLARDA FRANSIYA”
MAVZUSINI O’QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH**

Ilmiy rahbar:
Dots. Z.Hayitov

Navoiy – 2016

**7-SINF TARIX DARSLARIDA “XI-XV ASRLARDA FRANSIYA” MAVZUSINI
O’QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH**

REJA

**I-BOB. XI-XV ASRLARDA FRANSIYADA SIYOSIY, IJTIMOIIY-IQTISODIY
VAZIYATLAR.**

1. XI-XV ASRLARDA FRANSIYANING MANBALAR ASOSIDA O’RGANISH.
2. XI—XIII ASRLARDA FRANSIYANING IQTISODIY TARAQQIYOTI.
FRANSIYA DEHQONLARINIIG AHVOLI.
3. YUZ YILLIK URUSH VA JAKERIYA QO’ZG’OLONI FRANSIYANI SIYOSIY
JIHADAN BIRLASHTIRISHNING TUGALLANISHI

**II-BOB. “XI-XV ASRLARDA FRANSIYA” MAVZUSINI O’QITISHDA YANGI
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.**

- 2.1. TARIX DARSLARINI O’QITISHDA YANGI PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI.
- 2.2. DARS ISHLANMASI.

XULOSA.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

KIRISH

Bugungi kunda yurtimizda O'zbekiston tarixini o'rganish bilan birga jahon tarixini o'qitishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki dunyo xalqlarining, turli millatlarning urf-odatlari, an'analari, boshdan kechirgan og'ir sinovlari, bosib o'tgan shonli yo'lini o'rganish har bir jamiyat uchun ko'p jihatdan keljakni qurish, tarixda yuz bergan xatoliklarni qayta takrorlamaslik, tarix yutuqlaridan unumli foydalanish kabi tajribalarni hosil qiladi. Bundan tashqari minglab yillardan buyon xalqimiz ko'pgina dunyo davlatlari bilan doimo uzviy aloqada bo'lgan. Xalqlar bilan muloqotga kirishgan. Ko'p hollarda ularning taqdiri bilan o'xshash, ayrimlari bilan bir bo'lgan. Shu jihatdan biz vatan tarixini jahon tarixining bir bo'laki sifatida olib qaraymiz va uni ayro o'rgana olmaymiz. Turli davrlarda tarix maslasida, xususan, uni o'rganish, yoritish va tadbqiq qilish siyosiy tuzumlar bilan bog'liq holda kechdi. Bugungi kun esa unga haqqoniy va xolis baho berishni talab qilayapti.

Tarixni o'rganishni obyektiv tashkil qilish barcha davrlarda ham murakkab masala bo'lgan. Shuning uchun biror bir xalq yoki voqeya tarixini o'rganishda uning xarakteri, sabablarini, muhitni hisobga olish kerak. "Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini o'z maqsad-muddaolarini, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma'naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Yani, tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi."¹ Bularning barchasini inobatga olish zarur.

"Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch – osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz."² Bu esa hech qachon o'z-o'zidan, oson yo'l bilan amalga oshirilgan emas. Jahon tarixi tajribalaridan ma'lumki bir tuzumdan ikkinchi bir tuzumga, eski jamiyatdan yangisiga o'tish og'ir silkinishlar bilan amalga

¹ И.А.Каримов. "Юксак маънавият – энгилмас куч" Т., Маънавият, 2008. 97-б.

² И.А.Каримов. "Юксак маънавият – энгилмас куч" Т., Маънавият, 2008. 3-б.

oshadi. Gohida katta yo`qotishlar evaziga sodir bo`ladi. XVIII asr oxirida yuz bergan Buyuk fransuz inqilobi bunga yaqqol misol bo`ladi. U barcha davrdagilardan ham ko`ra tubdan, to`liq va har sohada amalga oshganligi bilan xarakterlanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Barcha davrlarda din va madaniyat masalalari jamiyatning eng muhim sohalaridan bo`lib kelgan. XVIII asr fransuz inqilobi davrida ham, oradan 200 yildan ziyodroq vaqt o`tganligiga qaramay bugungi kunda ham u dolzarbligini yo`qotmagan. Chunki din doimo jamiyatda kuchli ta`sirga ega. Islohotlar amalga oshirilayotgan, yangilanishga yuz tutgan ko`pchilik jahon davlatlarida ayni vaqtda din masalasini inobatga olishi lozimligini ushbu inqilob ko`rsatib berdi. Buning uchun esa inqilob davrida dinga munosabatdan tegishli xulosa chiqarib olishi mumkin. Isloh qilinayotgan jamiyatlarda diniy tashkilotlarning ham o`rni borligini siyosatchilar doimo inobatga oladilar. O`rganilayotgan davrda yangi “Oliy mavjudot” dinining joriy qilinishi o`zini oqlamaganligi, bugungi kunda turli diniy sektalar vujudga kelishiga qiyos qilib bu yaxshi oqibatga olib kelmasligini tushunish lozim.

Madaniyat jamiyatning ko`zgusi hisoblanadi. U barcha davrlarda kuchli ta`sir vositasi bo`lib kelgan. Ammo uning ustidan siyosat yuritishda ehtiyotkorlikni talab qiladi. Inqilob yangi jamiyatni barpo qilishda undan keng foydalandi. Bugun ham islohotlar amalga oshirilishida undan ko`mak olishi, hamda inqilob tajribalaridan foydalanishni taqozo etadi.

Mavzuning maqsad va vazifalari. Mavzuni o`rganishdan maqsad XVIII asr fransuz inqilobida din va madaniyat masalalarining kam o`rganilgan tomonlarini, hamda unga bildirilgan `siyosiy munosabatni yoritib berishdan iboratdir. Uni bugungi kunda jamiyatning turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan taqqoslab, ularning o`xshash tomonlarini, vorisiylik an`analarini ko`zdan kechirib chiqish va imkon darajasida yoritib berishni ko`zlaydi.

Uning vazifasi ko`zlagan maqsaddan kelib chiqqan holda bugungi kun diniy va madaniy sohalaridagi o`zgarishlarning amalga oshishi, bu boradagi siyosatning to`g`ri amalga oshirilishini kuzatishdir.

Mavzuning tarkibiy qismi. Ushbu disertatsiya tarkibiy jihatdan kirish, ikki bob va xulosa qismlaridan iborat. Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o`rganilish darajasi va bugungi kunda dunyo tarixidagi ahamiyati xususida to`xtaladi.

“Fransuz inqilobchilari siyosatida madaniyat masalalari”-deya nomlangan birinchi bob uch qismga ajratilib tahlil qilingan. Birinchi qismda Xalq ta’limining isloh qilinishi, uning cherkovdan ajratilib dunyoviy bilim maskaniga aylantirilishi hamda, unga doir masalalarning Milliy Konventda ko`rib chiqilishi yoritilgan. Ikkinchi qism inqilob davrida akademiya faoliyati bilan bevosita bog`liq. Unda akademiyaning inqilob amalga oshishida tutgan roli, ichki o`zaro kurashlar, bu davrdagi ilmiy yutuqlari va olimlar faoliyati, Konvent tomonidan nizomlarning o`zgartrilishi tahlil qilingan. Uchinchi qismda bayramlar, nashriyotlar va yodgorliklar borasidagi siyosat o`z aksini topgan.

Ikkinchi bob “Diniy masalalar siyosatchilar muhokamasida”-deb nomlanib u ham uch qismda yoritilgan. Birinchi qism cherkovning hokimiyatda ta’sirini kamaytirish, u bilan bog`liq turli munosabatlarning Konvent va departamentlardagi muhokamasi xususida. Ikkinchi qism bevosita Konvent tomonidan qabul qilingan cherkov va uning mulkiga doir hujjatlarning tahliliga bag`ishlangan. Uchinchi qism isloh qilingan cherkovda ruhoniylarning vazifasi, huquq va burchlari haqida.

Bundan keyin yuqorida keltirilgan bob va qismlarni umumiyashtirib xulosa yasalgan. Eng so`nggida foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati ham keltirilgan.

Mavzuning tarixshunosligi. XVIII asr fransuz inqilobi nihoyatda katta voqeya bo`lganligi uchun uning xususiyatlari, sabablari, natijalari haqida juda ko`plab tarixchilar shug`ullandilar. Inqilobning umumiy xarakteri yoki undagi yirik namoyondalar faoliyati haqida alohida maxsus kitoblar chop etilgan.

Ikkinchi jahon urushidan so`ng dunyo ikki qarama – qarshi tomonga bo`linib ketganidan so`ng inqilob xarakteriga bir-biriga zid nashrlar e`lon qilina boshlandi. G`arbiy Yevropa va Amerika tarixchilari unga o`z qarashlari bilan baho bersa, sotsialistik davlatlar uning sinfiyligini ochib berishga urindilar.

Inqilobning din va madaniyat masalalaridagi tarixini o`rganishda A.Olarning 1918-yilda rus tiliga tarjima qilingan “Политическая история французской

революции”³ asari umumiy voqealarni qamrab olsada unda din va madaniyat masalalariga ham alohida boblar ajratilgan va mavzuni hujjatlarga tayanib yoritib bergan. Bu sohada rus tarixchilarining faoliyati ham ancha samarali. N.Konchevskiy fransuz tilidagi bir nechta inqilobga doir kitoblarni qo`shimcha mulohazalar bilan rus tiliga tarjima qildi. M.Ya.Domnich bu davrning diniy masalalari bilan shug`ullandi va 1960-yilda bu haqda kitobini nashr qildirdi.⁴ Unda diniy masalalar to`liq yoritib berildi. XX asrning 80-90 yillarida ayniqsa unumli faoliyat olib borildi. Din va madaniyatga doir bir necha hujjatlar bevosita rus tiliga tarjima qilinib to`plam shaklida nashr qilindi, xususan A.V.Ado muharrirligida turli hujjatlar 1990-yili ikki tomlik kitob qilib nashr etildi. Shunday hujjatlar Ye.Ye. Yurovskaya rahbarligida va shu yili V.G.Sirotkin muharrirligida yana hujjatlar to`plami chop etildi.⁵ Bundan tashqari biz Ya.M.Zaxer, V.M.Dalin, N.M.Lukin, A.F.Yefimov, V.A.Orlovlarning faoliyatini ham ta`kidlab o`tishimiz lozim.

Ilmiy – amaliy ahamiyati. Inqilobdan meros qolgan ta`lim tizimi, teatr, muzey, nashriyot, bayramlar, diniy udumlarning bugungi kunga qadar davom etayotgan an`analari, ularning jamiyat hayotidagi o`rni, taraqqiyot va farovonlik uchun qilayotgan xizmatlarining ahamiyati kattadir. Uni rivojlantirish, saqlab qolish va ommaga yetkazish uning ilmiy – amaliy ahamiyati hisoblanadi.

³ Олар А., Таржимон: Н.Кончевский. «Политическая история французской революции» Пг., 1918. с. 3.

⁴ М.Я.Домнич. «Великая французская буржуазная революция и католическая церковь», Академия наук, М., 1960. с

⁵ Е.Е.Юровская Сборник документов по истории нового времени стран Европы и Америки (1640-1870) М., Высшая школа 1990. С. 4.

I-BOB. XI-XV ASRLARDA FRANSIYADA SIYOSIY, IJTIMOIIY-IQTISODIY VAZIYATLAR.

1. XI-XV ASRLARDA FRANSIYANING MANBALAR ASOSIDA O'RGANISH.

XI asrning ikkinchi yarmidan boshlab G'arbiy Evropa davlatlarida tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi zaminida xalqlarning siyosiy markazlashishga intilishi boshlandi. Tarqoq davlatlarni birlashtirish, qirol xokimiyatini mustahkamlash va kuchaytirish jarayoni ro'y berdi. Tarqoq feodal monarxiya asta-sekin markazlashgan va tartibga solingan sosloviyali monarxiyaga, XV—XVI asrlarga borganda absolyut monarxiyaga aylandi.

Birinchi Kapetinglar hokimiyati dastlabki vaqtlarda juda ham zaif edi. Fransiya X—XI asrlarda G'arbiy Evropadagi eng tarqoq monarxiyalardan biri edi. Qirol xokimiyati XII asrning birinchi yarmida bir qadar yuksala bordi. Shu davrda barshchina tartibinipg yo'qolib borishi bilan dehqoplarning ozod bo'lish jarayoni boshlandi. XIII asrga kelib u yana kuchaydi. Filipp II Avgust qirolligi davrida Fransiya erlarining kattagina qismi birlashtirildi. Kapetinglar dinastiyasidan bo'lgan Lyudovik IX va Filipi IV Chiroylilar ham (XIII—XIV asrlarda) Fransiyani markazlashtirish ishlarini davom ettirdilar. Lekin Fransiya bilan Angliya o'rtasida yuz yillik urush (1337 — 1453) deb nom olgan urushning boshlanishi Fransiyani birlashtirish va qirol hokimiyatini mustahkamlash masalalarini nihoyat darajada qiyinlashtirib yubordi.

Yuz yillik urush natijasida vujudga kelgan iqtisodiy tanglik, feodal zulmning tobora kuchayishi, yollangan askarlarning talon-toroji xo'jalikni xonavayron qildi. Bu davrda natural obrokn pul rentasi bilan almashtirish keng tarqaldi. Bu hol dehqonlarining ahvolini yanada yomonlashtirdi. Chunki, ilk o'rta asrlar davrda barshchina majburiyatlari va natural obrok miqdori feodalning ehtiyoji bilan chegaralangan bo'lsa, eidilikda esa barshchina majburiyatlarini va natural obrokning pulga aylantirilishi rentalarni ko'paytirishdagi feodallarning ochko'zlik harakatlarini keltirib chiqardi. Fransiyada kommutasiya (barshchinani pul tarzda to'lanadigan obrok bilan almashtirish) jarasni bilan bog'liq ravishda ekspluatatsiya formalari almashinib, feodal zulmi yanada kuchaydi.

Yuz yillik urush natijasida har xil majburiyat va soliqlar yanada oshirildi. Dehqonlar ham mahalliy, ham ajnabiy hukmdorlar tomonidan talandilar. Bundan tashqari 1348 yilda Fransiyada vabo tarqalib, ko'pgina dehqon xo'jaliklarini xonavayron qildi. Shu vaqtlardagi xalq qo'shiqlarida senorlarning xalqni talashi, janglarda xiyonat qilishi faqat oddiy dehqon ommasining urush maydonidan qochmasligi va o'z vatanini saqlashi ifoda qilingan.

Qo'zg'olonning boshlanishiga 1358 yili vayron qilingan qasr va qal'alarni qayta qurish uchun joriy etilgan barshchina bahona bo'ldi. 28 mayda Bovezi viloyatida Sen Led Esseran degan joyda 100 ga yaqin dehqon qishloqlarni talayotgan brigadalar otryadiga qarshi hujum boshlab, 4 ritsarni va 5 qurolbardorini o'ldirdilar.

Mana shunday voqealar sodir bo'lib turgan paytda XIV asrda Fransiya tarixida yirik dehqon harakati Jakeriya qo'zg'oloni boshlandi. Qo'zg'olonchilar feodallar tomonidan «Jakbonom» (sodda Yashka, Jak – Go'l) deb berilgan jirkanch pom bilan ataladi. Qo'zg'olon stixiyali ravishda boshlanib, de-Frans, Vermandua Bri, Pikardiya, qisman Normandiya, Shampan viloyatlarini o'z ichiga olgan. Qo'zg'olonchilar dvoryanlar mulkiga qarshi harakat boshlab dvoryanlarni o'ldirganlar, mulklarini talaganlar, qasrlarini, qo'rg'onlarini yondirganlar va feodal majburiyatlar qayd etilgan hujjatlarni yo'q qilganlar. Ana shu asosda qo'zg'olonchi dehqonlar feodallardan qasos olganlar.

Tarixiy manbalarning ko'rsatishicha qo'zg'olonga birinchi kundan boshlab rahbarlikni Bovezi viloyatining Melo qishlog'ida dehqon oilasidan chiqqan harbiy ishni yaxshi biluvchi sobiq askar Gilom Kal olib borgan. Qo'zg'olonchilarning soni 100 mingga yaqin kishi bo'lib, qo'zg'olonga shahar kambagallari ba'zi mayda ritsarlar, qisman xalq orasidan chiqqan qishloq ruhoniylari ham qo'shilgan. Qo'zg'olon stixiyali ravishda boshlangan bo'lib, qo'zg'olonchilar aniq bir dasturga ega bo'lmaganlar. Ular tomonidan «zodagonlarni bitta qoldirmay qirib tashlash kerak», degan shiorning qo'yilishi harakatning feodallarga qarshi qaratilganligini ifodalaydi. Qo'zg'olonchilar bayrog'idagi qirol hokimiyatining emblemasi ularning qirolga sodiqligini ifodalaydi. Qo'zg'olonchilar Gilom Kal boshchiligida o'zlarini feodallardan mudofaa qilish uchun qurolli otryadlar tashkil qilib, har bir otryadga boshliqlar tayinlaydilar. Hokim sinfni

birgina dehqonlar kuchi bilan bir yoqli qila olmaslikni tushunib Gilom Qal shaharliklarni o'z tomoniga tortish uchun yordam so'rab shaharlarga murojaat qilgan. O'ziga to'q bo'lgan Eten Marselni quvvatlagan shaharliklar qirol qo'shinlariga qaraganda dehqonlar qo'zg'olonidan qo'rqqanlar. Dehqonlar harakatidan o'z manfaati uchun foydalanmoqchi bo'lgan Eten Marsel dehqonlarning maqsadlari shaharliklarning hohishiga to'g'ri kelmasligiga qat'iy ishonch hosil qilishi bilanoq dehqonlar harakatidan yuz o'giradi, dehqonlarning og'ir ahvolga tushib qolgan bir vaziyatida ilgari yordamga yuborgan 300 kishilik qo'shinini chaqirib oladi. Shaharlarning ko'pchiligi (Kompen, Klermon, Ruan va boshqalar) qo'zg'olonchilarni quvvatlamadilar. Amen shahrida mehnatkash omma qo'zgonchilar tarafida turib, faqat shaharlik yuqori tabaqa qo'zg'olonchilarga qarshi chiqqan. Ba'zi shaharlar Bove, Mo qo'zg'olonchilarga qo'shilgan. Dehqon qo'zg'olonlaridan qo'rqib qolgan dvoryanlar Navarra qiroli Karl Yovuz boshchiligida o'z kuchlarini to'pladi, ularning qo'shini 1000 kishidan oshib ketadi. Gilom Kal bunday tayyorgarlikdan xabardor bo'lgach, Parijdan yordam olishga umid qilib, dehqon qo'zgonchilardan shaharga yubormoqchi bo'ladi. Lekin qo'zg'olonchilar o'z kuchlariga inyunib bundan bosh tortganlar. Shundan keyin Gilom Qal Melo va Klermon oralig'idagi balandlikda o'z qo'shinlarini jangga hoziray boshlaydi. Ikki kun davomida (8—9 iyun) bir-biriga qarama-qarshi dushman kuchlari harbiy harakatni boshlamay turgan.

1358 yil 10 iyunda Melo yonida dehqon otryadlari va feodal lashkarlari (frantsuz ritsarlari va ingliz yollanma qo'shinlari) o'rtasida kuchli jang bo'lib, dehqonlar qulay pozitsiyants ishg'ol qilganlar. Karl Yovuz boshchiligida feodallar qabihlik maqsadida yarashishni so'rab, kelishish uchun Gilom Kalni o'z huzuriga chaqirganlar. Gilom Kal feodallar lageriga kelgan, uni ushlab zanjir kishanlarga solib, kallasini olganlar. So'ngra feodal otliq qo'shiilari qo'zg'olonchilarga qarshi kuchli hujum boshlaganlar. Aldangan va rahbaridan mahrum qilingan dehqon otryadlari engilgan. Fransiyaning shimolidagi qishloqlar talangan va nihoyat darajada qashshoqlantirilgan.

Butun yoz oylari davomida qo'zg'olonchi dehqonlardan o'ch olinib, manbalarning ko'rsatishicha, 20 mingdan ortiq dehqon o'ldirilgan. Qo'zg'olonning eigilishiga — dehqonlarning uyushmaganliklari, harakatning stixiyaliligi, reja va

dasturning yo'qligi, qurollarning etarli miqdorda bo'lmaganligi, shaharliklar bilan mustahkam ittifoqning yo'qligi sabab bo'lgan. Lekin qo'zg'olon engilgan bo'lsa-da, u Fransiya tarixida o'chmas iz qoldirib, dehqonlarni shaxsiy qaramlikdan ozod qilish ishiga katta hissa qo'shgan. Feodallar qo'zgoning yamgidan boshlanib ketishidan xavfsirab dehqonlarni shaxsiy qaramlikdan ozod qilishni tezlatganlar.

Talabalar ushbu mavzuga tayyorlanishda Fransiyadagi dehqonlar qo'zg'oloniga oid marksizm-leninizm klassiklarining asarlaridan (K. Marks va F. Engelsning «Nemis ideologiyasi», F. Engelsning «Germaniyada dehqonlar urushi», «Feodalizm davridagi Fransiya haqida» va boshqa.) foydalanib va quyidagi tarixiy manbalarni har tomonlama o'rganib, ilmiy xulosalar chiqarib olishi lozim.

Taxminan XIII asrning taniqli huquqshunosi Filipp de Bomanuar tomonidan (taxminan 1280 y.) yozilgan «Kutyum Bovezi» hujjati, XI—XIII asrlardagi monastir kartulyariyasiga kirgan yorliqlardan olingan parchalar, XIII—XIV asrlarda qirolning ordonanslari — qo'zg'oloini har tomonlama o'rganishda muhim manbalardap hnsoblanadi. Dehqon qo'zg'olonlari tarixinn o'rganishda, talaba xronikalardan — yilnomalardan olingan ma'lumotlardan ham foydalanishi lozim. Qirolning kantsleri Psr d'Ortemon tomonidan yozilgan «Bolshix frantsuzskix xronik» («Katta frantsuz xronikasi») manbaidan olingan parchalar, avtorning dehqon qo'zg'olonlariga nisbatan dushmanlik munosabatida bo'lishiga qaramay, dehqon qo'zg'oloni haqida birmuncha materiallar beradi. Lekin uniig Jakeriya haqidagi ma'lumoti juda qisqa va garazli xarakterda bo'lib, voqealarni buzib ko'rsatadi. Normandiya ruhoniysi tomonidan yozilgan «Xroniki pervtsx cheto'ryox Valua» («Birinchi to'rtta Valua xronikasi») qo'zgon haqida ancha mukammal ma'lumotlarga ega. Talaba Jakeriya haqidagi ba'zi ma'lumotlarni Fruassara va Jana de Venett «Xronika» laridan oladi.

Fruassara «Xronika»si ritsarlarni maqtab, dehqonlarga nisbatan nafrat ruhida yozilgan. Jana de Venett «Xronika»si bo'lsa, dehqonlarning qo'llariga qurol olib harakat olib borganligini ayblasa ham. dehqonlarning og'ir ahvoliga achinish ruhida yozilgan. Yana Parij qo'zg'olonchilarining boshligi Eten Marselning xati ham saqlangan. Umuman Jakeriya haqidagi hujjatlarning ko'pi bizgacha etib kelgan, lekin

ular turli xil shaklda turli vaqtda yozilgan, ko'pincha bir-biriga qarama-qarshi, bir voqeaning o'ziii turlicha yoritadilar. Shuning uchun ham talaba ularni solishtirib o'rganishi zarur.

Frantsiyadagi qaram dehqonning ko'pchiligini tashkil qilgan servlarning ahvolini, ularning huquqsizligini aniqlash alohida ahamiyatga ega. Turli viloyatlarda servlarning qaramligi har xil ko'rinishda bo'lgan.

Bomanuaraning «Kutyum Bovezi» hujjatining 1452 paragrafidan yozilishicha «Servlarning ahvoli har xil, servlarning bir xillari o'zlarining senorlariga shunday bog'langanki, senorning hamma mulklarida ishlaydi, senor servni istasa o'ldirishi, qamashi mumkin, senor servni o'ldirgapi uchun xudodan boshqa hech kim oldida javob bermaydi. Senorlarning ba'zila-

ri o'z servlari bilan odamiylik nuqtai nazaridan to'g'ri munosabatda bo'lib, agar serv senorga o'z vaqtnda soliq va majburiyatlarni to'lab turgan bo'lsa boshqa narsa talab qilmagan, ular erkin ayolga uylansalar, xamma mulklari senorlar qo'liga o'tadi. Yoki erkin ayolga uylangan serv senorning pstagiga qarab pul to'lashi kerak. Agar serv o'lsa, uning merosxo'ri senor bulib, servning bolalari begona odamlar kabi senorga pul to'lamasalar, merosdan hech narsa ola olmaydilar.» («Xrestomatiya po istorii srednix vekov», II tom, Sotsekgiz, M., 1963, 360-bet).

Manbalarni o'rganish natijasida talaba servlar bilan villanlar ahvolini solishtirib ko'rish imkoniga ega bo'ladi.

Bu davrdagi maibalarni o'rgapish bilan talaba bir tomondan ekspluatatsiyaning bir formasi ikknchn formasi bilan almashganligiga, feodal zulminiig yanada kuchayganligiga ishonch hosil qiladi. Talaba manbalar asosida bu ikki jarayonni aniq tushunibgina qolmay, balki yangi rentalarning qanday yo'llar bilan joriy etilganligini ham anglab oladi.

Qo'zg'olon tarixiga doir manbalarni o'rganish asosida talaba xronika mualliflarinnng siyosiy qarashlarini kuzatadi, manbalardan tanqidiy foydalanish zarurligini payqab oladi. Qo'zg'oloiing boshlanish arafasi va qo'zg'olon davomida Fransiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, yuz yillnk urush va uning oqibatlari, qo'zg'olonda qatnashgan dehqonlarning qanday yo'llar bilan qurollanganliklari,

qo'zg'olonchilarning tarkibi, shaharliklar bilan dehqonlar o'rtasidagi munosabat masalalari hamda qo'zg'olonning engilish sabablari kabi savollarprn aniqlashda manbalarni har tomonlama sinchiklab, diqqat bilan o'rganib chiqishlari lozim.

Manbalar

1. Servlar

Bomanuaraning «Kutyum Bovezi»⁶dan

1452-§.. Servlarnig ahvoli har xil. Servlarniig bir xillari o'zlarining seiorlariga shunday bo'ysun-ganlarki, senorlar ularning hamma mulklarini boshqaradilar, senor servni o'z istagi bilan o'ldirishi, qamashi mumkin, lekin buning uchun xudodan boshqa hech kim oldida javob bermaydi. Senor ba'zi bir servlar bilan ancha insoniy munosabatda bo'ladi, agar serv senorga o'z vaqtida soliq va majburiyatlarni to'lab turgan bo'lsa hech narsa talab qila olmaydi. Faqat ular o'lganlaridan so'ng yoki erkin ayolga uylansalar ularning hamma mulklari senorlar qo'liga o'tadi. YoKI erkin ayolga uylangan serv senorning istaganiga qarab pul to'lashi kerak. Agar serv o'lsa senor merosxo'ri bo'ladi, servning bolalari begona odamlar kabi senorga pul to'lamasalar merosdan hech narsa ola olmaydilar.

1457-§. Servlarga nisbatan bizning odatlarimiz boshqa viloyatlarga qaraganda ancha yumshoq, boshqa viloyatlarda senorlar o'z servlari ustidan istaganicha hukmronlik o'rnatishlari, ularni o'ldirishlari, umrbod o'z erlarida yashashga majbur qilishlari mumkin. Boveziyada ular bilan ancha yumshoq muomalada bo'ladilar, agar ular o'z senoriga feodal renta va majburi- yatlarni to'lasalar. boshqa senor eriga o'tib, yashashlari mumkin...

Verson⁷ Villanlari haqidagi poema»dan

⁶ «Хрестоматия по истории средних веков». С. Д. Сказкин тахрири остида, II жилд, II том, М., Соцэкгиз, 1963, 360-361-бетлар.

(XIII asr o'rtalari)⁸

Samoviy xudoning darakchisi bo'lmish muqaddas Mixailga barcha verson villanlariga nisbatan ayniqsa muqaddas Mixailni xonavayron qilishni istayotgan sotqin villai Osberga nisbatan bo'lgan o'z shikoyatimni olib bormoqdaman.

Villanlar hech qanaqa gap-so'z qilmasdan va qarshilik ko'rsatmasdan tosh tashishlari zarur.

Deyarlik har kuni ularning mehnatiga zarurat bor. Novvoyxonalarda ham, tegirmonda ham villanlar hamma vaqt xizmat qilishga majburdirlar.

Bularning barchasiii yaramas yangilik o'ylab topgan

Osber Peneldan tashqari barcha villanlar bajarmoqdalar: villanlar uni senorni talash uchun o'zlarining homiysi va yo'l-boshchisi qilib saylaganlar, bu ish uchun ular uyatdan o'ladilar!

Yilning biriichi ish kunining boshlanishi Ivanovo kuniga to'g'ri keladi. Villanlar o'tloqzorlardagi pichanlarni o'rishlari, ularni g'aram qilib qo'yishlari va undan keyin ularni xo'jayinning hovlisiga xo'jayin ko'rsatgan joyga tashib berishlari zarur. Bundan keyin ular tegirmon zovurlarini o'z belkuraklari bilan tozalashlari zarur. Shuningdek villan so'ngra o'z belkuragini elkasiga olib quruq va ho'l go'ngni aralashtirishi kerak. Mana shunday ishlarni villan bajarishga majburdir.

Avgust kelishi bilan yangi ish boshlanadi. Villanlar barshchina majburiyatiga binoan etilgan donni o'rib dalaniig o'rtasiga g'aram qilib to'plab qo'yishlari va xo'jayin omborlariga tashib berishlari lozim. Bu xizmatni villanlar o'z avlod-ajdodlari kabi bolaligidan boshlab bajaradilar.

...villanlar, o'z dalalaridagi donni hech qachon tashib olish imkoniyatiga ega emaslar... uning shaxsiy hosili yomg'ir tagida qoladi, villan esa dalada qolib ketgan o'z

⁷ Версон қишлоғи Нормандиянинг Одон дарёси қирғогида жойлашган. Поэмада сервларии озод қилиш натижасида ўз эркинлигига эга бўлган вилланлар ҳақида эмас, балки эски вилланлар деб аталган вилланлар ҳақида гап бормоқда.

⁸ Хрестоматия по истории средних веков. Н. П. Грацианский ва С. Д. Сказкин таҳрири остида, II жилд. М., Учпедгиз, 1950, 47-49-бетлар.

doni haqida qayg'uradi, lekin ilojini qila olmaydi, xo'jayin donini omborga keltirganda, biror bog' don yo'lda tushib qolgan bo'lsa undan jarima olinadi. Villan o'z otlarini donni tushirguncha bog'lab qo'yadi, lekin villanning otiga bir tutam em berishmaydi, villanni donni o'lchab oluvchi ko'rsa u ham undan yo'qotgan bog'ni talab qilib, xafa qiladi. Umuman uch-to'rt prikazchikka to'lashi talab etiladi, biri qabul qiluvchi, ikkinchisi tushirtiruvchi, uchinchi — o'lchovchi — kambag'al be-choraga esa faqat ko'z yoshi tegadi. Villan donni topshirib bo'lib, o'z taqdiridai o'zi xafa bo'lib, o'ziga-o'zi achinib oxiri ketadi.

So'ngra «yaylovda» yarmarka vaqti va cho'chqa bolalarini olib boradigan sentyabrdagi Bibi Maryam kuni etib keladi. Agar villanda sakkizta cho'chqa bolasi bo'lsa undan eng yaxshi ikkitasini senorga olib borib beradi, chunki yomonrog'ini senor olmaydi, buning ustiga qolgan har bir cho'chqa bolasiga bir denedan berishi lozim.

Villan o'zining erini sotishda bahonipg o'n uch ulushini senorga berishi zarur, shunday qilmasa erini sotishi mumkin emas. So'igra villanlar yana barshchina majburiyatini to'lashlari lozim edi. Ular senor erini haydab, ombordap urug'lik keltirib, zkib, sochib, mola bostirib beradilar. Har bir villan hissasiga bir akr er to'g'ri keladi. Shulardan keyin rojdestvo kunidan 3 hafta avval bo'ladigan Aidreev kuniga villanlar xo'jayin dasturxoniga non olib borishlari lozim bo'lgan. Rojdestvo kuniga tovuq olib borishi lozim edi.

Agar villan qizini senorning mulkidan tashqariga uzatsa, senor boj — «kyulaj» olardi.

Pasxaga qarab villanlar yana barshchina majburiyatini o'tashlari lozim edi. Villanlar erni haydab, ombordan urug'lik keltirib ekib, mola bostirib berishardi. Har bir villan bir akr erni arpa uchun tayyorlardi. Shundan keyin o'rmonga o'tipga borishga tayyorgarlik ko'rish uchun otlarni temirchiga olib borib oyoqlariga taqa qoqtirardi. Buning badaliga villan har kuniga ikki dene haq olardi...

Servlarning ozod qilinishi va tutqunlikning yangi formalari⁹ (Servlarning ozod qilinishi) (1185 y.)

1.... Abbat Arnulf va butun Ferrier monastiri, servlarni — ayollarni ham, erkaklarni ham, hammasini, monaxlarning xizmatkorlaripi — ularning bolalarini va kelgusidagi avlodlarini umrbod servlikdan ozod qiladi va bo'shatib yuboradi...

2. Ozod qilinganligi uchun har bir uy egasi har yili cherkovga 5 su tsenz to'lashi kerak. Agar kimdir bir necha uyga egalik qilsa, uday holda uing bittasi jitnitsa¹⁰ bo'lishi mumkin, buning uchun 6 dene¹¹ to'lashi lozim, qolgan uylarning har biri uchun 5 su dan to'laydi.

12. Bizda qanday bo'lmasin qaram bo'lgan biznig servlarimizdan gospitalardan va bu joyning aholisidan hech kim bizning ruxsatimizsiz yuqorida yozilgan erkinliklardan foydalanishi mumkin emas. Bu erkinlikni kim olgan bo'lsa, hammasi urush bo'lib qolgan taqdirda bizga yordam berib, bizning mulkimizni qo'riqlashi lozim.

13. Xuddi shular muqaddas Ryomigiya bayrami arafasida faqat Shato-Landon prevosiga¹² 15 livrga¹³ teng summada talya¹⁴ solig'i to'lashi lozim.

Dehqon chek erlariga flavini cherkovining huquqi (1232 y.)¹⁵

Men, Gugo, Burgundiyaning gertsogi. Ushbu yorliqni kim ko'rsa ma'lum qilamizki, Burguidiyaning hamma tomonida mavjud, odatga binoan talya solig'i to'lonchilar qaerda va qaysi senorniki bo'lmasinlar ozod qilinib, talya solig'i oluvchi ssnoridan ketishlari mumkin.

⁹ Хрестоматия по истории средних веков. С. Д. Сказкин тахрири остида, II жилд. Соцэкгиз, М., 1963, 307-369-бетлар.

¹⁰ Шитница — дон омбори.

¹¹ Денарий (денье) — эски фраицуз чака пули; 12 денарий 1 су ни ташкил қиларди; 20 су 1 ливрга тенг келарди.

¹² Прево — қирол доменидаги алоҳида округии бошқарувчи амалдор шахс.

¹³ Париж ливри — 20 су.

¹⁴ Талья — Франция деҳқонларининг мажбуриятларидан бири, ҳажми «сеньор» хоҳиш билан белгиланадиган асосиз талья солиқи хам мавжуд бўлган.

¹⁵ Французская деревня XII — XIV вв. и Жакерия. Ҳужжатлар. С. А. Косминский ва А. Д. Удальцов тахрири остида, М. — Л., Соцэкгиз, 36-бет.

...Bunday odamlarning manslari va undagi mulklari... senorlarga qolib, ular esa erkin holda o'z hohishlaricha boshqarishlari lozim. Biz Burgundiyada olib borilgan shu odatlarga asoslanibo'zimizningirimizga ham Flanini cherkovi va abbatimizning muhri bosilgan ushbu yorliqni shuning uchun tarqatdikki, yuqorida aytilgan odamlar ham mans va mulklaridan yorliqda nzohlangandek foydalansinlar....

Qirol Lyudovik IX yorlig'i (1246 y... oktyabr)¹⁶

Muqaddas va ayrilmas troitslar ismidan Omin. Franklarnipg marhamatli qirolu Lyudovik hozir va kelgusida ushbu yorliqni ko'rgan hammaga Parij yaqinidagi qishlogimizning quyida keltirilgan erkak va asllariga, bizga shaxsiy qaram servlarga o'zimizning shafqat pa marhamatimiz bilan ularning hozirgi va kelgusidagi merosxo'rlariga ham erkinlik ato etdik, lekin biz va bizning merosxo'rlarimiz uchun avvalgi odat bo'yicha to'lov va maburiyatlarni o'tashlari lozim. Istaymiz va qaror qilamnzki, erkinlikka chiqarilgan quyidagi nomi keltirilganlardan biror kishi yoki ularning avlodlari qachon bo'lmasin krepostnoy holatdagi shaxs bilan iikohga o'tsa avvalgi tutqinlik holatiga qaytariladi, uning hamma mulki bizning qo'limizga o'tadi. Ularning ismi quyida keltiriladi. (300 dan ortiq erkak va ayol nomi bor.)

Muqaddas Pyotr monaxlari o'zining ba'zi odamlarini erkinlikka chiqardilar

(1257 y.)¹⁷

Hamma! Kim ushbu yorliqni ko'rsa Sharttrskiy kuriya- sining ofitsiallari¹⁸ ... ma'lum qiladilar. Hamma bilsinki, Jerminovildan marhum Gugo de Laining qizi Eremburgani, Eremburganning qizi Aalda, Leobina Quanening o'g'li Vilgelm —

¹⁶ Хрестоматия по истории средних веков. Н. П. Грацианский ва С. Д. Сказкин тахрири остида, II жилд, Учпедгиз, М.. 1950, 44-45-бетлар.

¹⁷ Французская деревня XII — XIV вв. и Жакерия. Хужжатлар С. А. Косминский ва А. Д. Удальцов тахрири остида, М. — Л., Соцэкгиз, 36-бет.

¹⁸ Официаллар — амалдор шахслар.

yuqorida keltirilgan Aaldaning eri; ular va shuningdek yuqorida keltirilgan Eremburganing bolalari Guyot, Jilotva Ionna, yana Vilgelm va Aaldaning qizi Ligarda bizning ishtirokimizda huzurimizga kelib, muruvvatli Petr Shatrskiy monastirining servlari ekanliklarini izhor qildilar. Lekin shu monastirning abbat va birodarlari ularni erkinlikka chiqarib. servlikning hamma tutqunlik majburiyat-laridai ozod bo'lishlariga ruxsat berdilar, erkinlikka chiqarilganlarning mulkidan keladigan foyda abbat va birodarlarga tegishi kerak.

Qirol Lyudovik X ning 1315 yil 3 iyul servlarni ozod qilish haqidagi qonuni (ordonans)¹⁹

Tabiiy huquqlarga binoan har bir kishi erkin bo'lib tug'ilishi lozim, lekin ba'zi odatlarga ko'ra, juda qadimdan boshlab, bizning qirollik davrimizda ham ko'pchilik oddiy xalqlarimiz avlodlarining tasodifiy xato, gunohlari uchun servlik va boshqa qaramlik holatiga tushib qolganlar. Bizga bu butunlay yoqmaydi. Bizning qirollik davlatimiz franklar qirolligi deb ataladi, bizning ahvolimiz esa shu nomga²⁰ mos kelishi lozim. Bizning katta kengashimizning muhokamasi bilan hukmronligimizning boshlanishidan boshlab xalqlarimiz ahvolining tuzatilishi lozimligi haqida buyruq berildiki, bizning qirolligimizning hamma tomonida erksiz servlar erkin kishilarga, erkin bo'lmagan erlar erkin erlarga aylantiriladi. Erkinlik yaxish va durust shartlar asosida beriladi. Bizning oddiy xalqimiz buning uchun soliq yig'uvchilar va boshqa xizmatchilardan hech qanday zarar va ozor chekmasinlar... hozirgi kungacha davom etib kelgan bunday ahvol bizga sira yoqmaydi. Shaxsiy qaram kishilarga ega bo'lgan boshqa senorlar ham, bizdan namuna olib, ularni ozodlikka chiqazsinlar. Biz sizning sodiqligingizga va sinalgan aqlingizga ishonib ushbu yorliqni topshiramiz va buyuramizki, Sizlar Sanliss balyaji²¹ va uning mahkamalariga yuqorida aytilgan erkinlikni sizdan talab qiluvchi barcha joylarga,

¹⁹ Хрестоматия по истории средних веков. Под ред. Н. П. Грацианского и С. Д. Сказкина. II том., Учпедгиз, 1950, 45—46-бетлар.

²⁰ Франк — эски француз тилида «эркин» демакдир.

²¹ Бальяж — бальилар ихтиёридаги округлар.

shaharlarga va ayrim shaxslar oldiga darhol jo'nab kstinglar. Ular bilan biz etarli darajada foyda oladigan haq to'lash evaziga erishiladigan ozodlik haqida kelishib bir qarorga kelinglar. Yuqorida aytilgan mulklardan (servaj) bizga va bizning merosxo'rlarimizga foyda tegsin. Buping evaziga biz va bizning merosxo'rlarimiz ularga yuqorida aytilgan va biz siz- larga e'lon qilishni topshirgan to'liq ozodlikni beramiz. Biz o'z nomimizdai va merosxo'rlarimiz nomidan chii vijdon bilan va'da berib aytamizki. sizlarning ushbu ish yuzasidan qilgan haq to'lab ozodlikka chiqish haqidagi shartnomalaringizni shaharlarga, jamoalarga, qishloqlarga va ayrim shaxslarga ozodlik hadya qilish haqidagi qarorlaringizni siz bizning e'tiborimizga havola qilishingiz bilanoq, o'z yorligimiz bilan tasdiqlaymiz va ma'qullaymiz.

Parijda 1315 yilda, iyulning uchinchi kunida berilgan.

Jakeriya. Jana De Venett «Xronika»sidan²²

1358 yilda uncha mustahkam bo'lmagan qishloqlar o'zlarini dushman hujumidan himoya qilish uchun cherkovlarni haqiqiy qasrlarga aylantirdilar. Atrofini handaq bilai o'rab, qo'ng'iroq minoralariga harbiy ma- shinalar, tosh va o'qlar o'rnatdilar. Kechalari bu minoralarniig eng yuqorisida qo'riqchilar turadi. Dushmanning yaqinlashayotganipi xabar qilish uchun u erda bolalar turib ular uzoqdan dushmanning kelayotganini sezishlari bilanok karnay chalib va bong urib xabar berishadi. Bu signalni eshitgan dehqonlar o'z uylari va erlarini tashlab, mumkin qadar tezlik bilan cherkovda o'zlariga yashirinish joyi izlashadi. Luara qirg'og'ida boshqa aholi kechalarni o'z oila a'zolari va mollari bilan birgalikda o'z erto'lalaridan ancha uzoqda — daryodagi orollarda yoki suvda oqim o'rtasiga mustahkamlanib qo'yilgan qayiqlarda o'tkazishadi.

Bu (1358) yili toklar — odamlarning ichimlik manbalari parvarish qilinmadi, dalalar chopilmadi va urug'lik sepilmadi, buqa va qo'ylar yaylovlarda yuritilmadi;

²² Хрестоматия по истории средних веков. Н. П. Грацианский ва С Д Сказкин тахрири остида, II жилд, Учпедгиз, М., 1950 г. 49-55-бетлар.

cherkov va uylar... hammani yamlab ketayotgandek emirilgan, o't tushib tutun chiqib yotardi. Ilgari ko'm-ko'k yaylov va ekinzorlar o'rnida qarab, ta-nib bo'lmaslik darajada yovvoyi o'tlar o'sib. yoki tap-taqir er ko'ripib yotardi. Bonglar xursandchilik bilan sodiq dehqonlarni diniy e'tiqodga chaqirish uchun emas, balki dushmanning yaqinlashib kelayotganligi haqida xabar qilib, dehqonlarning qochishi uchun signal berardi. Men yana nima deyishim mumkii? Hamma joyda juda og'ir, mushkul ahvol hukm surardi. Ayniqsa, dehqonlar orasida, ahvol haddan tashqari yomon edi, chunki senorlar ularning mol-mulklarini olib, hayotlarini g'am-g'ussa bilan to'ldirgan edilar. Endilikda dehqonlar qo'lida qolgan mayda va yirik qora mollar juda oz bo'lsa-da, senorlar hamop har bir bosh mol uchun: buqaga 10 solid, qo'yga 4 yoki 5 solid soliq talab qilardilar. Yuqoridagi voqealarga qaramay, ular o'zlarining vassallarini dushman hujumidan himoya qilish uchun tashvishlanmasdilar.

Xuddi shunday paytda, boshqa shaharlar bilan birga Parij shahri ham xalqni dushman hujumidan saqlash o'rniga ularni yana ham siqib bordi. Kutilmaganda unga yaqin joyda bir voqea sodir bo'ldi. 1358 yil yozida Sen-Lu de Sheren, Klermon chekkasidagi Bova diotsezida²³ yashovchi dehqonlar hamma tomondan qash-

shoqlik va zulmning kuchayishini ko'rib, qo'llariga qurol olib Fransiya zodagonlariga qarshi ko'tarildilar. Chunki mahalliy dvoryaplar ularni mudofaa qilish orniga aksincha dushman singari azoblardilar. Qo'zg'olonchlar o'z oralaridan notiqligi va aqlliligi bilan ajralib turgan Melo qishlog'idan chiqqan Gilom Kal ismli dehqonni boshliq qilib belgiladilar. Shunday qilib, qurollangan va bayroqlar ko'tarib olgan dehqonlar barcha okruglarga tarqalib, yo'llarida uchragan erkak zodagonlarni, hatto shaxsiy senorlarini shafqatsiz ravishda o'ldirdilar, yo'q qildilar. Qo'zg'olonchilar bu bilan qanoat qilmay, zodagolarning uy va qasrlarini er bilan yakson qilib, tekislab tashladilar. Ularning xotinlarini, yosh bolalarini azob berib o'ldirdilar...

Dvoryanlar ancha vaqtgacha o'zlarini o'nglay olmadilar. Dehqonlarning harakatlari uzoqqa bormay tugadi va barcha harakatlari boshqacha tus oldi. Agar

²³ *Диоцез* — епархия черков округи.

dastlab ular senorlarning zulm va siqpg'iga qarshi aql bilan, haqqoniyat uchun kurash qilgan bo'lsalar, lekin keyinchalik ularning ishi dahshatli mudhish tus oldi... Dvoryanlar ularning hammasini kuzatib bordi, aql bilan ularga qarshi sekin-asta kuch to'pladi. Tezlikda Navarra qiroli ularning ba'zi qo'shin boshliqlarini aldab qo'lga tushirdi va o'ldirdi.

«Katta Frantsuz xronikasi»²⁴ dan

a) *Bovezida yovuz Jakeriyaning birinchi yig'ini va boshlanishi haqida.* 28 may dushanba kuni Bovezining Sen-Le, de Seran, Nuaitel Kramuazi degan joylarida va uning atroflarida mayda kishilar isyon ko'tardilar. Ular dvoryaplarga hujum qilib, to'rt ritsar va beshta qurolbardorlarini o'ldirdilar. Shundan keyin... Bovezi okrugida ularning soni kundan-kun ko'payib bordi. Ular yo'llarida uchragan erkak zodagonlar va ularning xotinlarini qirib borardilar, ko'plab bolalarini ham o'ldirdilar. Dvoryanlarning uylarini, qasrlarini buzib, o't qo'ydilar. Gilom Kal ismli bir kishini o'zlariga rahbar qilib qo'ydilar. Ular Kompen shahriga yaqinlashib keldilar, lekin bu shahar aholisi ularni shaharga kiritmadi. Keyin ular Sanli shahriga qarab yurdilar va bu shahar aholisini o'zlari bilan birlashishga chaqirdilar...

b) *Bovezi odamlarining gazabi va regent qanday kilib Modan Sansga jo'naganligi haqida.* O'sha vaqtda Bovezida bu odamlarning isyoni qizib bordi... Mulsendan boshqa chekka joylarda ham bunday odamlarning yig'inlari bo'ldi. Bu katta yig'inlarni ko'pchiligini g'allakor dehqonlar tashkil qilib, ular orasida badavlat kishilar, shaharliklar va boshqalar ham bor edi... Bu vaqtda tayinlangan regent Mo bozorida bo'lib, u shaharni mustahkamlash haqida buyruq berib, u erdan... Sans shahriga o'tadi... Shaharliklar tomonidan munosib holda hurmat bilan qabul qilinadi...

v) *Dvoryanlar tomonidan o'ldirilgan jaklarning soni haqida.* Dvoryanlar ilgari jaklar bilan birga bo'lgan, ularning xotinlarini bolalarini o'ldirgan qishloq aholisidan

²⁴ Хрестоматия по истории средних веков. Н. П. Грацианский и С. Д. Сказкин тахрири остида, II жилд, Учпедгиз, М., 1950 г. 53-54-бетлар.

kimni topsalar hammasini o'ldirganlar, uylarini xonavayron qilganlar. Muqaddas Ioann Krsstitel kuni ular 20 000 dan ortiq jaklarni o'ldirganlar.

«Birinchi to'rtta valua xronikasi»dan²⁵

O'sha paytda Bovezi okrugida jaklarning isyopi alanga olib, harakat Sen-Le de-Seran va Klermonda boshlandi. Ular orasida ko'rinishi ko'rimli, yaxshi notiq, qaddiqomati kelishgai, yuzi chiroyli bir kishi bor edi. Uning ismi Gilom Sharl edi. Xuddi uni jaklar o'z boshliqlari qilib saylaydilar. Biroq u bu odamlarning ishga yaxshi yaramasliklarini ko'rib, ularga rahbarlik qilishdan voz kechdi. Lekin jaklar uni zo'rlik bilan o'z boshliqlari bo'lishga majbur etdilar va ilgari urushni ko'rgan sobiq bir sollat bilan birga boshliq qilib ko'tardilar. Urushni Gilom Sharl ham ko'rgan edi, u jaklarga birgalikda turib harakat qilishni aytdi. Qachonki jaklar ko'pchilik bo'lib tyrejasishgach, dvoryanlarning g.o'pchiligini o'ldirdilar. Bu kam tushunchali, ongsiz kishilar shuning bilan yana juda yomon ish qilishdiki, Gilom Sharlning bir necha marta o'zingizga juda ko'p narsa qilishga yo'l qo'ymoqdasiz, deb ogohlantirishga qaramay, ko'plab zodagop ayollarni va bolalarini o'ldirishdi. Ish-

ning bunday davom etishi mumkin emasligini ko'rgan Gilom Sharl, agar qo'zg'olonchilar bo'linib harakat kilsalar, dvoryanlar osonlik bilan ularni engishini bilib, shu sababli ancha tushunchali va hurmatga sazo vor kishilarni Parij savdogarlari oqsoqoli huzuriga jo'natdi. Ular orqali yuborilgan maktubda, agar zarur paytda Sharlga yordam berishsa ularga yordam berishlari haqida yozilgan edi. Bunday mazmundagi maktub uchta tabaqa vakillarining²⁶ rahbarlarini juda xursand qildi. Ular Gilom Sharlga yordam berishga to'la tayyor ekanliklarini bildirib javob yubordilar. Jaklar Gellefontenga kelishdi. Bu erda yashovchi grafinya Valua ulardan qo'rqib yolg'ondakam ochiq chehra bilan ularni qabul qildi va ularni oziq-ovqat mahsulotlari

²⁵ Хрестоматия по истории средних веков. Н. П. Грацианский и С. Д. Сказкин тахрири остида, II жилд, Учпедгиз, М., 1950 г. 54-57-бетлар.

²⁶ Учта табақа вакиллари — йирик феодаллар, рухонийлар ва шаҳарлик зодагонлар.

bilan ta'minlash haqida buyruq berdi. Ularda shu narsa odat tusiga qirib qolgan ediki, ya'ni ular o'tayotgan yo'ldagi mustahkamlanmagan shaharlar aholisi (erkak va xotinlar) ko'chalarga stollar qo'yib, dasturxon bezab, jaklarni mehmon qilishlari shart bo'lgan, ular (jaklar) esa, o'z navbatida yurishlarini davom ettirib dvoryanlarning uylariga o't qo'yib borganlar. Jaklardan qochib Navarra qirol huzuriga boshpana izlab kelgan dvoryanlar qirol dan qat'iy turib, ularni jaklardan himoya qilishii va ularga qaqshatqich zarba berishni talab qildilar. «Hukmdorimiz, Siz dunyoda eng ulug' dvoryan bo'la turib dvoryanlar zotining halok bo'lishiga yo'l qo'ymaysiz-ku, deydi ular qirolga. Agar o'zini jaklar deb nomlagan bu kishilar uzoq vaqt saqlanib, shaharlar ham ularga yordam qilib tursalar, u holda dvoryanlar zoti ular tomonidan butunlay yo'q qilinadi», So'ngra Navarra qirol Karl ularga jaklarga qarshi kurashda yordam ko'rsatishga rozilik berdi.

Navarra qirol dvoryanlardan kelgusida uning ishlariga qarshi turmaslik haqida qasam ichdirib va'da olgach, Longvildan ritsarlar va ingliz, yollanma askarlaridan iborat 400 kishilik qo'shin bilan shoshilinch holda Bovezi va Klermon ostonasida jaklarga qarshi iulga chiqadi. Bovezida jaklar ro'parasida lager quradi. U erda frantsuz dvoryanlarining ikkita otryadi bo'lib, bittasiga qirolning o'zi qo'mondonlik qilgan

bo'lsa, ikkinchisiga Sir Pekini va Vikont de Ken qo'mondonlik qildilar. Bundan tashqari Robert Serkot ingliz yollanma askarlariga qo'mondonlik qilardi.

Navarra qirol va dvoryanlarning ularga qarshi kelayotganliklarini jaklar yaxshi bilishardi. Ular oldida Gilom Sharl nutq so'zlab: «Aziz senorlar, dvoryanlarning bizga qarshi kelayotganini Siz yaxshi bilasiz, ular — katta odamlar, harbiy ishda katta tajribaga egalar. Agar Sizlar menga ishonsangizlar Parijga qarab boramiz, u erda qulay mustah-kamlangan joyni egallaymiz, shunda biz shaharliklarnipg yordamiga va madadiga ega bo'lamiz», deydi. Shunda jaklar baland ovoz bilan «biz hech qayoqqa chekinmaymiz, dvoryanlarni batamom tor-mor qilishga qudratimiz etarli deb qichqirdilar. Ularning ko'pchilik ekapligini va o'zlariga nihoyatda ishonchlari katta ekanligini ko'rib, Gilom Sharl va uping yordamchisi jaklarni safga tortib (jangovar safga) ulardan har biri 3 000 kishidan iborat bo'lgan ikki otryad tashkil qildi. Ey va

kamonga ega bo'lganlar oldingi qatorga qo'yilib, ularning oldiga esa arava-lar qo'yildi. Ular yana o'zlarining otlig askarlaridan bitta otryad tashkil qilishdi. Unda 600 knshn bo'lib, ulardan ko'pchiligi qurolga ega edplar. Ular shupday tartibda saf tortib ikki kun turdilar. Navarra qiroli va dvoryanlar hammasn bo'lib, 1000 ta qurollangan kishi. jaklar lageri ro'parasiga joylashdilar... ular o'zlarini salobatli ko'rinishda ushlab, karnaylarini chalib... «monjua»²⁷ deb balaid ovoz bilan qichqirib turdilar. Ular nilufar guli tasvirlangan ko'plab bayroqlarga ega edilar.

Navarra qiroli jaklarning qirolidan bitim tuzishni so'rab, uning bilan muzokara olib borish istagini bildirdi. Gilom Sharl esa hech qanday garov talab qilmay bemalol bunga rozi bo'ldi... Shunday qilib jaklar rahbarsiz qoldilar. Robert Serkot o'zining hamma odamlari bilan yon tomondan o'rab olib ularga zarba berdi, yana bitta otryadini qilich bilap qurollangan askarlari tor-mor qildilar, otlari oyoqlari bilan jaklarni toptadilar. Shunday qilib, jaklar uloqtirib tashlandi. Jaklar rahbarsiz qolir aralashib ketdilar, bir-birlarini o'ldira boShladilar. Ularning ko'nchiligi inglizlar tomonidan o'ldirildi.

Bovezi va uning chekkalaridagi jaklar shunday tor-mor qilindi va engildi. Bri grafi deb Russi ularning juda ko'pchiligini qirib tashladi va tirik qolganlarini o'z eshiklariga osishga buyruq berdi.

Fruassara «xronikasi»dan²⁸

Navarra qirolligining ozod qilinishidan so'ng ko'p vaqt o'tmay, Fransiya qirolligining ko'pchilik viloyatarida juda ajablanarli va yirik isyon ro'y berdi, ayniqsa Bovezi, Bri, Laonne, Valuada Suassonda tarqaldi. Qishloqlardan rahbarsiz odamlar Bovezida to'plandilar. Dastlabki vaqtda ularning soni 100 kishidan oshmasdi. Ular deydilarki. Fransiya qirolligidagi dvoryanlar — ritsarlar va qurolbardorlar qirollikni sotdilar va isnodga qoldirdilar, ularning hammasini yo'q qilib tashlash katta baxt bo'lgan bo'lardi. Kim shunday deb aytsa, har bir kishi balaid ovoz bilan: «U chin

²⁷ «Монжуа» — француз рицарларининг харбий хайқириклари.

²⁸ Хрестоматия по истории средних веков. С. Д. Сказкин тахрири остида, II жилд., Соцэкгиз, 1963, 381-382-бетлар.

haqiqatni aytdi, dvoryanlarni bitta qoldirmay hammasini qirib tashlashda kim to'siq bo'lsa, unga isnod!» — dedi. So'ngra ular tartibsiz holda to'planib, temir uchlik tayog va pichoqdan boshqa hech qanday qurolga ega bo'lmagan holda eng avvalo yaqin atrofdagi ritsarlarning uyiga qarab bordilar. Ular ritsarlarning uyini emirib, o't qo'yib ularning xotinlarini, katta va kichik bolalarini o'ldirdilar... Ular boshqa qasr va uylarni ham shunday qildilar. Ularning soni ko'payib 6 mingga etdi. Ritsarlar, xonimlar, qurolbardorlar va ularning xotinlari o'zlarining bo'yinlariga kichik bolalarini o'tqazib 10 va 20 mil uzoqlikdagi joylarga o'z xavfsizliklarini saqlash uchun qochib borishdi. Ular o'zlarining uy-joylarini, mulklarini o'z holiga tashlab ketdilar. Bu jinoyatchilar bo'lsa, rahbarsiz, qurolsiz to'planib, o'zlarining yo'lidagi hamma narsani buzib, yondirib bordilar, qutirgan itdek hamma dvoryanlarni o'ldirdilar, yo'lda uchraganlarni qiynab, hamma xonim va qizlarni ayovsiz va shafqatsiz holda zo'rladilar.

O'zlarining qiroluqini Jak Prostakni ulug'ladilar. Ular Bovezi okrugini to'liqligicha talab, yondirdilar, shuningdek Korbi, Amen Mondide atrofida 60 dan ortiq eng yaxshi uylar va mustahkam qasrlar vayron qilindi, yondirildi. Agar xudo o'z oliy himmati bilan yordamga kelmasa bu jinoyatchilar yana ko'payib qirollikdagi olijanob qo'shinlar, muqaddas cherkov ruhoniylari va hamma badavlat odamlar o'lib ketardi. Yuqorida aytilgan odamlar Bri viloyatida, Patuada ham xuddi shunday harakat olib borar edilar.

Ulardan qutulib qolgan mamlakatimizning hamma xonimlari, qizlari, ritsarlari va qurolbardorlariga yakka holda. qanday uddalashsa, shunday Mo Briga qochishga to'g'ri keldi, jumladan Normandiya gertsoginasiga ham. Yuqori martabali hamma xonimlar qochib o'z hayotlarini saqlab qolishdi... Nomlari ko'rsatilgan kishilar mamlakatning hamma tomonida, Parij bilan Nuayon o'rtasida, Parij bilan Suasson o'rtasida, Suasson bilan Vermandua o'rtasida Kusigacha xuddi shunday harakat qilishdi. Bu erda ham ular shunday katta jinoyatlar qilishdiki, Kusi, Valua oblastida, Lan episkopligida Suasson va Sanlida ritsar va qurolbardorlarning 100 dan ortiq qasr va yaxshi uylarini emirib tashlashdi; qo'lga tushganlarning hammasini taladilar va o'ldirdilar. Lekin xudoning muruvvati bilan bunday ahvoldan xalos bo'lindi, buning uchun unga rahmat bildirmoq lozim. Buni siz quyidagidan ko'rasiz.

Qachonki, qaysi joyda bu jinoyatchilarning vaxshiyliklari bilan o'z uy-joylarining tor-mor etilganini, yaqinlarining o'ldirilganini ko'rgan Korbi, Vermandua, Valua va (boshqa) viloyatlarning dvoryanlari: Flandriya, Gennegau, Brabantdagi do'stlariga yordam so'rab murojaat qilishgan. Shu vaqtning o'zidayoq hamma tomondan etarli darajada (kishilar) yig'ildi. Ham ajnabiy, ham mahalliy dvoryanlar to'planishdi, ular bu jinoyatchilarni hamma joyda ushlab, ayovsiz suratda tanasini boshidan judo qilishdi, daraxtlarga osishdi. Hatto Navarra qiroli Bovezi okrugidagi Kleromondan uzoq bo'lmagan bir joyda bir kunda 3 mingini o'ldirdi, lekin ular shunchalik ko'p ediki, agar hammasini bir joyga to'plasa 100 mingdan oshardi. Ulardan nima sababdan shuncha jinoyatlarni qildingiz deb so'ralganda, «bilmaymiz», deb javob berishdi, lekin boshqa-larning qilmishlarini ko'rib, o'zlari ham shunday qilishdi, ular hamma zodagon, olijanob kishilarni bitta qoldirmay qirib tashlashni o'zlarining burchi deb o'ylagan edilar.

«Frantsuz qirollarining «xronografi»dan²⁹

Savdogarlar oqsoqoliga dehqonlarning isyoni haqidagi xabar borib etgach Parijdagi shaharliklarni yurishga boshlab. Gurne minorasini, Plezel, Trapp qasrini... Parij chekkasidagi boshqa ko'p joylarni er bilab barobar tekisladilar. So'ngra Bovezining 50 mingta yaqin dehqonlari Kompen shahriga yaqinlashib kelib, shaharliklardan ularda yashiringan dvoryanlar- ni talab qildilar. Shaharliklar ularning gapiga quloq solgan-dan ko'ra tezroq o'lishga rozi ekanliklari haqida javob qilib, faqat Fransiya regentining buyrug'iga bo'ysunishlarini bildirdilar.

Navarra qiroli Klermon lageriga ko'plab navarraliklar, ingliz va normandlar bilan kelgach, dehqon boshliqlaridan birini o'z huzuriga chaqirdi, mug'ambirlik qilib qo'zg'olonchi-larga yordam berish niyatida ekanligini aytdi. Lekin uni ko'rishi bilan kallasini olish haqida buyruq berdi. Undan yordam kutib turgan dehqonlardan 800 dan ortig'ini o'ldirdi. Shu paytda parijliklar Ermenonvilga kelib hujum bilan qasrni egalladilar, u erda bo'lgan Robert le Lorri, ritsar, qo'rqqanidan hamma dvoryanlardan

²⁹ Хрестоматия по истории средних веков. С. Д. Сказкин тахрири остида, II жилд., Соцэкгиз, 1963, 389-391-бетлар.

yuz o'girdi, u parijliklarga ko'proq muhab-bat bilan qarashini ma'lum qilib, xotini va kichik yoshdagi o'g'illari bilan o'limdan qochib qutildi. Shunga qaramay, parij-liklar qasrni taladilar (keyin) o'z shaharlariga qaytib ketdilar.

Bu vaqtda Fransiya regenti o'z ritsarlarini to'plash uchun Kompen shahriga keldi, o'zining xotini ritsarlar bilan Moda qoldirdi... So'ngra qo'rqib qolgan Mo aholisi parijliklarga yordam so'rab murojaat qilishdi. Savdogarlar oqsoqoli ularga 1400 kishi jo'natdi. Ular Moga kelib, bozorga kirishdi, hujumga o'tishdi, lekin ichkaridagi dvoryanlar jasorat bilan mudofaalanishdi; bunda Lui de Shambli o'ldirildi. Unga regentning xotini gertsoginya va uning mulozimlari uzoq motam tutdilar. Umuman dvoryanlar juda kuchli mudofaa uyushtirdilar, natijada parijliklar hech narsasiz o'z uylariga jo'nab ketdilar. So'ngra dvoryanlar oozordan chiqib, shaharga bostirib kirdilar, uni talab, o't qo'ydilar.

Bu paytda turli joylardan juda ko'p dvoryanlar to'planishdi. Ular Bovezi oblastini talab, o't qo'ydilar, aholining bir qismi qirib tashlandi, bir qismn qochib qutuldi. Ularning mol-mulki talon-taroj qilindi.

Eten Marselning Flandriya shaharlariga 1358 yil

11 iyuldagi maktubidan³⁰

Aziz senorlar va qadrdon do'stlar. Bizga ma'lum- ki, snzniig oblastlaringiz: Flandriya, Artua, Buloni, Chingur, Ponte, Gennegau, Korbi, Bovezi, Vermandua va boshqa joylarda dvoryan tabaqalari dvoryan bo'lma- ganlarni har tomonlama siqib qo'yganliklarini siz yaxshi bilasiz... Dvoryanlar qo'llariga qurol ushlab, urush, talash va o'ldirish maqsadida Somm va Uaz tomonida paydo bo'ldilar. Vaholanki, ularning ko'plariga hech qanday yomonlik qilinmagan bo'lsa-da, baribir ular shafqatsizlik bilan qo'lga tushgan barcha mulklarni taladilar, yo'q qildilar, shaharlarga o't qo'ydilar va bu joylardagi yaxshi kishilarni rahmsizlik bilan do'pposladilar... hali hozirgacha ular

³⁰ Хрестоматия по истории средних веков. II жилд., Соцэкгиз, 1963, 391-393-бетлар.

qat'iylik bilan o'z vahshiyliklaridan qaytmayaptilar; yo'lda uchragan savdogarlarning mol-mulklarini tortib olib, o'zlarini o'ldirmoqdalar yoki katta to'lov evaziga bo'shatmoqdalar. Har bir dvoryan bo'lmagan shahar aholisini yoki qo'shni mamlakat aholisini, yoki dehqonlarni o'ldirmoqdalar va oxirgi narsasigacha talab olmoqdalar.

Kimki xudoning va dinning ashaddiy dushmanlari bo'lmish bu qotil va talonchilarga qarshi kurashda muruvvatli xalqimizga, dehqonlarga va savdogarlarga yordam bersa, xudo oldida saratsinlarga (arablarga) qarshi salb yurishida qatnashgandek hurmatga sazovor bo'ladi.

Aziz senorlar va qadrdon do'stlar. Ba'zi bir dvoryanlar va ularning tarafdorlari bu zolimlarning Bovezidagi bizning ustimizdan qilgan yaxshiliklarini oqlamoqchi bo'ladilar. Bunga sabab qilib shuni ko'rsatadilar, ya'ni Bovezi va uning chekka o'lkalaridagi ayrim kishilar dvoryanlarning mol-mulkini talab, uylariga o't qo'yib, bolalarini, xotinlarini o'ldirganlar.

Bu ishda ularga biz, shaharliklar yordam bergan emishmiz. Bu ish yuzasidan shuni ma'lum qilishga ruxsat etgaysiz: Bovezidagi yuqorida nomlangan ishlar bizning ishtirokimizsiz va xohishimizsiz boshlangan, biz Bovezi chekkasidagi ayrim kishilarning bu noma'qul ishiga qo'shilishdan ko'ra, o'lishni afzal ko'rganmiz. Aksincha, biz bu xunrezlikka chek qo'yish uchun ishonch yorliqlari bilan 300 askarimizni yuborganmiz. Bizning bu noma'qulchiliklarni to'xtatish haqidagi takliflarimizga ko'nmagapliklari va ishlarini davom qildirganliklari uchun ularning bu ishlariga qarshi qaratilgan, ya'ni 60 qishloqda o'ldirish, o't qo'yish, talon-torojni man qiluvchi, ya'ni dvoryan oilalari xotin va bolalarining xavfsizligini ta'minlovchi buyrug'imizga asosan bizning kishilarimiz ularni tark qildilar.

XI—XV ASRLARDA Fransiya

2. G'arbiy Evropada siyosiy markazlashishning boshlanishi.

XI asrning ikkinchi yarmidan z'tiboran shaharlarning va tovar-pul xo'jaligining rivojlanishi zaminida G'arbiy Evropada siyosiy markazlashish jaraeni boshlandi. Parchalaid ketgan dav-latlarni birlashtirish, korol hokimiyatini mustahkamlash va kuchaytirish jarayoni yuzaga keldi. «Tenglar o'rtasida birinchi-si»gina bo'lgan korollikdan iborat shaklsiz feodal monarxiyasi asta-sekin, ancha markazlashgan va tartibga tushgan toifaviy monarxiyaga aylanib, XV—XVI asrlarda esa mutlaq monarxiyaga o'tdi.

G'arbiy Evropaning ikkita mamlakatida — Angliyada na Fransiyadamarkyayalashgan davlatlar juda tez ta'qib topdi. -"u mamlakatlarda^siesii markaShShyaish jarayoni, asosan XIII— XV asrlardaeq. tugallandi.

Fransiyadaham, Angliyada ham birlashish jaraeniga qulay-lik tug'dirgan tarixiy shart-sharoit, avvalo, har ikkala mamla-katdagi saioat, savdo-sotiq sohasida, shaharlar va ichki bozor-ning tashkil topishida iqtisodiy rivojlanishning jadallik bilan borishi

bo'ldi. Mamlakatning turli rayonlari bilan bog'-langan yirik shaharlarning, jumladan, Parij va London sha-harlarining ertaroq vujudga kelishi siyosiy jihatdan markaz-lash^shni ayniqsa engillashtirdi. U ski bu mamlakatda tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi zaminida kuchli uchinchi ' toifa²— shaharliklar maydonga ke, 'ki. Aholining barcha guruh-lari orasida shaharliklar tarqoq feodal monarxiyasini tepa-sida kuchli korol hokimiyati turgan, isyonchi fedallarni tartib-ta chaqirishga va mamlakatda mustahkam «korollik osoyishtali-gi»ni ta'minlashga qurbi etadigan markazlashgap korollikka aylaptirishdap juda manfaatdor yadilar.

F. Engels epg avvalo Fransiyannng tarixini iazarda tutib, u bunday deb yozgan edi: «Qorol hokimiyati bilan byurgerlar ittifoqi X asrdan boshlandi; janjal-nizolar natijasida bu ittifoq tez-tez buzilib turdi, butun o'rta asrlar davomida rivojlanish uzluksiz bir yo'nalishda bormadi, axir; bu itti-foq, nihoyat korol hokimiyatining batamom g'alaba-qilishiga hozircha yordam berarkan, u yangidan tiklanib, tobora mustaxkam-roq va tobora qudratliroq bo'ldi, buning evaziga xorol hoki-miyati esa o'z ittifoqchisini qullik asoratiga tushirdi va ta-ladi»³,

FransiyaNING BIRLASHA BOSHLASHI, GENERAL SHTATLARNING TASHKIL TOTOSHI

2.....XI—XIII asrlarda Fransiyaning iktisodiy taraqqiyoti. XII va XIII asrlarning ikkipchi yarmida Fransiyada ishlab chi-qaruvchi kuchlarning juda tez rivojlanganligi ko'rildi.¹ Deh-qonchilik ancha o'sdi. Erning bir qismi bir juft ho'kiz qo'shilgan g'ildiraksiz engil plug bilan, boshqa bir qismi ikki yoki uch juft ho'kiz tso'shilgan og'ir plug bilan yaxshilab haydalar edi. Bug'doy, javdar, sulii, arpa va boshqa boshqali ekinlar ho-sili ko'payib, ekilgan urug'likka qaraganda besh va hatto oltk hissa ortiq g'alla yig'ib olinadigan bo'ldi. Bog'dorchilik, poliz-chilik, uzumchilik sohasida katta yutuqlarga erishildi. Shahar-larning o'sishi bilan ozuqa mahsulotlari — non, go'sht, yog', sab-zavot va bosh^alarga, shuningdek, turli 'qishloh xo'jalik xom ashyosnga (jun, zig'ir, teri va hokazolarga) bo'lgan talab ko'pay-di. Tovar muiosabatlari frantsuz qishlog'iga kira boshlab, uni mahalliy shaharlar bilai juda yaqindan bogladi.. Parij o'sib borishi bilan u faqat o'ziga tutashgan okruglardagi qish-loqlardagina emas,

balki ancha uzoq okruglardagi qishloqlar-dan h.am o'zini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'mip-dashii talab qildi,

XI—XIII asrlarda Fransiya shaharlari katta yuksalishni boshidan kechirdi. Janubdagi shaharlarning ko'pchiligi, shu jumladan, ko'pgina ko'hna Rim shaharlari, ancha katta sanoat markazlariga aylanibgina qolmay, balki ular Italiya va Yaqin Sharq (Levant) bilan ham qizg'in savdo-sotiq olib bordilar. Bular orasida Marsel, Tuluza, Monpele, Narbonna alohida ajralib turardi. Ayni zamonda shimolda va shimoli-sharqda Amen, Suasson, Lan, Sanlis, Bove, Ruan, Reyms, Trua va boshqa ko'pgina shaharlar o'sib chiqdilar va saioatning muhim markaz-dariga ailandilar. Bu shaharlarda tsovut va kanop gazlamada-ri etishtirilardi, mo'yna ishlanardi, temir, qalayi, kumush emal va boshqalar_ddan_turli_m.etal-'1 by

G'ivojlanaetShG^shGmol*i-sharksavdo-sanoatining gavjumligi ko'p sopli yarmarkalarda namoyon bo'ldi. Shampanning turli sha-harlarida —Truada, Provenda, Brida, Yaan^da"va boshqa joylarda deyarli butun yil bo'yi savdo-sotiq qilinar edi. Umu-man, savdo oborotlarining miqyosi va tashqi savdoda ishtirok etish jihatidan Fransiyaning shimoli-sharqiy viloyatlari ja-nubiy shaharlarga qaraganda hali orqada edilar. Ammo, ikkin-chi tomondan, shimoldagi hunarmandchilik ishlab chiqarishi janubdagiga nisbatan kamroq rivojlangan edi. Shimoli-sharq-ning savdo-sotiq munosabatlari qisman xalqaro ayirboshlash (Germaniya, Niderlandiya, Shimoliy Italiya bilan savdo-sotiq qilish), qisman shimoli-sharqiy viloyatlar o'rtasidagi ichki ayirboshlash xarakteriga ega edi, shuniig o'zi bilan Shimoli-Sharqiy Fransiyaning keng ichki bozoriga asos solindi. Ana shu ichki bozor zaminida kelajakda umumfrantsuz milliy bozorn vujudga kelishi lozim edi. Parij ko'proq savdo va sanoat mar-kazi ahamiyatiga nolik bo'lib, bunga faqat shimoliy va shimo-li-sharqiy viloyatlargina emas, balki shimoli-g'arbiy va g'arbiy raysnlar ham yaqinlasha boshladilar. Korollik poytaxtining Sen^, Marna va Luara singari buyuk daryo havzasida joylash1 ganligi uni shakllanayotgan milliy, iqtisodiy, til va madanik aloqalarning' tabiiy markaziga aylantirdi.

Birinchi Kapetinglarning idora qilishi. Birinchi Kaieting-lar hokimiyati dastlab tamomila zaif edi. X va XI asrlarda Fransiya G'arbiy Evropaning eng tarqoq

monarxiyalaridan biri edi. Qorol bu erda knyaz-feodallardan birining, hattoki kuch-li bo'lmagan knyaz-feodalning oddiygina o'rnini egallardi. Ko'pgina qo'shni yirik feodallar, har qaysisi o'z holicha korol-dan kuchliroq edi. Va faqat feodallarning o'zaro raqnbliigi, cher-kovning, keyinroq esa shaharlarning Qapetinglarni qo'llab-quv-vatlashn, bu dinastiya vakillarining ustalik qilib, ohista siyosat yurgizishi birinchi paytlarda loaqal o'z urug'ining korol-lik unvonini qo'ldan chiqarmay, balki uni nasldan-naslga mer.os kilib qoldirish nmkonini berdi. Qorol o'zining merosiy do-menida — Il de Frans gertsogligida ozmi-ko'pmi xo'jayin edi. Bu iisbatan kamar mintaqa bo'lib, shimoldap janubga qarab cho'zilib xetgan va ammo ikkita kattagina shaharni — Parij .bilan Orleanni o'z ichiga olgan edi, shu,bilan birga, bu terri-toriyaga boshqa mulklar ham suqilib ki G'gan edi.

Koro'l domeni (yurti) territoriyasi Fransiyadagi ikki mu-him daryoning, ya'ni Sen.a bilan Luara daryosining o'rta oqim bo'ylaridagi erlarni o'z ichiga olsa-da, lekin bu daryolarning mansablari, quyi va yuqori oqimlari bo'ylaridagi joylar bosh-ka feodallarga qarashli edi. Korol, domeninn halqa qilib o'rab olgan eng yirik feodal knyazlik mulklari quyidagilar edi: shimolda — Flandriya grafliigi, Normaidiya gertsogligi, Bretan gertsogligi, g'arbda — Anji grafliigi va Akvitaniya ger-tsogligi, janubda — Overn grafliigi va so'ngra Tuluza (Lage-dok) grafliigi, sharqda — Shampant grafliigi va Burgundiya gertsogligi bor edi. Bu eng yirik gertsoglik va grafliklardan tashqari, kichik miqyosda o'nlab boshqa mustaqil feodal erlari ham bor edi. Hatto korol o'ziga qarashli domenda ham mahal-liy baronlarga qarshi 1<;attiq kurash olib borardi. Korol Parijdan Orleanga borganida uni ko'pdan-ko'p qurolli mulo-zimlar albatta kuzatib borishlari kerak edi. Hokimiyatni ota-dan o'g'ilga meros qilib qoldirish odatini saqlamoq uchun Ka-petiiglar X—XI asrlar davrida va hatto*XN asrning birinchi yarmida ham korol valiahdiga o'zi hayog vaqtidayo1<; toj kiygi-zish urf-odatinya bajarar. edi. «Qari korol» yonida odatda, boshqa «yosh korol» ham korollikni boshqarar edi.

Korol hokimiyatiniig kuchaya boshlashi. XII asrning birinchi yarmidagina Lyudovik XI va Lyudovik XII hukmronlik qilgan davrda korol hokimiyati bir qadar yuksala boshladi. Lyudovik VI Semiz (1108—1137) deyarli butun o'ttiz yillik

hukmronlik davrini o'z domenidagi baronlarga qarshi kurash bilan o'tka-zib, pirovardi ularni o'ziga bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Shimoliy Fransiyada sanoat shaharlarining gurillab o'sishi muhim siyosiy natijalarga ega bo'ldi. Fransiyaning bu qyumida yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, shaharlar kommunal huquqini olish uchun zo'r berib va qattiq harakat qildilar. Lyudovik VI boshda ikkilagshb, shahar harakatiga nisbatan darhol qulay mavqsini egallamadi. Ammo Lyudovik VII davrida (1137—1180), ayniqsa undan keyingn korol — Filipp II Avgust davridayoq korollik hokimiyati shaharlarning mahalliy feodallarga qar-shi olib borgan kurashida shu shaharlarni qat'iy qo'llab-quv-vatladi.

Lyudovik VII davrida korol sul-olaviy nikoh yo'li bilan janubi-g'arbdagi juda katta gertsoglikni — Akvitaniyani qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Ammo, tez orada korol Eleonora Akvitanskaya bilan qo'ydi-chiqdi bo'lgandan keyin bu katta siyo-siy yutuq puchga chiqdi. Buning ustiga Eleonoraga shoshib-pishib uylanib olgan ingliz koroli Genrix II Plantagenet bu eng boy viloyatning egasi bo'lib oldi va Qapetinglarning xavfli ra-qibiga aylandi. XII asr o'rtalarida Fransiyaning deyarli butun g'arbi (ayniy zamonda Anju graflari bo'lgan) ingliz Planta-genetlari qo'lga o'tdi; Plantagenetlar mulkiga Anju, Bretan, Akvitaniya, Gaskon, Overninning bir qismi, Turen, Puatu, Men, shuningdek, Fransiyaning shimolidagi Noriandiya ger-tsogligi kirar edi. Frantsuz mulklariga ega bo'lgan Plantage-netlar Fransiya koroliing vassallari hisoblanardilar. Ammo bu vassallarning mulklari korol domenidan bir necha marta kattaroq edi.


Lyudovik VII ikkinchi salib yurishda qatnashdi, lekin bu yurish unga kam foyda keltirdi. Lekin korol yo'q vaqtida mamlakatni idora qilib turgan abbat Sugeriy ham mahalliy baronlarga qarshi iuvaffaqiyatli kur.ashni davom ettirdi.

Shaharlarning feodallarga qarshi olib borgan kurashlarida Sugeriy ham bu shaharlarni zo'r berib qo'llab-quvvatladi. Ni-hoyat, savdo bojlari ko'payib borganligi tufayli, shuningdek, korol er-mulklaridan keladigan daromadlarning ortib bori-shi natijasida o'sib borgan korollik moliya ishlarini g'oyax zo'r qobiliyat egasi bo'lgan Sugeriy tartibga tushirdi.

Fidipp II Avgust. Lyudovik VII ning o'g'li Filipp II Avgust (1180—1223) o'z hukmronligi ostida franduz erlarini bir-lashtirish siyosatini izchillik bilan olib borib, bu

ishda por-loq yutuqlarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Filipp ko-rollik domenida joylashgap frantsuz shaharlariga ham, boshqa

1 Kommuna huquqni olish harakati to'g'risida yutsoridagi XVII



XII asr — XIII asr oxirlarida Fransiya

knyaz-feodallarga qarashli territoriyadagi shaharlarga ham homiylik ko'rsatdi. Filipp II o'zi hukmronlik qilgan davrning boshlaridayoq -shimoldagi Pikardiyani va Vermanduani korol-lik domeniga qo'shib olgan edi. Uning Plantagenetlar bilan bundan keyingi olib borgan kurashi katta g'alaba bilan tamom

205

bo'ldi. XIII asr boshlarida Filipp II frantsuz mulklarining ko'pchiligini: Normandiya, Anju, Mep, Turen, Puatuning bir qisii (1204—1214) ni Plantagenetlardan tortib oldi. Fran-tsuzlarning ipgliz koroli yoann Ersizni (1214 yil iyulining boshida Larosh O' Muan yonidagi jangda) va uning ittifoqchi-lari — Flandriya grafini va german feodallarini (o'sha 1214 yil iyulining oxirida Buvin yonidagi jangda) mag'lubiyatga uch-ratgan 1214 yil hal qiluvchi ahamiyatg'a ega bo'ldi. zbuvin yoni-dagi ikkinchi jangda — erkin frantsuz kommunalaridan tashkil topgan sha'ar lashkarlari kagta rol

o'ynadi, bu bilan korol hokimiyatining shaharlar bilan tuzgan ittifoqi ochiq-oydin namoyish qilindi.

Yuhorida nomi aytib o'tilgan mulklar qo'lga kiritilishi natijasida Filipp II La-Manshga va Atlantika okeaniga be-malol chiqadigan bo'ldi; eng muhim ikki daryo — Sena bilan Luara mansablari endilikda tamomila frantsuz koroliga qa-raydigan bo'ldi. Qisqa muddat ichida korol domen territoriya-si bir necha marta ko'paydi.

Filipp II davrida boshqa muhim mulklar; korol domeni-shshg g'arbidagi Blua va uning janubidagi Overnning bir qis-mi, Fransiyaning eng janubidagi Langedokning sharqiy qismi, (Tuluza grafligiga qarashli mulklardan tortib olingan qis-mi) ham qo'shib olindi. Sharqiy Langedok1 Filipp II korolli-gining oxiridayoq qo'shib olingal-g edi. Bu mahalda korolning o'g'li shahzoda Lyudovik (bo'lg'usi Lyudovik VIII) papa Innokentiy III ning da'vati bilan, eretik albigoylarga qarshi salib yurishida qatnashgan edi.

Filipp P Avgustning ma'muriy reformasi. Filpp II dav-rnda korol domeni.ga ko'p miqdorda erlar qo'shib olinishi mu-nosabati bilan muhim ma'muriy reforma o'tkazildi. Korol-likka qarashli barcha mulklar balyaj deb, ataluvchi tsng ma'muriy okruglarga bo'linib, ularga korollik gubernatorla-ri — balyalar boshliq qilib qo'yildi. Balyalar o'z funk-tsiyalari jihatidan Buyuk Karlning graflarini eslatardilar. Balyalar qaramog'ida sud, solnqlar yig'ish, lashkarlar chaqirish ishlari bo'lardi. Balyalar vaqt-vaqti bilan korolga yozma hiso-bot berib turishlari lozim edi. Balyalar odatda qisqa mud-datga va saroyga yaqin turgan kishilardan tayinlanib, ular mahalliy provintsial zodagonlarga qavm-qarindosh bo'lmasligi yoki biror masalada ular bilan yaqin muposabat bog'lamasligi shart edi. Filipp II davrida jani bo'lib 20 balyaj tashkil qilingan edi. Janubda, Langedokda balyalar o'rniga sene-. sh a l l a r tayinlandi. Seneshallarning balyalardak farqi

1 L a n g e d o k — tor ma'noda Tuluza grafligiga qarashli mulklar de-makdir; keng ma'noda Franiyaning butun janubini o'z ichiga olib, bunde yashovchilar shimoliy parijliklar lahjasidan farq kilib, alohyada janu-biy provonsal lahjasida so'zlashar ednlr.

Pdavrida Plan lar er-mulklarining chegarayaa



Plantagenetlarning erlari shunda ediki, seneshallar mahalliy dvoryanlar orasidan amaldorlar edi. Korol hokimiyatining janubdagi ta'siri, tabiiy, shimol, g'arb va xususan korollik markazidagiga qa-raganda zaifroq edi.

Lyudovik IX Avliyo va uning sud—ma'muriy sohadagi refor-malari. Lyudovik VIII qisqa va^t korollik qilganidan keyin Filipp II ning nabirasi, Sharqqa qilingan so'nggi saliO yurish-larining tashkilotchisi Lyudovik IX Avliyo Fransiyada uzoq vaqt hukmroplik qildi. Lgodovik IX (1226—1270) taxtga chiq-qanida endigina 11 yoshga to'lgan bola edi. Yangidan qo'shib olin-gan erlarning feodal zodagonlari va korollik taxtiga sof vassallik munosabatlarini saqlab qolgan mustaqil knyaz-feo-dallar korollikni yana parchalab yuborish maqsadida yosh korol-dan foydalanmoqchi bo'ldilar. Biroq Lyudovik IX ning onasi, ko-roleva-reget Blanka Kastil-skaya saroy bilan aloqador feodal-larning bir qismiga, mayda riiarlardai iborat korollik vassallariga va shaharlarning ko'magiga tayanib, feodal zoda-gonlar isyonini bostirdi. Boyaga etgan Lyudovik IX korol hoki-miyatini yanada mustahkamlab, umuman buvasi Filipp II ning gtrog'rammasini davom ettirdi.

Lyudovik IX davrida Puatuning janubiy qismi va Tuluza shahari bilan G'arbiy Langedok qo'shib olindi. Korol 1259 yilda Angliya bilan Fransiya o'rtapida tinchlik shartnomasi tuzdi, bu shartnoma Fransiya uchun foydali edi. Bu tinchlik shartnomasiga muvofiq (bu Parij tinchlik shartnomasi deb atalar edi) ingliz koroli shimolda va shimoli-g'arbda ilgari-roq o'z qo'lidan boy borgan viloyatlardan — Normandiya, Anju va boitsalardan qat'iy voz kechib, o'z ixtiyorida faqat Akvita-niyani, shunda ham frantsuz koroliga vassallik huquqi bilan-gina saqlab qoldi. Ammo Lyudovik IX korolligidagi eng muhim narsa territoriyalar qo'shib olishgina emas, balki ma'muriy-sud va moliya reformalaridir.

Lyudovik IX davrida Fransiyaning idora qiluvchi markaziy boshqarma tashkil topdi. Korollik kengashi yoki korollik kuniyasi XIII asrda feodalning s'ezdidap markaziy byurokra-tik muassasaga aylanib, so'ng u bir qancha boshqarma (vedomst-vo) larga bo'linib ketdi. Kichik korollik kengashi yoki «tor doiradagi kengash» ajralib chiqib, u korolning va uning eng yaqin amaldorlarining kantsler, konnetabel' va markazlashti-rish siyosatiga tortilgan, korolga yaqin turgan oz sonli feodal-larning doimiy ish ko'ruvchi kengashiga aylandi. Sud ishlarini yurgizuvchi korollik kuniyasining boshqa qismi alohida muassa-sa bo'lib qoldi. Bu so'nggi muassasa Parlament (aynan: «sud mahmadonalari» kengashi) degan maxsus nom oldi. Nihoyat, so-liqler yig'ish va ularni harakat qilish hamda boshqa korol-lik daromadlari ustidan qaraydigan alohida hisoblash pala-tasi kuniyadan ajralib chiqdi.

Korol amaldorlarining, ayniqsa sud boshqarmasidagi amaldorlarning katta bir qismi unig'rsitetlarda «Rim huquqi»dan ta'lim olgan shaxslar bo'lib, ko'pincha ular pastki tybaqadan chiqqan, lekin balaid martabaga erishganliklari uchun butkul korolga xizmat qilishga tayyor turgan va unga so-diq kishilar edi. Odatda, ularni legistlar (latincha lex— «qonun», «huquq» so'zidan kelib chiqqan) deb atardilar. Legist-lar ko'p vaqt shaharliklar orasidan chiqar edi. Korol hokimi-yatining shaharlar bilan ittifoqi ana shu vaqtda yan& byar marta isbotlandi.

Korol janjalli masalalar chiqqan paytda ularni hal etish uchun faqat korollik sudiga murojaat etishga feodallar-ni majbur etib, o'z domenida yakkama-yakka olishuvlarpi man etdi. Janjal chiqqan kun bilan urush boshlanishi o'rtasida 40 kunlik muhlat

belgilanib, shu orada kuchsiz tomon korolni bu janjalga aralashtira olsin degan muddaoda xususiy urush qilish huquqi ancha cheklab qo'yildi. Lyudovik IX ning sud re-formasi ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Qorol sudi butun korollik uchun oliy shikoyat sudi deb e'lon qiliidi, bu sudga hatto korollik domeniga hali _qo'shib olinmagan territoriyalar-nnng fuqarosi ham shikoyat bilan murojaat qila olardi. Ba'zi sud ishlari (o't qo'yish, soxta tanga-chaqa chiqarish, xotin-qizlar-ni o'g'irlash va h. k.) albatta korol sudida ko'rilishi kerak edi.

Korollik moliyasi. Lyudovik IX tanga-chaqa zarb qilishda fedallar bilan raqobat qildi. U boshqa gertsog va graflarning tanga-chaqa pul chiqarish va uni am?-eda yurgizishni bekor qil-masa ham, lekin korollik .tanga-cha |a pulining shu gertsog va graflarning mulklarida o'zlariiki bilan bab-baravar-yurgi-zilishiga monelik qilmaslikka o'z vassallaryani majbur etdi. NatiJada eng salmoqli korollik tanga-chaqa puli odatda feo dallarning yomon sifatli pullarini siqib chiqarar edi. XIII asr o'rtalarnda korol byudjeti juda o'sdi. Savdo-sotiqdan, sanoat-dap va. korollik er-mulklaridan (savdo-sotiq, iqtisodiy jihat-dan rivojlangan rayonlardagi) keladigan daromadlarning to-bora ko'payib borishidan tashqari, Lyudovik IX xazinapi boyi-tish maqsadida feodallarniig tanho erlaridan ustalik bilan foydalandi. Lyudovik IX zamonida yirik feodallardan undiriladigan vassallik to'lovi yuqori darajada oshdi. Korol o'z vassallaridan ko'p daro, mad olgani singari, shahar-kommupalar-dan ha^ o'shanchalik ko'p daromad olardi. Frantsuz cherkovl «in'om» sifatida korolga katta-katta aqcha to'lardi. Lyudovik IX davrida b&vosita korol xazinasiga kelib tushadigan salib solig'i davlatning doimo olib t^radigan solig'i roliii o'ynadi.

Umuman Lyudovyk IX davrida korollik daromadlarining o'sishi o'sha^ zamonda Fransiyaning xo'jalik jihatdan goksala borganligyni ochiqdan-ochiq ko'rsatar edi. Pul xo'jaligish-shg rivojlana boshlashi, shaharlar, 'sanoat va savdo-sotiqning o'si-shi oqibatida mamlakatning siyosiy jihatdan markazlashuvi xalq xo'jaligi barcha tarmoqlarining taraqqiy qilishiga ijo-biy ta'sir etdi.

Dehqonlar harakati. XIII asrda Fransiya qishlokning ah-volvda ko'zga ko'rinarli o'zgarishlar yuz 'berdi. Mamlakatda sha-harlarning o'sishi va tovar xo'jaligi rivojlana boshlashi mu-nosa"bati bilan krepostnoy dehqonlarning bir qismi (servlar) feodallar

tomonidan pul obrogiga ko'chirildi. Bu mas^la salib yurishlari dehqonlarni ozod qilishga birinchi sababchi bo'lib, ancha katta rol o'ynadi. Salib yurishiga ketayotib va bunda odat-da pulga muhtojlix sezgan feodal o'z krepostnoylariga pul to'lab ozodlikka chiqishni yoki shu pul evaziga loaqal eng og'ir krepostnoylik majburiyatdardan qutulishni taklif etar edi. Natural majburiyatlarni ana-shu tariqa pul bilan ayirbosh-lash dehqonlarni shaxsai oz"od bo'lishiga erdam qnldi va bu hol esa progressiv xarakterga ega bo'ldi. Ammo XII asrda va XIII asrning birinchi yarmida bu jarayon Fransiyada hali etarli darajada keng tarqalmagan edi. Barshchinada ishlatiladigan va natural obrok yig'ib oladigan krepostnoylik tuzumi feodal ekspluatatsiyaskning ustun formasi bo'lib qolaverdi. Ikkinchi tomondan, dehqonlar tovar-pul xo'jaligiga hyli etarli dara-jada tortilmaganliklari sababli obrokni pul bilan to'lashga o'tishning o'zi bu vaqtda dehqonlarga ogirlik qilardi. Korol xazinasiga to'lanadigan to'lovlar va jumladan, salib-yurish-lari bilan aloqador nohaq soliql-ar (salib yurishi solig'ini to'lash, korol Lyudovik IX ni asirlikdan hut^azish1 uchun pul nig'ish va h. k.) dehqonlar gardaniga og'ir yuk bo'lib tushdi.

XIII asrning o'rtalarida frantsuz qishlog'idagi dehqonlar ommasi ahvolining yomonlasha borishi zaminida ko'plab har qanadapgi mahalliy janjalyaar va dexdonlarning senorlarga karshi chi^ishlari yuz berib turdi. Dehqonlarning bu chiqishlari ba'zan ancha «eng tus olib, butup-butun viloyatlarni o'z ichiga olgan ommaviy g'alayonlarga aylanib ketardi.^Fransiyaiing an-chatina qismiga yoyilgan bunday iirik qo'zg'olonlar jumlasiga 1253 yilda cho'ponlar harakati nomi bilan mashhur bo'l-gan harakat kiradi. Ideolosiya jihatdan bu harakat salib yurishlari bilan aloqador edi. Dehqonlar orasida targ'ibot olib borilib, ularking o'zlarini salib yurishida, jumladan, korol Lyudovik IX pi asirlikdan qutqazishda qatnashishga da'-vat qilinardi. Dehqonlar yangi salib yurishining tashkilotchisi sayyor va'zgo'y «vengriyalik 'muallim» Yakov nomli kishi bo'lib, u o'zining xalqqa qilgan va'zlarida senorning «oddiy xalqqa» ko'rsatgan adolatsizliklari va zo'ravonliklari to'g'risidagi sotsial temalarga ham to'xtalib o'tardi. Ko'ts sonli dehqonlar olomoii Parijga to'planib, so'ngra u erdan janubga tomon yo'l oladi, senorlarning yo'lda uchragan qo'ralarini poymol qpladi va ulardagy mol-mulkni bosib oladi. Qo'zg'olonchilarni Orleap va Tur

shaharlaridagi kambag'allar qo'llab-quvvatladilar. Qo'z-g'olonchilarniig soii tez o'sib bordi, ba'zi bir voqeanavislarning aytishicha, qo'zg'olonchilarning soni 100 ming kishigacha etgan. Biroq yomon uyushtirilgan, harbiy ishda tajribasi bo'l-magan, oxirgi maqsadning nimaligiga tushunib etmagan va uzoq yurishnng marshrutini yaxshi 'bilmagan dehqonlar o'zlari qo'lga kiritgan yutuqlarni mustahkamlay olmadilar va harakat tezda barbod bo'ldi. Dehqonlarning ayrim otryadlari yo'lda oziq-ovk;at va boshqa qiyinchiliklarga duch kelib, yana o'z yurtlariga qaytib ketdilar. Qo'zg'olonchilarning qolgan otryadlarini hukumat va feodallarning shaxsiy harbny kuchlari tor-mor keltirdilar. Harakat qatnashchilarining ko'plari qirib tashlandi yoki qo'lga tushirildi, hara-kat boshlig'i YakOv Vengerskiyning o'zi ham halok bo'ldi.

Filipp IV Chiroyli va uning Bonifatsiy 8 bilan to'qnashuvi, Lyudovik IX ning nevarasi Filipp IV Chiroyli (1285—1314) Kapetinglar dinastiyasining uchinchi yirik vakili edi. Filipp IV o'z korolligining boshlarida boy Shampan grafligini, Ispaniya bilan chegaradosh bo'lgan Navarra korolligini za Fransiyaning janubi-sharqidagi Lione (Lion viloyati bilan Lion shaharini) ni korollix domeniga qo'shib oldi. Shundan keyin, Filipp IV korollik qilgan davrining boshidan to oxi-rigacha o'sha zamondagi Shimoli-G'arbiy Evropaiing sanoat o'lkasi hisoblangan Flandriyani egallashga harakat qildi. «Flandriya prolemasi» xullas, batamom hal ^bo'lmasdan qoldi. Kurgra yonidagi jangda («jgor jangi») Gen chG'va Bryugge hunarmandla^N bilan Flandriya dehqonlari 1302 yldda frantsuz ritsarlarini t^attiq mag'lubiyatga uchratdilar. Biroq, bu muvaffaqiyatsizlik-larga qaramaY, korol qo'shinlari 1305 -yilda Lilla yonidagi japgda flamandlnklarga zarba berd-anlaridan so'ng, G'arbiy Flapdriyaning bir qismi va uning bir qancha'sanoat shaharlarn korol domegshg'a ^o'shib olindi.

Filipp IV davrida «mustaqil» vassal knyazliklar soni ta-momila oz qoldi. Flandriya grafligidan tashqari, faqat Bu.r-. gundiya, Bretan, Akvitaniya gertsogliklari (Akvitaniya ingliz-lar qaramog'ida edi) va Burgundnya grafligi (sobiq Burgundiya korolligining-shimoliy qismi) hali qo'shib olinmagan edi.

Flandriya urushi vaqtida xarajatlarning g'oltda ko'payib ketganligi, shuningdek, korol saroyida ortiqcha isrofg'archi-liklarga y^l qo'yilganligi tufayli XIV asr boshlarida Fi-lipp IV ning moliyaviy ishlari tamomila izdan chiqib ketdy. Korol har qaiday yo'llar

bilan daromadlarig'i ko'paytirmoqchi bo'ldi. U shaharlardan pul qarz olib, odatda uni qaytarmasdi; talonchilik maqsadida yahudiylarni mamlakatdan haydab yubo-rib, nohaq soliqlar olib bo'lgapidan so'ng yana ularni mamla-katga kirgizardi; u tanga-chaqani buzib, buning oqibatida fraya-tsuz savdosini izidan chiqarib yubordi, korollikka qarashli er-mulklardagi dehqonlarni katta haq to'lash evaziga*ozodlikka chiqishga majbur etar edilar. Korolning soliq yig'uvchilari qo'-shib olingan viloyatlarning hammasida izg'ib yurganlari uchun

XIII asr oxiri XIV esr boshlarida Fransiya

keng aholi ommasiularni juda yomon ko'rar edi. Nihoyat, Filipp IV qudratli katolik cherkovi manfaatlariga jiddiy putur et-kazdi, bungacha katolik cherkovi soliq tarzida emas, balki o'ziga xos «in'om» yoki «yor-dam» tariqasida korolga ma'lum miqdorda pul to'lab kelardi. Endilikda Filipp IV ruhoniylarning ham multazam suratda soliqlar to'lashlarini talab etdi.

Korolga papa Bonifatsiy VIII (1294—1303) keskin qarshn chikdi. Bonifatsiy VIII Grigoriy VII va Innokentiy III lar singarts, teokratik ideyalarga juda hattiq berilgan odam zdi. Ruhoniylarning korolga biror-bir soliq to'lashini papa map etdi va bundan tashqari, graf Flandriyskiy Filipp IV ustidats papaga shikoyat qilganligi uchun papa Flandriyaga qarshi urushni to'xtatishni koroldan talab qildi. Papaning aralashuviga javoban, Filipp IV 1302 yilda uch toifaning —ruhoiyyilar, dvor-yanlar va shaharliklarning vakillarini chaqirib ularga korol bilan papa o'rtasidagi janjalni muhokama qilishni taklif etdi. General shtatlar1 (bu yig'ilish ana shupday deb atalgap edi) papaning Fransiyaning ichki ishlariga aralashish. haqidagi da'-vosini (e|rantsuz ruhoniylari ham shunga kirgan edi) qora-lab chiqdi.

Jamoatchilik ko'magiga tayapgan Filipp IV, papalikka qar-shi zo'ravonlik tadbirlarini qo'llashga o'tdi.

Papaning Fransiya yuborgan legati (vakili), korol buy-rug'iga muvofiq qamoqqa olindi. Rimnyng o'zidagi to's-to'polop-lardaN' foydalangan Fyalipp IV Rimga o'z agenti .Nogareni yubordi, Nogare papa bilan adovatlashib yurgan Rim baronlari guruhini kuchaytirdi. Bonifatsiy VIII Rimdan ketib Ananidagi o'z xonadonining qasriga

borgapida, Nogare qurolli otryadi 6¹Lyn bu qasrga kirib oldi. Hagl[^]atda papa bir qancha vaqt qamoqqa tushib holdi. Bu voqeala[^]dan keyin, oradak sal o'tar-o'tmas, keksayib qolgan Bonnfatsiy VIII vafot etdi. Papaning o'limidan keyik, Filipp IV ning taz'yiqi ostida Kliment V nomini qabul qilgan bordolik (frantsuz) arxiepiskop papalikka saylandi. Qliment V Rimda istikommat qilishni xohla-madk, u Rimda yangi qo'zg'olonlar chi[^]yashidan xavfsirardi, shu sababli u o'z rezidentsiyasini Fransiyaga ko'chirdi. Dastlab u Lionda o'rnashdi, keyin Avinon shahariga kuchib keldi, bu erda napalar deyarli 70 yil dakomida (1309—1378) istiqomat qilishdi.

Shunday qilib, ilgarigi vaktlarda feodal korollari va imperatoryaarini osonlikcha engib kelgan papalar bu safar mil-liy elementlarga tayangan va milliy siyosatni o'tkazgan frantsuz koroli bilan kurashda tamomila muvaffaqiyatsizlikka uchradilar.

Filtsp IV ning qnstovi bilan 1309 yilda boy Tamshsherlar ordeni tugatildi, korol bu ordendan juda katta'pul qarz olgai edi. Eretiklikda ayblangan orden frantsuz hukumatining taz'yiqi bilan sud javobgarligiga tbrtildi. Yuzlab ritsarlar-monaxlar gulxanlarda kuydirildi, barcha er-mulklar, ko'pdan-

1 «General shtatlar» Dygan nom —«yaltt toifalar» (E1a(e Syopyogaix)cha E1a1:5 so'zi nemischa 5{aa1 so'ziga o'xshash) ikkita ma'noga, ya'ni «toifa» va «davlat» ma'nolariga ega; bu erda birinchi ma'noda ishlatiladi. Rus tilida General shtatlarning boshtsacha ma'nosi ham bor. Davlat mansablari, bunda «mansab» so'zi «toifa»ni ham bildiradi. Ko'p uylar va juda ko'p pul .mablag'lari tortib olinib, korol' xazinasiga topshirildi.

General shtatlar. Korolning papa bilan qilgan mojarosi munosabati bilan birinchi marta chaqirilgan General shtatlar, keyin Fshshpp IV davrida 1308 va 1313—1314 yillarda yig'ildya. Doimo moliyaziy qiyinchiliklarnn boshidan k[^]chirgan Fi-lipp IV, har safar yangi soliqlar uchun rozilik berishni shtat-larga taklif qilardi. Yangi soliqlarii tasdiqlash funktsiyasi XIV asrning birinchi yarmida Fililp IV ning vorislari dav-rida General shtatlarning bundan keyipgi faoliyati uchun katta ahamiyatga ega bo'ddi.

General shtatlar tuzilishi natijasida Fraitsiyaniig davlat taraqqiyoti olg'a qarab bir qadam tashladi, chunki korolni aho-lining keng va eng nufuzli ta'baqalari bilan bog'lrvchi yangi muhim organ paydo bo'ldi. General shtatlarga boy shaharliklar-dan

vakillar tortilishi ayniqsa muhim edi. Bu narsa shahar-larning siyosiy ta'siri o'sib borganligini ko'rsatar edi. Gene-ral shtatlar endilikda butun mamlakat miqyosida korol hokimiyatini shaharlar bilan tuzgai ittifoqining yangi for-masi edi. Korol uchinchi toifaga tayanib, o'z molnya ishlarini mustahkamlay oldi va qaysar feodallarni yana ko'proq cheklab qo'ydi. Dastlabki tarqoq feodal monarxiyasi o'z o'rnini markazlashgan toifaziy monarxiyaga bo'shatib Yerd, bu monarxiyani boshqariltsda_mamlakatdagi uchta rasmiy toifa vakillarining majlisi, shu jumladan, yangidan shakllanib kelayotgan sinf — burjuaziya vakillari ham ishtirok qildi.

3. YuZ YILLIK URUSH VA FransiyaNI SIYO SIY JIHATDAN BIRLASH TIRISHNING TUGALLANISHI

Valuaning idora qila boshlashi. 1328 yilda Kapetinglarning katta avlodi tugadi. Filipp IV vafot etgandan "keyin uning birin-Ketin korollik qilgan uch o'g'li qazo qilib, ulardan erkak zurriyoti qolmadi. Feodallar korollnk taxtiga Kapetinglar kichik avlodining.vakili bo'lmish Filipp VI Valuani (1328— 1350) saylab qo'ydilar. Valua korolliqi davrida, 1349 yildt, Fransiyaning janubi-sharqida muhim Dofine viloyati (sobiq Arelat korolligining bnr qismi) qo'shib olindi. Chunki Dofine voris valiahdining udeli bo'lib qoldya, ana shu zamondan e'ti-boran taxt vorisi odatda dofishshk valiahd deb ataladigan bo'ldi. Yangi dinastiya, umuman olganda Frandiyani birlashtirish ' va korol hokimiyatini mustahkamlashni amalga oshirib, o'zidan burun o'tgan ajdodlar siyosatini davom ettirdi. Ammo Fransiya bilan Angliya o'rtasida boshlanib ketgan yuz yillak urush muno-sabati bilan Valuaning vazifalari g'odt mushkullashdi.

Yuz yillik urushning boshlanishi. Frantsuz feodallarining -mag'lubiyati. 1337 yildan 1453 yilgacha To'xtab, goh davom etgan Yuz yillik urush ikki qo'shni feodal davlatning to'qnashuvi bo'lib, ularning har biri bu vaqtga kelib siyosiy jiqat-dan ancha-muncha markazlab olgan va katta moddiy mablag'larni qo'lga kiritgan edi. Ingliz feodallarni bilan frantsuz feodal-lari o'rtasida kontinentdagi mulklar uchun chiqqan azalgi ter-ritoriya mojarolari urushning chiqishiga asosii sabab bo'lgan edi. Ingliz feodallari ^Normandiya bilan Anjuning qo'ldap ketganini sira-sira unutilmadilar. Franduz korollari hali inglizlar qo'lida qolib kelayotgan Akvitaniyadagi mulklarni uzil-kesid tugatishga harakat qilardilar. Ammo Akvitaniya Angliya uchun iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega edi. Ak-vitaniyadan qimmatbahr vino, meva, zotdor otlarni Angliyaga olib ketilardi. Akvitaniyada ingliz feodallarining ko'pdan-ko'p er-iulklari bor edi. Inglizlar bu erda eng katta ma'muriy va sudyalik lavozimlarini egallab, katta-katta daromadlar olardilar. Flandriya masalasida ham Angliya bilan Fransiya o'rtasida nizo chiqdi. Filipp IV bu kichik, lekin sanoat jihat-dan boy o'lkani egallash uchun butun kuch-huvvatipi sarflagaya edi. Ammo u Flandriya shaharlarshshng bir qisminigina qo'lga kiritashga muvaffaq bo'lgan edi. Filipp VI Flandriya kommunalary bilan kurashda Flandriya grafiga yordam berdi va shu-ning o'zi bilan bu o'lkaga o'z ta'sirini kuchaytirdi. Lekin ingliz savdosi manfaatlari Flandriya bilan juda yaqindan bog'Elangan edi. Flandriya sanoatkgshng o'zi Ingliz junisiz ish ko'rolmasdi. Flandriya masalasi ^ngliya bilan Fransiyani Yuz yillik urushga olib kelgan boshqa bir muhim sabab deyish mumkii.

Filipp IV ga xotin tomondan nabira bo'lmish ingliz koroli Eduard III king frantsuz taxtiga qilgan da'vosi urush chiqishi-ga bahona bo'ldi. Lekin Fransiyada vorislikni boshqacha prin-tsipi o'rnatilgan edi. Frantsuz yuristlari, xotii tomondan avlod bo'lgan odamlar korollik taxtiga o'tirolmaydi, deyishdi. Shunn-si qiziqki, bunda ular erga xotinlar vorisligini man etgan «Sali haqiqati» ni dalil qilib keltirdilar.

Yuz yillik urushda jang harakatlari juda sekinlik bilan bordi. Ush rasmiy suratda 1337 yilda boshlandi. Flandriya va u bilan qo'shni Brabant Angliya tomonnga o'tdilar. Flandriya grafi frantsuz koroli tomonga qochib o'tdi. Ammo faqat.. 1310 yilga kelib inglizlar qat'iy harakatlar boshlab, frantsuzlar-ning Sleys (Shelda daryosining

mansabiga yaqin joyda) yonida turgan flotini yo'q ^ildilar. Dengizda qozonilgan. bu g'alaba ingliz flotini dengizda hukmron qilib qo'ydi. Lekin inglizlar bilan franduzlar kuruqlikda to'qnash kelgunlarigacha oradan nna bir necha yillar o'tdy. Bu to'qnashuv Shimoli-Sharqiy Fran-tsiyaning Qresiga ya^in joyida Flandriya chegarasidagi 1346 yilda 'bo'lgan jang' edi. Frantsuz feodallari katta talafot ko'rdi-lar. Eduard III boshchiligidagi ingliz qo'shinlari to'la g'alabaga erishdilar. Frantsuzlarning engilishining asosiy sababi fran-tsuz ritsarlarining umumiy safda turib jang qilishga qobiliyat-

Angliyaning 1337 ingda Fransiyadagi er-mulklari

Ingliz qo'shinlari orasida ajoyib o'q-yoy otuvchi-larning bo'lishi ularning qo'lini baland qildi. Ingliz kamon-chilariyuqoritabaqa dehqonlal orasidan (yomenlardan)1 tanlab olingan yollanma qo'shin hisoblanardi. Yomenlar 350 qadam ma-sofadan turib og'ir kamonlardan mo'ljalga aniq urardilar.

1 XIV asrda Angliyada yomen deb, erkin dehqon-frigolderlarni ayti-lardi.

Yomenlar sabot va matonat bilan, shuningdek, o'zlarinipg har-biy mahorati bilan, ritsarlarning ogir tsuro-l-yarog'larini ia ularning yakka-yakka bo'lib ko'rsatgan jasoratini puchga chiqardi-lar. Undan keyingi, 1347 yilda Eduard III Kale portini bosib oldi, bu port uzoq vaqtgacha inglizlarning quruqlikdagi hukm-ronligining tayapch manziliga aylandi.

Yuz yillik urushda ikkinchi yirik jang 1356 yilda Puatega ya^in joyda bo'lib o'tdi. Ingliz qo'shinlari bu safar Fransiya-ping shimoliga emas, >balki g'arbiga keltirib tushirildi. frap-io'z feodallari ko'p sonli ritsar otliqlar yordamida ipglizlar-ni majaqlab ,tashlash umidida edilar. Biro^ inglizlar yana g'olib chiqdilar. Ingliz tomonining bosh qo'mondoni Eduard III ning o'g'li — Eduard «Qora shahzoda» 'bo'lib, u o'z qo'shinini Puatega yaqin joydagi tepalikka o'rnashtirdi, frantsuz ritsar-lari esa bu joyda etarlicha keng harakat qilolmadilar. Dush-map bilan jang vaqtida inglizlar ko'p frantsuz feodallarini, shuningdek, ritsarlarni ham asir qilib oldilar. Frantsuz ko-rolu Ioann (Jan) Rahmdilning o'zi xam asir qilib olindi (Ioann Rahmdil vafot etgan Filipp VI ping

o'rniga 1350 Gshlda korol bo'lgan edi). Bu g'alaba oqibatida G'arbiy va Shimoliy Fransiyaning katta bir territoriyasini inglizlar okkupatsiya qildi. Gien va Gaskondan tashqari (XIV asrda Akvitaniya ham shu ikki viloyatga bo'lingan edi), shulizlar Puateni, Overnning anchagina qismini va boshqa frantsuz erlarini bosib oldilar. Ingliz otryadlari Fransiyaning shimoli talab, deyarli Pa-rijgacha borib etdilar. Urushdagi mag'lubiyat Fransiya sin-fiy ziddiyatlarni keskinlashtirib mamlakatda jiddin siyosiy tanglikni keltirib chiqardi. Bu paytda frantsuz Geperal shtatlari siyosiy jihatdan katta rol o'ynadi.

1356—1357 yillarda General shtatlar. 1358 yilgi Parij qo'zg'oloni. Qorol asr qilib olinganligi gababli korollikni boshqarish aqincha dofin Karl' (Sharl) g'a Ea uning feodal maslahatchilari qo'liga o'gdi. Hukumatning ahvoli juda og'ir edi. Xazinada pul qolmadi. Harbiy kuchlar orasida tartib-intizom yo'q edi. Inglizlarning Parijga hujum qilish xavfi bor edi. Markaziy-boshqarmalarda poraxo'rlik, o'g'irlik, tartibsizlik hukm surardi. Dofti 1356 yil kuzida General shtatlarni chaqi-rishga majbur bo'ldi. 1356 yilgi General shtatlar odatdan tashqari bir tus oldi. Unga favtsulodda ko'p deputat to'plapdy. Shu bi-la.n birga 800 kishidan iborat bo'lgan deputatlarniig yarmiuchin-chi toifa vakillari edi. Uchinchoifa vakillari g'oyataktivlik ko'rsatib, hukumat yurgizayotgan siyosatni keski tanqid qildi-lar. Demokratik kayfiyatdagi Lan episkopi Lekok va Parij-dagi movut to'quvchilar tsexining oqsoqoli Eten Marsel oppo-zitsiyaga boshchilik qildilar. General shtatlar ko'p oliy amal-dorlarni almashtirishni, saroy xarajatlarini qisqartirishni va General shtatlarga soliqlar tayinlash huquqig'ina emas, bal-ki ularni yig'ish va xarajat qilish huquqi ham berilishini dofindan talab qildi. So'ngra, bundan keyin muntazam suratda (yilda uch marta) General shtatlarni chaqirib turishni talab etdi. Urush masalasida General shtatlar uni davom zpirish tarafdori bo'lib, faqat shtatlarning raziligini olgandak ke-shshgina dushman bilan sulh shartnomasi tuzishni talab qildi. Geperal shtatlarning bu barcha talablari 1357 yilgi Buyuk mart ordonansi nomi bilan rasmiy suratda qonunlashtirildi. Dofti 1357 yil 3 martida bu qonunga imzo chekdi.

Uchinchi toifaning «o'zboshimchaligi»dan g'azablangan saroy feodallari Eten Marsel va harakatning boshqa rahbarlariga nisbatan jazo choralarn qo'llashni qattiq

talab etdilar. Dofin. o'zi imzo qilgan mart ordnansini bajarkshga ro'yxush bermadi. Shundag'1 keyin 1358 yilnin-g 22 fevralida Parijda qo'zg'olon ko'tarildi, bu qo'zg'olonni Marsel tarafdorlari tayyorlagan. zdi. Parijning 3 mingga yaqin hunarmandlari va xalfalari Korol maydoniga to'plandilar va korol saroyiga bostirib kirdilar. Dofinning boil maslahatchilaridan ikkitasi o'ldi-rildi. Shumdan keyin Marselning o'zi shahzodaning—«boshmas-lahatchisi» bo'lib oldi. Ammo Marselning vasiyligi malol kel-gan dofin, tez orada, Parijdan qochib ulgurdi. U Kompen shahrini (Parijning shimoli-sharkida, Uaza daryosi bo'yida) 5zig'a rezidentsiya kilib tanladi va bu erda feodallarni hamda Teneral shtatlardagi uchinchi toifaga mansub eng mo''tadil ds-lutatlarnn o'z tevaragiga to'play boshladi. Xuddi shu vaqtda, 1358 yil bahorida, Parijning shimolidagi rayonda dehqonlar-ning kagta tso'zg'olofts tayyorlanar edi. Bu qo'zg'olon Jakeriya qo'zg'oloni degan nom oldi.

Jakeriya. XSh -asr o'rtalaridayoq Fransiyada dehqonlar noro-ziligi yuz berganligi yuqorida aytib o'tilgan edi. Krepost-noy dehqonlarning o'nlab ayrim mahalliy chiqishlari XIII asr-ning ikkinchi yarmi — XIV asrning birinchi yarmidagi xrogshka-larda ro'yxatga olingan. Keig dehqonlar harakatining asosny-sababi (bu narsa faqat Fransiya uchungina emas,< balki bundan keyin ham ma'lum bo'lishicha, XSh—XIV asrlardagi Evropaning boshqa barcha mamlakatlari uchun ham xarakterli edi) feodal sistemasining emirilishi, feodal-krepostnoylik ekspluatatsiya-sining eski formalaridan tovar-pul .munosabatlariga asoslan-gan, dehqonlar ommasi uchun yanada og'irroq bo'lgan uning yangi, ixchamroq formalariga o'tilishi bo'ldi.

Dehqon-servlarning shaxsiy krepostnoy qaramlikdan ozod etilishi va ularning «yangi villanlar»ga aylantirilishi Fran-tsiyada XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asr boshlarida zo'r berib davom etdi. Korol Lyudovik X .korollik er-mulklarida-gi dehqonlarni haq to'lash sharti byalan ozodlikka chiqarish to'g'risida 1315 yilda farmon chnqardi. Korol o'z farmonida boshqa katta er egalari ham mendan ibrat oladilar, deb umid qilgan edi. Servlarni ozod etish tobora keyag myqyosda davom etdi. Yang'i «erkin villanlar» (haq to'lab shaxsiy ozodlikka chiqqan sobiq servlar ana shunday deb atalardk) frantsuz qishloqlari-da tez-tez uchraydigan bo'ldi. Servlarga yaqin turgan «eski vil-lanlar» ham majburiyat o'tashdan haq to'lab qutuldilar. «Yangi» va «eski»

villanlar muayyan pul obroklari (chinshi) to'lash sharti bilan vorisiy zamindorlarga aylandilar. Biroq, «xalos bo'lish» frantsuz dehqoni gardaniga og'ir yuk bo'lib tushdi. Ozod-likka chiqish uchun to'lanadigan haqning g'oyat darajada yuqori bo'lishi «ozod bo'lgan» dehqonni sudxo'rlar sirtmog'iga tushirdi. Ayni zamonda senorlar, avvalgidek, dehqonlarni sud qiladigan senorlik sudini saqlab qoldilar, shuningdek, bir qancha natural yig'inlar undirishni va shu jumladan, kichik barshchi-nada ishlatishni davom ettirdilar. Bularning hammasi dehqon xo'jaligining rivojlanishiga to'sqinlik qilardi, dehqonni mustahil erkin mayda tovar ishlab chiqaruvchiga aylantirishni to'xtatib turardi.

1349 yilda Fransiya o'lat kasalligi («hora o'lim») tarqalib, shimoliy frantsuz aholisiga ancha katta ziyon-zahmat etkazdi. Nihoyat, Yuz yillik urush, bu urush orhasida davlat tomonidan katta-katta soliqlar solinishi va chetdan kelganlar, ya'ni ODshzlar tomonidan ham, vatandoshlar — frantsuz feodallari tomonidan ham qishloqlarni barmon payhon qilinishi sababli frantsuz qishloqlarining g'oyat darajada tinka-madori quridi. Hech qanday hokimiyatni tan olmachdan, kapando'zlik (marodyorlik) qilgan harbiy otryadlar, ya'ni brigandalar dehqonlarga ayniqsa katta ziyon etkazdilar. Brigandalar frantsuz qishloqlarini bemalol taladilar, dehqonlarni oziq-ovqat mahsulotlari va mol-mulklarini tortib oldilar, mol-hollarini bosib oldilar, dehqon xo'jaligini tamomila izdan chiqardilar, dehqonlarning o'zlari esa talovchilardan o'rmonlarga qochib, bek-nib yurishga majbur bo'ldilar. Mahalliy senorlar brigandalarga qarshi kurashishda dehqonlarga hech qanday yordam ko'rsatmadilar! Hatto brigandalarning «kapitanlari» bilan til bi-rikirib, talab olingan o'ljalarni bo'lishda ishtirok etgan senorlar ham yo'q emas edi.

1358 yilda Bove okrugida (okrug markazi Bove shahri) qo'z-g'olon boshlanib, u keyin Sena, Marna va Uaza daryolari havza-sidagi katta rayonga yoyildi. Il de Frans, Pikardiya va Shan-pan dextdonlari qo'zg'oldilar.

1358 yil iyunining dastlabki 10 kuni ichida harakat juda keng miqyosda yoyildi. Dehqonlar (dvoryanlar nafratlanib ularni jaklar deb atardilar) feodallarga qarshi g'oyat darajada g'azablangan edilar. Dehqonlarning shiori: «Barcha zodagon kya-shilarni oxirgi zurriyotigacha bitta qoldirmay qirib tashlash» degan shior edi. Ammo ular korol

bizni qo'llab-quvvatlaytsi deb o'ylab, o'z bayroqlarida korollik gerbining emblemysi bo'l-mish nilufarni tasvirlab ko'rsatdilar. Bove okrugiga qarashli bir qishloqdan chiqqan va harbiy ishdan xabari bo'lgan dehqon Gilom Qal qo'zg'olonchilarga boshchilnk qildi. Shimoli-Sharqiy Fransiyaning ba'zi bir shaharlari dehqonlar tomoniga o't-gan bo'lsa-da, lekin ular yaisbatan kam va ko'proq mayda-chuyda shaharlar edi, Masalan, Bove shahari qo'zg'olopchilarga qo'shildn va ular ancha mustahkam ittifoq tuzdi. Boitsa shaharlardai Sanli, Mo, Ruan jaklarshsh quvvatlab chikdilar. Pul zarb qiluvchilar tsexining oqsoqoli, Eten Marselnint do'sti va mas-lakdoshi Jan Vayan boshchiligida jaklarga yordam berish uchun ParijdanZOO kishilik otryad yuborildi. Biroq Amen, Qompen va boshqa yirikroq shaharlar jaklaryai qo'llab-quvvatlashdan bosh tortdilar.

Parij savdogarlari oksokoli Eten Marseltsiyag o'zppingtut-gan mavqei g'alati bo'ldi. Marsel qo'zg'olon ko'targan dehqon-larga og'izda knzgn xairpxohlyak bildirdi. Uning farmoyyashya bilan Jai Vayanboshchilngida Parijdan jaklarga otryad jo'-natnldi. Adsho, shu byalan bir vaqtda, Et'en Marsel dehqonlar ho'zg'olonining ahamiyatiga etarlicha baho bermadi. Etei Mar-sel tomonidan jaklarga yubornlgai yordam sira etarli zmasdi. Eten Marsel dofinga qarshi kurashish planini, har qalai, tso'zg'olon ko'targap deqqonlar bilan itgifoq bo'lib emas, balki Fransiyaning eng yirik feodali—Navarra koroli Karl Evu^ bnlan iggifo^likda amalga oshirishni mo'ljalladn. Eu feodal ham Kapetinglar avlodidan bo'lib, franduz taxtnnpg da'zo-garlaridap edi. Ispaniya bilan chegaradosh Navarra korollign-dap tashqari, Qarl Yovuziing Norma'ndiyada ham ko'pgina er-mulk-lari bor edi. Qo'zg'olon paytida jaklar bilan qo'shnichplikda yashagan Karl Navarrskiy bu qo'zg'olonga befarq qaramadi. U Uaza daryosi vodiysidagi Qlermon shaharidan uncha uzoq bo'lma-gats joydan turib qo'zg'olon ko'targan de^onlarga ^ujum kildi. Ammo jaklar ko'p sopli bo'lgailigini hisobga olib, makkor shahzoda jang qilishga botinmay, hiyla-nayrang ishlatish yu-liga o'tdi. Karl go'yo muzokara olib borish muddaosida Gilom Kalni o'z huzuriga taklif etib, uni xiyonatkorola qamoqqa oldi, so'ngra esa uning boshiga qizitilgan temir tol^ni kiydirib, qatl etdi. Shundan keyin Shimoliy Fransiyada feodallarning qonli jazolashya boshlanib, dehqonlardano'ch olindi. KarlEvuz-ning o'zining otryadlari,

shuningdek, boshqa feodallarning ot-ryadlari qariyb 20 ming dehqonni qirib tashladilar. Dehqon-larni faqat frantsuz feodallari kaltaklabgina qolmay, balki hatto urush sharoitida ham o'zlarining sinfdosh birodarlariga srdam bernshga shoshnlgan ipglz feodallari ham ularni o'lgudek do'pposladilar.

Shu tariqa, jaklar qo'zeoloni qora qonga botirildi, Ntarlts darajada-uyushmaslik, deh^onlarning dushman feodallarga ko'n-gilchaplik qyalishlarn, byaror-bir aniq va ravshan programma-ning bo'lmasligi — Jakeriya qo'zg'olonining mag'lubiyatga uchrashi-ning asospy 'sabablarrg ana shulardir. Jakeriyaning, shuningdek, o'rta asrlar davridagi boshqa dehqonlar qo'zg'olonlarining engi-lishining sababi — dehqonlarning shaharda ishonchli ittifoq chisining yo'qligi bo'ldi, bunday ittifoqchisiz hech bitta dehqok qo'zg'oloyai engib chiqishi mumkin emas. Eten MarselESHng dehqonlar masalasidagi siyosatya sinfiy jihatdai cheklangan va kaltabinlik 'siyosagi edn. Ammo Marsel o'znning siyosiy xatosi uchun tez orada kattiq iaiddi. Dehqonlar harakatidan qo'rqib . qoltak feodallar dofii tevaragiga jiplashdilar. Dofinning ayg'oqchilari Parijda o'z. faoyaiyatlarini kuchaytirdilar. Shu orada Parijning o'zida ham norozilik o'sib bordi.

Eten Marselning boy shaharliklarning manfaatlarinn na-zarda tutib o'tkazgan soliq siyosatidan mayda hunarmandlar norozi edilar. Ana shundan -foydalangap dofin tarafdorlari poytaxtda opgyuzitsiya boshliqlariga ^arshi dushmanlik haraka-tini uyushtirdilar. Uz dushmanlari bilan yuzma-yuz kelgan to'q-nashuvlarning birida, 1358 yilnidg 1 avgustiga o'tar kechasi Eten Marsel o'ldirildi.

Karl V ning reformalari. Urushning yangi davri va fran-tsuzlarning muvaffa^iyatlari. Qorol Ioain Londondagi asir-likda vafot etgandan keyin, 1364 yildan dofin Karl Karl V pomi bilan (1364—1380) ^ukmronlik tsila boshladi. Karl V S* yillardagi siyosiy krizisdap bir qancha saboq oldi va ko-rol>bo'lib olgandaya keylya, bir necha mu.xim reformalar o'tkaz-dn. Bu rsformalar. korollik hokimiyatining ahvolini ancha muo taxkamladi. Avvalo Karl V ing.jzlar bilan sulh shartnomasya tuzdi. 1360 yilgi Bretini sulh shartnomasi juda og'ir shart-darin o'z ichyaga olgan bo'lyab, frantsuzlar Fraptsiyannyag shimoli va g'arbidagn ko'pgina territoriyalarni inglizlarga berishga majbur bo'lgaya edi. Ammo Franimya urushii davom etgnrnshga o'ziz 'bo'lgailigyadan shunday qilish juda zarur» edi.

Yafasnts rosglab oliigdan foydalangan Karl V eng xavfln feodallarni er bilan yakson qildi. U Qarl Evuzga qarashdi mulklarni musodara qildi va uing o'zini Frantskyadai haydab yubordi. Ge^,og Bretanakiy frantsuz, korolsh-a vassal qaramlik-ni tan olishga majbur bo'ldi. Karl V ning tug'ishgan ukasi Bur-gundiya tertsogi qilib saylandi, shu bilan Parij saroyi Bur-gundnya gertsogligiga o'zining siyosiy ta'sirini o'tkaza boshladi. Qaroqchi shaykalarga aylangan (brigandalar) va mahalliy aho lipi ayovsiz talagan feodallarniig harbiy otryadlari ' (^sam-panilar) ni tugatish uchun hukumat ko'p kuch-huvvat sarfladi. Lekin Qarl V davlatning moliya ishlariga ayniqsa katta z'tibor berdi, 1369 yilda u bir qancha doimiy soliqlar to'p-lash — tamojnya boji {edlar), tuz solig'i (gabel) va xonadon solig'i (yoki «tutun» solig'i), ya'ni pechkasi (fuaji) bo'lgan^ar bir uydan soliq yig'ish to'g'risida General -shtatlarning rozili-giii oldi. Hukumat shtatlarni chaqirmay turib ham, ioma'lum vaktgacha («harbiy zaruriyat buni talab etgan paytgacha») bu soliqlarni yig'ish huqukini oldi. Shuvday kilib, korolga da-romadlarning doimo kelib turadigan manbalari topshirib qo'-yildn va u zndiliqda General shtatlarga unchalik bog'lik bo'lmay qoldi. Karl V shtatlarni chaqirishga barham bersa-da, har hol-da, uchinchi toifa a'zolarining moliya sohasidagi tajribasidan foydalanishga qaror berdi. Uchinchi toifaning ko'pgina vakil-larini u amaldorlar sifatida moliya boshqarmasiga jalb qil-di. Burjuaziya vakillari markaziy boshqarmaga ishga qo'yildi-lar, lekin ular endi pazoratchilar sifatida emas, balki feodal davlatning oddiy korollik amaldorlari etib qabul qilindilar.

Moliya reformasi qo'shinni qaytadai isloh qilish uchuv Karl V ga zarur bo'lgan mablag'larni etkazib berdi. Yollanma askarlar qabul qilish yo'li bilan korollikning yirik harbin otryadlari tuzildi, bu otryadlarning bir qismi otliq askarlar-dan, bir qismi piyoda askarlardan iborat edi. Stratetiya ji-hatdan muhim bo'lgan qasrlar qaytadan tiklandi, 120 ta kema-dan iborat harbiy flot qurildi, frantsuz qo'shinida to'plar paydo bo'ldi. To'plarnipg paydo bilishi harbiy sohadagy muhim yangilik edi,

Harbiy reforma patijalari urushning borishidz darhol namoyon bo'ldi. Urush harakatlari boshlanib ketgandanso'ng (136',) yb harakatlar inglizlar uchun muvaffaqiyatsnz bo'lib ^ V ning iste'dodli bosh qo'mondoni Dyugeklen katta janglarga kirmay, lekin kichik-kichik epchil otryadlar bilan tez-tez va to'satdan harakat

hplib, inglizlarni birin-,ketin Nor-mandiya, Puate va Giendan surib'chitsardi. Dyugeklen qaslarni qamal qilishda artelleriyadan ustalik bilan foydalandi. U 200 dai ziyodroq qal'a-qo'rg'onni dushmandan tozaladi. 138E yil-da inglizlar qo'lida jami bo'lib bir nechta sohil bo'yi shaharlar qolgan edi. Urush asta-sekin so'na bordi. Karl V va Dyugeklen vafot etgaidan keyin, 1396 yilda 28 yilga cho'zilgan yarashish ahdi tuzildi._7

Karl VI davridagi feodallar anarxiyasi. «Shahzodalar feo-dalizmi». XIV asrning oxiry — XV asrning boshlari Franqiya-da yangi siyosiy krizis zamoni bo'ldi. Karl V ning o'g'li Karl VI (1380—1422) balog'atga etmasdan turib jorol bo'ldi. 90- yil-larning boshlarida u telba bo'lib qoldi, shu davrdan e'tiboran komigagiia korollik qildi. Saroyda feodallar to'dasining ku-rashi boshlanib, unga korollik xonadoniga mansub shahzodalar boshchilik qildi. Saroy feodallarining bir to'dasiga korolning akasi gertsog Orleanskiy boshchilkk qildi. Janubping qudratli feodallari —armanyaklar ham bu to'dani ho'llab-quvvatladi-lar. Ikkinchi to'daning boshlig'i gertsog Burgundskiy bo'lib, Karl VI ning am-akisi edi1. Har ikkala to'da navbati bilan hokimiyat tepasiga chi-qib olib, u davlat mablag'lariny talon-to-roj qildi, korollikka qarashli mulklarni bosib oldi, shahar-larpi taladi.

Manbalarda raqiblashgan to'dalar odatda, burginonlar (Burgundiya to'dasi) va armannklar (armapliklap to'dasi) deb yurgiziladi.

Yuqori soliqlardan, amaldorlarning yirtqichligidan va bir hovuch oliy martabali feodallarning saroydagi zo'ravonligi-dap azob chekkan shaharlarning noroziligi Parijda, Ruanda, -Amenda va Flandriyaning turli shaharlarida 1380— 13V2 yil-larda bo'lib o'tgan bir qancha shahar g'alayonlarida ifodalaidn. Parij xalq ommasi 1382 yilda kurol-aslaha omborshsh egalla-gan va voqeanavislarning aktshicha, temir to'qmoqlar bilan qurollanib, soliq yig'uvchilarni va korollikning boshqa amaldor-larini o'ldira boshlaganlar («to'qmoqchilar qo'zg'oloni»). Nor-mandiyada, Overinda va Langedokda XIV asr 60—80-yillarning boshidan to oxirigacha keng miqyosda dehqonlar qo'zg'olonlari bo'-lib o'tdi. Bu qo'zg'olonlar ham qisman shaharlardagi xalq omma-sining chiqishlari bilan bog'langan edi. Qo'zg'olon ko'targanlarni yoshenlar deb atadilar (tyushen so'zining asl ma'nosi—«o'rmon kishilari» demakdir. Aftidan,

qo'zg'olopchilar o'rmonlarda yashi-rinib yurganliklari uchun shunday deb atagan bo'lsalar kerak). Biroq bu g'alayonlarning hammasi hukumat tomonidan bostirildi.

Kaboshchilar qo'zg'oloni. Karl VI davrida shahar qo'zg'olon-lari orasidagi eng yirik qo'zg'olon — kaboshchilar qo'zg'oloni Adi.*Bu ho'zg'olon 1413 yil 27 aprelda Parijda bo'ldi. Bunda poytaxtning keng hunarmandlar ommasi katnashdi. Simon Kabosh (qo'zg'olonning o'zi ham ana shunk^g nomi bilan ataldi) boshchi-ligidagi Parij qassoblari tsexi qo'zg'olonda ayniqsa katta rol o'ynadi. Parij universiteti vakillari ham harakatda qatnash-dilar, ular yangi ksng ordonans loyihasi tarzida qo'zg'olonchi-larning 258 moddadan iborat talabnomasini ishlab chiqdilar, bu loyiha korol amaldorlarining suiiste'mol qilishlariga, shuningdek, eng yirik feodallarning — shahzodalar va boshqa oliy martabali senorlarning boshqaruv ishlariga aralashish-lariga hal:..)barham berishni maqsad qilib qo'yg'ap ma'muriy, sud va moliya reformalariping mufassal planini o'z ichiga olgai edi. Usha vaqtda hokimiyat tepasida turgan orleanliklarni ka-boshchilar erdamida ag'darib tashlashga itklgan Burgupdiya to'-dasi ularni ochiqdan-ochiq qo'llab-quvvatladi. Kaboshchilar ha-rakati qatnashchilarining sostavi har xil bo'lganligi va gertsog Burgundskiy tomonydan etarlicha yordam berilmaganligi tufay-li qo'zg'olon 1413 yilda bosgirildi. Mag'lubiyatdan kepin ka-boshchilarning bir qismi Burgundiyaga qochib ketdi. Shu davrdan boshlab gertsog Burgundskiyning saroyi korol hukumatiga lg'ar-shi fitnalarniig asosiy markazi bo'lib qoldi. Gertsog Bur-gundskiy ingliz koroli bilan muzokara boshlab, u bilan do'st-lik shartnomasi tuzdi.

Anpdiya bilan urushning yana boshlanishi. Inglizlarning hu-jumi.g'^rantsuz feodallari orasidagi kurash ingliz saroyi uchun sir emas edi. Ingliz koroli Genrix V (Lankasterlar di-iastiyasiga mansub odam) qulay vaziyatdan foydalanishga qaror £erib, 1415 yilda urush ha^akatlarini yana boshlab yubordi. U o'sha zamonda g'oyat ko'p hisoblangan 60 ming .kishilik qo'shin bilan Sena daryosi mansabiga kelib tushdi. Frantsuz hukumati 100 ming kishilik lashkar to'pladi, lekin uning harbiy maxo-rati g'oyat past edi. 1415 yil kuzida ingliz qo'shiplari bilan fraptsuz qo'shinlari Azenkurga (Pikardiyada) yaqin joyda to'k-nashganlarida, frantsuzlar yana kattiq mag'lubiyatga uchradilar'. Gertsog Orleanskiyning o'zi inglizlarga asir bo'lib tushdi! Ing-liz feodallariga do'st bo'lgan burgupdiyaliklar «betaraflik» sa^lab jaigda qatnashmadilar.

Shundan keyin ipglizlar butun Normandiyany istilo qildilar. Inglizlar deyarli Parijga yaqinlashib qoldilar va gertsog Burgundskiyning ko'magida Karl VI hukumatipi juda tahqirli sulh shartlarini qabul qilishga majbur etdilar. 1420 yilgi Trua shartnomasiga ko'ra, Angliya bilan Fraptsiya umumiy korol qo'l ostida bitta korollikka birlashdila^Karl VI vafot etgandan keyin tez orada, shu Karl VI ping qizi malika Ekateripaga uylangan Genrix V har ikkala mamlakatping koroli bo'lishi kerak edi.

Shartnomaga muvofiq Qarl VI ning o'g'li^ vorislik huquqla-ridan mahrum etildi. U Parijdan Armanyaklarga qochib o'tdi. 1422 yil avgust oyining oxirida Genrix V 36 yoshida to'satdan kazo qildi. Shu yiliing oktyabrda keksa Karl VI vafot qildi. Siyosin vaziyat darhol mushkullashdi. Ingliz-frantsuz korolligi tarafdori bo'lgan Burgundiya G'o'dasi Genrix V bilan Ekaterina-ning 10 oylik o'g'li Genrix VII'ni Angliya va Fransiyannng koroli deb e'lon qildi? Armanyaylarnipg «milliy» frantsuz to'dasi dofii Karlni Karl VII nomi bilan korol deb e'lon etdi. Luara daryosining janubdagi kichkipa Burj shdxri bir necha yidgacha Karl VII ning' poytaxti bo'lib qoldi?

{,^Frantsuz korolligi^ing ahvoli og'ir edi. Urushning oxiri ko'rinmasdi. Frantsi»ling shimoli bilan janubi ikki raqib mamlakatga aylaii&qolgan edi. Iigliz feodallari Fransiya-ning bosib olingan qismida o'z uylaridagidek xo'jayinlik qi-lardilar, 1428 yklda ular Orleanni qamal qilmoqchi bo'ldilar. Agar Orlean olinsa, inglizlarning Fransiya janubiga yapada hujum qilishlari uchun bemalol yo'l ochilgan bo'lur edi

Janna D'ark. Cho'zilib ketgan urush korollikka qarashli asSsiy rayonlarning dushman tomonidan bosib olintsshi, Eurgun-' diya f.eodallarining xoinlik. siyosati — bularning hammasi Fran1liya xal^ ommasini tashvishga va tahlikaga soldi. Turli joylarda i?gterventlarga harshi xalq bosh ko'tarib chiqa bosh-ladi. Ana shunday chiqishlarning biri dehkoni qizi Janna d'Ark nomi bilan boglangan bo'lib, u urushning borishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Janna d'Ark Burgundiyadan uncha uzoq bo'lmagan Sham-panning Lotaringiya bilan chegaradosh joyidagi Domremi degach qishlotsdan chiqqan edi. Turli yo'llar kelib tutashgan bu joyda urush haqidagi xabarlar ayniqsa ko'p fikr va mulohazalarta-sabab bo'ldi. Xayolchan, serandisha va cheksiz hayajonlankshga mo-yil Janna d'Ark bu hikoyalarni zo'r berib tinglardi. Frandiyani inglizlardai xuddi Janna d'Arkdek jasur odam xalos qilishi lozim degan ishonch asta-sekin bu tspz

ko'nglida tug'ila bordi. Bu-vazifaga u, xudoyi taoloning o'zi topshirgan ish deb qaradi. Erkak kiyimini kiyib olgan Janna d'Ark harbiy ishni bilgan bir guruh hamqishloqlari bilan birgalikda dushmanlar bilan kurashda yordam bermoq uchun Karl VII ni izlab borish uchun yo'lga ravona bo'ldi. 1429 yilning martida Karl VII ning qasrlaridan birida uni korol qabul qildi. Orlean to'dasi yangi «avliyo»ning obro'-e'tiboridan foydalanmoqchi bo'ldi. Jan-pa d'Arkni armiyaga olishdi. Ritsarlik yarog'-aslahalarini taqib olgan bu qiz, otda qo'shinni aylanib chiqib, uni Orlean yonida urush harakatlarini boshlashga da'vat etdi va g'alaba qo'lga kiritilajagini oldindan karomat qildi. Janna frantsuz tso'-shini ichida intizomni ko'tarishga chaqirdi va dushman bilan olishuvlarda o'zi katta pahlavonlik ko'rsatdi. Orleanni ozod qilish operatsiyalari to'la g'alaba qozondi. Orlean 1429 yilning 5 mayida ozod qilindi. «Orlean qizi» haqidagi shonshuhrat butun Fransiya tuprog'iga eyildi.

To'g'ri his-tuyg'uga amal qilgan Janna tez orada Karlga Reyms shahrida toj kiyish marosimini o'tkazishga maslahat ber-di. Korol bu maslahatni qabul qildi. Karl VII ning toj kiyish marosimi muvaffaqiyatli o'tdi va bu Fransiyaning «qonuniy koroli» bo'lgan Karlning obro' e'tiborini darhol ko'tardi. So'ngra, Janna d'Ark urush harakatlarini tezlatish va Parij tomonga yurish qilishni qattikturib korolga taklif etdi. Ammo Orlean to'dasi bu ishni paysalga sola boshladi. Dehqon qizi-nning maslahatlariga quloq soldilar-u, lekin bu maslahatlar bajarilmadi. Unga hatto uining o'zini katta xavf-xatar ostida qoldiruvchi mayda-mayda harbiy operatsiyalarni bajarish top-shirilardi. Shunday operatsiyalarning birida (Kompsn shahri-ni mudofaa.kilish paytida) burgundiyaliklar Janpany asir qilib olib, sung uni katta aqcha evaziga inglizlarga topshirdi-lar. Inglizlar Janna d'Arkni sehrgarlikda aybladilar. 1431 yilning 30 mayida Janna d'Ark sehrgar sifatida Ruandagi bir maydonda o'tda kuydirildi. Karl VII Janna d'Arkni o'lim - jazosida N'Qutqarishni hatto xayoliga ham keltirmadi.

Yuz yillik urushning tugashi va uning oqibatlari. Janna d'Ark halok bo'lsa ham, lekin uning vatanparvarlik ishi o'z samarasini berdi. Inglizlarga qarshi kurashdagi jiddiy yutuq-lar uning nomi bilan bog'langan. Janna -d'Ark haqidagi xotira frantsuz vatanparvarlarini bundan keyingi kurashga da'vat ztgan o'ziga xos bayro^ bo'lib qoldi. Fransiyaning turli jry-laridan mayda ritsarlarning, dehqonlar va shaharliklarning yangi

a^uroli otryadlari yordam berish taklifi bilan Karl VII huzuriga kelardilar. Ayni zamonda go'dak korol davrida va ^arbiy muvaffaqiyatsizliklar sharoitida inglizlar lagerida feodallarni ayrim to'dalari o'rtasida ichki kurash tobora ko'proq keskinlashib borardi. 1435 yilda gertsog Burgupdskiy ingliz-frantsuz to'dasi bilan tuzgan ittifoqini beyaor qildi. 2436 yilda Karl VII Parijga kirib keldi. 40- yillarda ingliz-"lardan Gien va Normandnya batamom. tsaytarib sshshdi. Ular qo'lida birgina Kale porti qoldi. Garchi urishuvchi tomonlar o'rtasida rasmiy sulh shartkomasi tuzilmagan bo'lsa ham, lekt-sh Yuz yillik urush 1453 yilda to'xtadi. L

Yuz yillik urush Franvdyani. juda vayron qilib tashladi. Ko'p shaharlar, turli viloyatlariing savdo-sotiq ishlari izdap chihdi, jumladan shimolnichg janub bilan qiladigan savdosi uzoq vaqtgacha to'xtab qoldi. Korollnkdagi ahoⁱ to'rtidan uch qnsmga kamayib netdi. Eknp ekmladigan dalalarning ko'pchiligi xarobalarga aylandi, u erlarda o'rmon va chakalakzorlar paydo bo'ldi; yuzlab qyshloklar go'yo ularda hech qachon odam bolasi yashamagandek, er gozidan g'oyib bo'ldi. Ammo urushning Frantsyya uchun ijobiy tomonlari h^am- bo'ldi. Urush natijasida avvalo, axrlida milliy his uyg'ondi. Urush xalqning vatanparvarlnk yuksakligi bilan tamom bo'ldi. Yuz yillik urush, oqibat-natk-jada, Fransiyani birlashtirish jarayonini ilgari surdi. Uruil-gacha mamlakatning janubi-g'arbida inglizlarga qarashli bo'lgats ancha keng territoriyalar (Gien va Gaskon) endilikda Fran-tsiya korolligiga ^aayta birlashtirildi. Korol hokimiyatining japubiy viloyatlar (Lapgedok) ustidan muptazam nazorati Yuz yillik urush paytida va undai jeyingina uzil-kesil o'rnatildn. Frantsuz korolining inglizlar ustidan g'alaba qilishi Burgua-diya gertsogligini qo'shib olish masalasini navbatga ho'ydi. Bur-gundiya gertsoglari urush mahalida ingliz feodallari bilan ittifoq tuzgan edilar. Inglizlarning mag'lubiyati gertsoglik-ning mavqeini zaiflashtiryb tso'ydi. Parij hukumati birlash-tirilmay qolgan feodal mulklari orasndagi eng yirik feodal erlarning mustaqilligiga barham berish uchun tabiiy, bu vazi-yatdai foydalaiishga shoshildi.

Yuz yillik urush vaqtida Fransiya siesiy markazlashish. ma-salasida katta yutuqlarni qo'lga kiritgan edi. Urush paytida yirik feodallar xalq nazarida "o'zlarini tamomila badnom qildilar. Qorol hokimiyati barcha muvaffaqiyatsizliklardai qat'i nazar, o'zini «tarkib topayotgan millat»l markazi qilib ko'rsatdi. Butun kuch bilan

davlat mudofaasini mustahkamlash zarur bo'lgan urush sharoitlarida korol hokimiyati yollangach doimiy armiyani o'z nxtiyoriga oldi va muntazam soliqlar yarat-di; shu munosabat bilan markaziy va mahalliy korollik amal-dorlari apparati ancha kengaydi. Karl V soliqlariga qo'shimcha qilingan soliqlar orasida talya nomli yangi soliq ayniqsa kztta ahamiyatga ega bo'ldi (bu soliq Qarl VII davrida, 1433 yilda joriy qilingan edi). Talya solig'i aholining asosyy ommgsi — dehhonlar bilan shaharliklarning mulklaridan un-dirilardi. Korollarga «umrbod» qilib belgilab berilgan bu soliq kelgusida fr.ants,uz korolligidagi davlat daromadlari-ning asosyy manbai bo'lib qoldi.

Inglizlar bilan olib borilgan urush mahalida kattagina rol o'ynagan General shtatlar shu urushning borishida amalda yo'q bo'ldi. Toifalar o'rtasidagi nizo-janjal, frantsuz shahar-larining bir-birovlari bilan etarlicha inoq bo'lmasligi, uchin-chi toifa vakillarining boshqaruv apparatiga, birinchi galda moliya boshqarmasiga kyrib olishi bu faktni etarli darajada izohlab beradi. Korollar, Karl^dan boshlab, General shtatlar o'rniga, >vaqt-vaqti bilan notabllar («mashhur kishilar») deb atalgan odamlarning yig'ilyshlarini chaqirib turadigan bo'ldi-lar. General shtatlar nng aksi o'laroq, bu yig'ilishlar toyafa vakillarining yig'ilishiga o'xshamasdil va faqat maslahat be-rish xarakterida bo'lardi. Notabllarning yig'ilishida qatiash-gan shaharliklar, amalda o'ziga xos moliya ekspertlari edi. Hu-kumat bulardan ba'zi bir xil ma'luiot olishni istardi, lekin hukumatda ularning fikri inobatga olinmasdi.

XV ASRNING IKKINChI YaRMIDA Fransiya.

ABSOLYuT MONARXIYaGA O'TILIShN

Lyudovik XI. Frantsnyani ^irlashtirishning tugallanishi.

{XV asrningikkikchi yarmidakorol hokimiyati allaqachon cheklan-magan monarxiya xususiyatlarkga ega bo'lib, u Fransiyada eng zo'r qudratga erishdi. XV asrda Lyudovik XI (1461 —1483) eng atoqli korol bo'lib, uni Franvdyanii g birinchi absolyut koroli deb bejiz aytmaganlar. U o'z zamonasining atoqli siyosatdoni, eng yirik diplomati ed^. U o'z hukmronligining ko'pchilik qismini yirik feodallarga qarshi aevsiz kurashda o'tkazdi. Feodallar unga qarshi «Jamiyat baxt-saodati uyushmasi» degan mashhur nom ostida ittyfoq tuzdilar. Ittifo^ning asosiy rahbari gertsog Burgundskiy —

le Turdagi mustahkamlangan hasrda istiqomat qildi O Feodallarning yangi fitnalaridan xavfsirab, Lyudovik XI sha-harlarga tayanmoqchi bo'ldi, lekin ularga ham ishonmay, shaharlar-ning erkinligini har qanaha yo'llar bilan cheklab qo'ydi. Ammo, shunga qaramay, u shahar savdosi va sanoatini rivojlantirish uchun ko'p ish qildi. Lyudovik XI Lionda zo'r berib ipakchilik manufakturalari qurdirdi va u erda eng yirik yarmarka tashkil etdi. U shimolyy frantsuz savdogarlari uchun Angliya bilan foydali shartnoma tuzdi va Langedok savdogarlarining vene-tsiyaliklar bilan qyalgan raqobatida langedokliklarni qo'llab-uvvatladi. Bordo shahri korolning alohida homiylngidan foydalandi. Lyudovik XI davrida Burgundiya gertsogligidan tashqari, korollik domeniga boshqa yirik viloyatlar Frantsyaning shimolida — Pikardiya va markazda — Berri, shuningdek, janubida — Provan grafligi qo'shib olindi. Lyudovik XI davrida ichki bojlarning bir qismi bekor qilindi, bu esa ichki savdo-sotiqning ancha joplanishiga yordam berdi. Lyudovik XI ning savdo-savdogar sohasidagi siyosati merkantilyazm deb atalgan sig-sat edi. Merkantilizm siyosatini qo'llanishdan muddao—tashqari, savdoda «ma'qul balans» o'rnatish yo'li bilan mamlakatda qimmatbaho metallarni jamg'arishga intilib, shu qimmatbaho metallarni tashqariga chiqarishga qaraganda, ularni mamlakatga keltirishni ko'paytirishdan iboratdir. Merkantil sistemasi-shshg asosiy qoidalaridan biri, umuman olganda, chet elga oltin va kumush chiqarishni qagtiq taqiqlab qo'yish edi.

Feodallar uchun dahshatli bo'lgan Lyudovik XI burjua uchun -uning o'z kishisi hisoblanar edi. ba'zan burjua odamlari ular mening qadrdonlarim deb atar va ularni tortinmay-netmay qabul qilaverardi. Tashqi qiyofasi jihatdan oriqlik, qaddi bukchay-gan, ustiga eskirgan uzun kamzul kiyib olgan, doimo sertashaio! va ish bilan band bo'lgaya Lyudovik XI, g'oyat ulkan va etarli darajada markazlashgan korollikning korolidai ko'ra, ko'proq «o'rta sinf» orasidan chiqqan kishiga o'xshab ketardi. U qo'shniqlariga, kam markazlashgan yoki hali butunlay markazlashmagan davlatlarga xg^f-xatar sola boshlaydi. Evropada Lyudovik XI ni sira yoqtirmas va undaya qo'rqqar edilar. Uni hzr qanday dip-lomatik fitnalar yo'li bilan noznk o'rgimchak uyasi yasab, shu uyaga o'z raqibini aldab ilintiruvchi makkor o'rgyamchakka o'xsha-tardilar.

r!yudovik XI ning o'g'li Karl VIII (1483—1498) mustaqilly-gini hamon saqlab qolgan so'nggi Bretan gertsoglnigini qo'shib oldi (1491 y.). Fransiyaning Kapetinglar davrida boshlapib, Valua davrnda tamom 'bo'lgan syyosiy markazlashishdagi ueoqqa cho'znlgan jarayon ana shu tariqa tugallandi. XVI asrga kelib Fransiya Evropadagi eng katta va eng markazlashgan korollik-lardan biriga aylandi.

Frantsuz millatining tarkib topa boshlashi. Frantsuz mar-kazlashgan davlati vujudga kelishi bilan bir vaqtda fraitsuz millati tarkib topa bordi.

Haqiqatda bu ikkinchn marta qo'shnb olish zdi, chunKi birinchi marta Pikardiya XII asrdayoq ^ushib olmngan edi. XSh asrdayoq tso'shib oliigan Ber~ ri to'g'risvda ham xuddi shuni aytshl kerak.

XV asrning oxiri — XVI asrning boshlariga kelib Fransiya-da millatning vujudga kelishi uchun barcha elementlar mavjud zdi. Ayrim-ayrim tarqoq feodal mulklaridan frantsuz korolli-gining 'Yagona umumiy territoriyasi tashkil topdi. Viloyatlar-dagi mahalliy tillar (sheva va dialektlar) bilan bir qatorda, Parij dialekti asosida rivojlangan yagona frantsuz adabiy tili vujudga keldi. O'rta asrlar oxiriga kelganda Fransiya iqtisodiy jihatdan allaqachon bir butun o'lka tusini oldn; mamlakatda umumfrantsuz bozori tashkil topib, uning markazi shimolda edi; frantsuz madaniyati o'z milliy xususiyatlariga ega bo'lib, u adabiyotda eng ravshan ifodalandiEYuz yillik urush-ning zamondoshi bo'lgai Jan Fruassarning (1337—1404) mashhur «Xronikasi» ilk frantsuz badiiy prozasining porloq namunasi. Lyudovik XI ning biografi Filippde Komminning (1446—1511) «Memuarlarn» adabiy va siyosiy ji-hatdan katta ahamiyatga ega bo'ldi. Filipp de Komminning bar-cha asarlari Fransiyaning birligi uchun kurash ideyasi bilan sug'orilgan. Asarlarining bir hismini jonajon frantsuz tili-da yozgan Estash Deshan (3340—1407) yirik shoir, ko'p bal-lada, qo'shiq va satiralarning avtori edi. Deshan epg ilk davr-dagi frantsuz gumannstlarining biri, italiyalik mashhur yozuv-chi-gumanist Petrarkaning ehtirosli muhlisi edi.

O'rta asrlar oxiriga kelgayada «frantsuz» so'zikiig asl ma'-nosi o'zgardi. Ilgari mahalda u faqat «Fransiyanng shimoliy aholisi» degan tor ma'noda hatto «faqat Il de Frans aholi-si» degan tushunchani bildirardi, endilikda aholining qaysi viloyatda

tug'ilgan yoki yashaganligidan qat'i nazar, frantsue ko-rolligining har bir aholisi frantsuz deb ataladigan bo'ldi.

II-bob. “Rivojlangan o’rta asrlar madaniyati” mavzusini o’rganishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish

1&. Yangi pedagogik texnologiya tushunchasi va usullari

Ta’lim texnologiyasi nazariyasining umumiy asoslari mohiyati xususida so’z yuritish uchun “ta’lim texnologiyasi” tushunchasining tub ma’nosini anglash talab etiladi. “Texnologiya” yunoncha so’z bo’lib, “techne”-mahorat, san’at hamda “logos”-tushuncha, ta’limot so’zlarining birikmasidan hosil bo’lgan. “Ta’lim texnologiyasi” tushunchasi esa lug’aviy jihatdan inglizcha “an educational Technology” ta’lim jarayonini yuksak mahorat, san’at darajasida tashkil etish borasida ma’lumotlar beruvchi fan ma’nosini anglatadi. Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrda paydo bo’ldi va turli rivojlanish bosqichlaridan o’tib kelmoqda. Dastlab bu tushuncha 1940-

yillardan 50-yillar o'rtasigacha "ta'lim texnologiyasi" deb qo'llanilib, o'quv jarayonida audio-vizual texnika vositalaridan foydalanishni ifoda qilgan. Pedagogik texnologiya tushunchasi dastlab XX asrning o'rtalarida AQShda qo'llana boshlagan. Bunda "pedagogik texnologiya" va "ta'lim texnologiyasi" atamaları faqat texnika vositalari yordamida o'qitishga nisbatan qo'llangan edi. Vaqt o'tishi bilan ularni qo'llash darajasi kengayib borishi natijasida mazmuni ham tegishli o'zgarib bordi. Hozirga kelib esa pedagogik texnologiya tushunchasining zamonaviy, ilmiy asoslangan yagona ta'rifini belgilash maqsadida bir qancha yirik olimlar tomonidan turli fikr va mulohazalar asoslab berildi. O'tgan asrning 50- yillari o'rtasidan 60- yillargacha "ta'lim texnologiyasi" atamasi qo'llanilib, bunda dasturlashtirilgan ta'lim nazarda tutilgan. 70-yillarda "pedagogik texnologiya" atamasi qo'llanilib, u avvaldan loyihalashtirilgan va aniq, belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o'quv jarayonini ifodalagan. 1979-yilda AQShning Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi tomonidan pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif berilgan edi: "Pedagogik texnologiya bilimlarni o'zlashtirishning hamma jihatlarini qamrab oluvchi muammoni tahlil qilish va rejalashtirish, muammoning yechimini baholash va uni boshqaruvchilar, g'oyalar, vositalar va faoliyatni tashkil qilish usullarini o'z tarkibiga oladigan kompleks integrativ jarayondan iborat. 80-yillarning boshidan pedagogik texnologiya deb ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalarini yaratishga aytilgan"³¹.

Alohida qayd etib o'tish joizki, ayni vaqtda ta'lim texnologiyasi tushunchasini mantiqiy-g'oyaviy jihatdan izohlash borasida yagona fikr mavjud emas. Yuqorida qayd etilganidek, pedagogik texnologiya nazariyasi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo'lsada, aynan "pedagogik texnologiya" tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, pedagog olim V.P. Bepalko pedagogik texnologiyani "amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi deya ta'riflaydi hamda asosiy diqqatni o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi. N.F.Taluzina esa pedagogik texnologiyaning "fan va amaliyot oralig'ida muayyan tamoyillarni olg'a suruvchi metodlar ishlab chiqaruvchi, ularni izchil qullash kabi masalalarni hal etishga yunaltirilgan mustaqil fan" bo'lishi

³¹ Yo'ldoshev. J. F. Usmonov. S. A. "Pedagogik texnologiya asoslari" Toshkent., 2004-yil. 19-bet.

lozimligini qayd etadi. So'nggi o'n yil davomida nutqimizda "pedagogik texnologiya", "zamonaviy pedagogik texnologiya", "o'qitish texnologiyasi" kabi tushunchalar keng qo'llanmoqda. Ko'pchilik pedagog olimlar "ta'lim texnologiyasi" hamda "Pedagogik texnologiya" tushunchalari mazmunan bir ma'noni anglatishini ta'kidlamoqdalar. Aslida bunday yondashuv u qadar to'g'ri emas, hamda bu borada yagona qarorga kelish muhimdir. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish g'oyasi G'arbiy Yevropa hamda AQShda yaratilgan edi. Bizga ma'lumki, G'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQShda "Pedagogika" fani mavjud emas, shu bois "pedagogik faoliyat", "pedagogik tizim", shuningdek, ularga bog'liq ravishda yuzaga keluvchi "pedagogik texnologiya" tushunchasi ham iste'molda yo'q. Bu mamlakatlarda shaxsga ilmiy bilimlarni berish jarayoni "ta'lim jarayoni" sifatida nomlandi, shaxsga bilimlar berish, uning ma'lumotini oshirish, ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi fanlar majmui "metodika" deb yuritiladi. Metodika fanlarini o'qitishda asosiy e'tibor ta'lim sifatini yaxshilash, uning samaradorligini ta'minlashga qaratiladi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi amaliyotida o'qitilib kelinayotgan "Pedagogika" faning predmeti shaxsni shakllantirish, uning kamolotini taminlashga yunaltirilgan ta'limiy hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish jarayoninig mazmunidan iboratdir. Ya'ni, shaxsning yituk kamoloti ikki muhim faoliyat – ta'limiy va tarbiyaviy faoliyat jarayonining samarasi natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Ayni paytda "pedagogik texnologiya" hamda "metodika" tushunchalarining tavsifi, xos jihatlarini yoritish maqsadga muvofiqdir. T.N. Ballo "pedagogik texnologiya" tushunchasiga ta'rif berar ekan, uni o'qitish jarayoniga nisbatan topshiriqli yondoshuv, L.V. Zankov, T.Ya. Galperin, V.I. Davidovlar bosqichli o'qitish, G.K. Selevko hamda boshqa mualliflar esa mazmunli umumlashma sifatida baholaydilar. P. Mitchelning nuqtai nazariga ko'ra pedagogik texnologiya barcha jihatlariga ko'ra o'ziga xos va samarali natijalarni qo'lga kiritish imkonini beruvchi pedagogik tizimni tashkil etish bilan bog'liq holda ta'lim tizimi doirasida olib borilayotgan tadqiqot nazariyasi va amaliyatining muayyan tarmog'idir. S.K. Ismagulova esa quyidagi qarashni ilgari suradi: texnologik loyihaga asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etish usuli bo'lib, u avvaldan belgilangan muayyan qoida va talablarga javob beradi. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida shaxs

ijtimoiylashuvini ta'minlovchi yetakchi omil sifatida ta'lim jarayoni e'tirof etilsa, biz shaxsning shakllanishida ta'lim hamda tarbiya jarayoni birdek ahamiyatga ega ekanligiga urg'u beramiz. Aksariyat hollarda esa tarbiya jarayoni bu borada ustuvor bo'lishi lozim, chunki o'zida axloqiy xislatlarni namoyon eta olgan shaxsgina ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida ular mazmunining ijobiy xususiyat kasb etishini ta'minlaydi, axloqli insongina ta'limi qadrlay oladi. Zero, axloqning asosiy kategoriyalaridan biri ham bilimlilik sanaladi degan g'oyani ilgari suramiz. Shunday ekan, bu o'rinda "pedagogik texnologiya" tushunchasining qo'llanilishi, shuningdek, asosiy e'tiborni faqat ta'lim jarayonini samarali tashkil etishgagina qaratmay, balki ham ta'lim, ham tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashga birdek qaratish lozimdir. "Ta'lim texnologiyasi" tushunchasi "ta'lim metodikasi" tushunchasiga nisbatan kengdir. Ta'lim metodi—o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yunaltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lsa, ta'lim metodikasi esa muayyan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimini tavsiflaydi. Ta'lim texnologiyasi – ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarishni ifodalaydi. O'qituvchini samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasidan farqli ularoq, ta'lim texnologiyasi o'quvchilar faoliyatiga nisbatan yunaltirilgan bo'lib, u o'quvchilarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi – o'quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat. Pedagogik texnologiya muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yunaltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalarini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir. Pedagog olim V.P. Bespalko pedagogik tizimning pedagogik texnologiyaning asosi ekanligini e'tirof etgan holda uning quyidagi unsurlaridan iboratdir deya ta'kidlaydi:

- 1) o'quvchi;
- 2) ta'lim – tarbiyaning masadi;
- 3) ta'lim – tarbiya mazmuni;
- 4) o'quv jarayoni;
- 5) o'qituvchi yoki texnik vositalar;
- 6) ta'lim – tarbiyaning tashkiliy shakllari


Pedagogik texnologiyaning quyidagi tarkibiy unsurlari uning asosini belgilashga xizmat qiladi.

- Ta'lim jarayonining umumiy loyihasi
- Ta'limni tashkil etishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj
- Ta'lim masadi Ta'lim mazmuni, shakl, metod, usul va texnika.

Pedagogik texnologiyaning tarkibiy unsurlari

Pedagogik texnologiya asosiy jarayoni ishtirokchilarining faoliyat turlari

O'quvchi faoliyati O'qituvchi faoliyati



“Pedagogik texnologiyaning asosiy jarayoni o'qituvchi uchun so'zlash , ko'rsatish , topshiriqlar berish , nazorat qilish (tushuntirish , rahbarlik qilish) orqali mustaqil bilim olish va fikrlashga o'rgatishdan, o'quvchi uchun esa diqqatni jamlagan holda

tinglash , kuzatish , topshiriqlar bajarish (tushunish , o'zlashtirish) orqali mustaqil bilim olish va fikrlashga o'rganishdan iborat”³².

Bu sxemada ko'rinib turibdiki , o'qituvchi rahbarligida o'quvchi o'zi bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini egallaydi. O'qituvchi mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning bilimini xolisona baholash va nazorat qilishni bilish, reyting nazorati nimaligini bilish va o'quvchilar bilimini aniqlashda qo'llay olish: Davlat ta'lim standarti bo'yicha testlarni ishlab chiqish va ishlatishni bilish lozim. Yangi pedagogik texnologiyani ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish tuzilishi va mohiyati jihatidan quyidagi prinsipga asoslanadi:

Yaxlitlik – bu prinsip texnologiya loyihasi yaratilayotganda pedagogik tizimning barcha elementlari o'zaro ta'sir doirasida bo'lishini va o'zaro bog'liqligini e'tiborga olishni taqozo etadi, ya'ni ta'lim maqsadining qat'iyat bilan aniqlanishi (nega? va nima uchun?) o'quv jarayoni mazmuniga (nima?) tashkiliy misollari (qanday?) o'qitish metodlari va vositalari (nima yordamida?) saralash va tanlashga kumaklashish, shuningdek, o'qituvchining mahorat darajasiga bog'liq holda imkon berish samarasini aniqlash kerak.

Yaxlitlik prinsiplari – pedagogik texnologiyalardan birini yangilab yoki o'zgartirib, qolganlariga tegmaslikni, qayta qurmaslikni inkor etadi. Masalan: ta'lim maqsadini o'zgartirib, uning mazmuni yoki o'qitish jarayonini eskicha qoldirish mumkin emas. Ta'lim-tarbiyaning masadi – erkin fikrlaydigan fuqaroni, barkamol insonni, shaxsni shakllantirish. Ijtimoiy buyurtma – ta'lim mazmunini tubdan qayta qurish – yangi o'quv dasturlari va darsliklarini yaratishni keltirib chiqaradi. Ta'lim-tarbiyaning yangi mazmuni-axborotlarni o'quvchilarga ma'lum vaqt chegarasida yetkazish jarayonini tezlashtiruvchi vositalarni talab etadi. Pedagogik texnologiya maqsadli ta'lim-tarbiya jarayonini tavsiflaydi.

Pedagog-texnolog sohibi bo'lishi uchun didaktik masalalar va uni hal etish texnologiyalarini loyihalash qonuniyatlari bilan chuqurroq tanishgan bo'lishi kerak. Bu esa o'qituvchidan ijodkor faoliyatni talab etadi.

³² Azizxo'jayeva N.N. “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat”. T., TDPU. 2003. 45-b

Yakuniy natijalarning kafolatlanishi – pedagogik texnologiyaning yana bir muhim prinsiplaridir. Bu tushuncha nisbiy xarakterga ega. O'qitishning tugallanganligi prinsipi o'zlashtirish 55% bo'lsa – qoniqarli hisoblanadi. Pedagogik texnologiyaning sifat kursatkichlari – zamonaviylik, ilmiylik, eng maqbullik, o'qituvchi va o'quvchining dasturli faoliyati, axborot texnologiyasi va texnik vositalardan foydalanganlik darajasi, yetarlicha moddiy-texnikaviy baza hisoblanadi. Ma'lumki, jahon pedagogikasida qabul qilingan ikki nazorat turi mavjud: noxolis va xolis. Noxolis usulda bilim va kunikmalarni tekshirish o'quvchi oldiga quyilgan savolga olingan javobni eshitishdan hosil qilingan taasurot ostida o'qituvchi tomonidan amalga oshirilgan. O'quvchi javobi hech qanday o'lchov va sifat mezoni bilan taqqoslanmaydi. Masalan: imtixon savollariga og'zaki javob berishni baholash yoki yozma ishlarni tekshirish xolis nazorat usuli – testdir. Shuningdek, o'qituvchi dars mashg'ulotlari jarayonida ko'rgazmali metoddan foydalanish bilan birgalikda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda dars sifatini oshirishga erishishda samarali natijalarga erishadi. Tarix fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanish y'ani test usulidan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Test inglizcha “test ”- so’zidan olingan bo’lib o’zbekcha “sinov” ma’nosini anglatadi. Testga XIX asrning 90 yillarida insonning biror xususiyatini o’lchash usuli sifatida ingliz ruhshunosi D. Kettel tomonidan asos solingan. XX asr boshlarida bu sohada ikkita yo’nalish yuzaga keldi.

1.Psixologik testlar.

2.Pedagogik testlar

Psixologik testlar odamning psixologik – fiziologik va shaxsiy xususiyatlarini baholashga qaratilgan.

“Pedagogik testlar esa bolaning maktabga tayyorgarligini , uning u yoki bu fan bo’yicha o’zlashtirishini hamda kasb hunarga tayorgarlik darajasini o’lchashga, aniqlashga mo’ljallangan. Test bo’yicha olib borilgan izlanishlar ularni vujudga kelish davrlarini shartli ravishda uch davrga bo’lish imkonini beradi.

1900-1915 lar –izlanish, o’rganish va tadqiqot davri .

1960-1930 yillar –testlarning eng ko’p qo’llanilgan davri .bu davrda R.Torndayk tomonidan arifmetika algebra , husnixat kabi fanlar bo’yicha testlar tayorlandi .

1931 yil;da keyingi davr . Bu davrda testlar nazorat qilishning asosiy shakli sifatida qo’llaniladi. AQSHda maktab , kollej, tijorat , o’quv yurtlarida o’quvchilar bilimini aniqlashda testlardan foydalaniladi”³³.

Respublikamiz Prezidenti I.A Karimov tashabbusi bilan 1992-yili 19 ta oliy o’quv yurtida talabalarni qabul qilish test orqali olib borildi.

1993-yildan boshlab hamma fanlardan olimpiyadalar test asosida o’tkazildi. O’tgan davr ichida psixologik va pedagogik testlarni tahlil qilish shuni ko’rsatdiki, test Respublikamizda o’quvchilar bilimini aniqlashda xuddi xorijdagidek keng qo’llaniladi. Kuzatish, savol-javob o’tkazilgan anketalar natijalari pedagogik diognostikada keng qo’llaniladigan haqiqiy samarali usul ekanligini ko’rsatmoqda. Hozirgi kunda jahonda qo’llanilayotgan testlarning quyidagi guruhlari bor .

1.Yetuklik testi(o’qigan materialni aytib bera olish) .

2. Ko’rsatuv, ya’ni ijod testi (fiklashga oid)

3.Biror mezon bo’yicha test (biror shakl, modellar va rasmlardan iborat)

³³ Shodiyev.N “Yangi pedagogik texnologiyalar” Samarqand 2005-yil 112 -bet

4. Proyektiv test (biror shakl modellar va rasmlardan iborat)
5. Intellekt test (ma'lum bir qobiliyatni tekshirish bo'yicha)
6. Shaxsiyat testi (sotsiologiya va ruhshunoslikga oid testlar).

Test tuzishga bo'lgan talablar quyidagilardan iborat:

1. Test savol-topshiriklari bilimlar majmuasi va ularni o'zlashtirishga quyilgan DTS talablari asosida tuziladi.

2. Topshiriklar sharti qisqa, aniq va oddiy bo'lib, unga keltirilgan javob yagona shaklda ifodalangan bo'lishi kerak.

3. Topshirilayotgan materialning ma'nosini ifodalovchi bir xil murakkabroq darajadagi topshiriqlar albatta, kiritilgan bo'lishi kerak.

4. Qaratilayotgan material bo'yicha bir necha xil variantlar bo'lgan holda, ulardan bir xil sondagi topshiriqlar berilishi lozim.

5. Javobni tanlash testida albatta, to'g'ri javob bo'lishi lozim.

6. Bitta testda bir xil sondagi savollar bo'lishi kerak.

7. Testlarda tushirib qoldirilgan atamalar, formulalar tanlangan mavzularning asosiysi bo'lib, ular bir testda 2-3 tadan oshmasligi kerak.

8. To'g'ri javoblar teng taqsimlanishi kerak.

9. Qo'yilgan maqsadga ko'ra bir xil testlarni turli xil variantda tuzilishi lozim.

Umumta'lim maktablarida testni joriy qilishga quyidagi talablar qo'yilmoqda.

1. Testlar – maxsus metodistlar tomonidan dastur materiallari hajmini aniqlab, yuqoridagi kursatilgan talablar asosida ishlab chiqilmog'i kerak. U metodik jihatdan to'g'ri tuzilib, zarur yangiliklar bilan to'ldirilib borilishi kerak.

2. Fanning mazmuni, o'quvchining o'zlashtirish darajasi va testning miqdorini inobatga olish kerak.

3. Testlar bir o'qituvchi rahbarligida tuzilmay, boshqalarning fikrlarini ham hisobga olish lozim.

4. Test savollari anik, kitob va darsliklar asosida olinishi kerak.

5. Testlar individual bo'lishi lozim.

6. Testning sifatini orttirish, zaxirasini kupaytirish uchun izlanish, seminar, kurik-tanlov, konferensiyalar o'tkazish joiz.

7.Maktabda o'qituvchilar savollar asosida test tuzish mexanizmini bilishlari lozim. Kamchiligi bor testlar tezlik bilan tuzatilishi kerak.

Test o'quvchilarning bilim darajasini baholashdan tashqari, o'qituvchining kasb mahoratini ham orttirib boradi.

Testning afzalligi:

1.O'quvchi va o'qituvchi vaqtini tejaydi.

2.O'quvchining bilimini aniqlash sub'ektga bog'lik emas, u bo'lsa o'qituvchiga o'zi xohlagan texnikada testdan o'tishi mumkin.

3.O'quvchi o'zida ishonch, o'qituvchini xurmat qilish, fanni chuqur o'rganish istagini fikrini hosil qiladi.

4.O'quv dasturidagi minimum bilim darajasi bilan maksimum talabga chiqish uchun hisob-kitob qiladi.

5.Qo'yilgan bahoning noto'g'riligini o'quvchi isbotlaydi, kerak bo'lsa shikoyat qilish huquqini beradi.

6.Test o'quvchining individual ishlash, qobiliyatini yaxshi tahlil kiladi.

7.Test orqali bir paytning o'zida o'quvchining nazariy va amaliy bilimlari sifatini tekshirish imkoniyatiga ega bo'linadi.

8.Test bilimlarni aniqlash usuli bo'lmay, o'quvchiga o'rgatuvchi usul hamdir. O'z xatosini bilib, darrov kamchiligini topib oladi va qayta bu xatoga yo'l qo'ymaslikka harakat qiladi.

9.Turli testlar ko'rsatish bilan o'quv jarayoni faollashadi.

10.Kichik hajmdagi testlarni o'quv jarayoniga tatbiq etish orqali o'quv materiallarini o'rgatuvchanlik darajasi diagnostika qilinadi, keyinchalik barcha fanlarni kompyuterlashtirib o'qitish imkoniyatini yaratadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, test sinovlaridan foydalanish ta'limning bugungi kun talablariga to'la javob beradi.

Hozirgi zamon darsiga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

1.DTS talabini anik va ijobiy bajarish.

2.O'quvchining bilim darajasi imkoniyatini aniklash, bunda o'quvchilarning yosh xususiyatini inobatga olish.

3.O'quvchilarning qizikishi asosida anik maqsadga yo'naltirilish.

4.O'quvchilarning dastur asosida bilim darajasini shakllantirish. mustaqil fikrlashga e'tibor berish, ijodiy ishlarni to'g'ri va ob'ektiv baholash. Xulqi va tirishqoqligini ijodiy ballar asosida to'g'ri rag'batlantirish, o'quvchilardagi diqqat, idrok xotirasini yaxshilash uchun erkin fikrlatishga e'tibor berish.

5.Darsda muhitni ilmiy tashkil qilish, uni oqilona rejalashtirish.

6.Darsda o'quvchilar o'rganishi lozim bulgan tushuncha, ta'rif, teorema, xodisa, vokealarni bolalarga bugungi davr talabiga yetkazish. Bular orqali ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, fanlararo bog'lanishga ahamiyat berish.

7.O'quvchilarning kunikma va malakasini shakllantirish, o'quvchi imkoniyati va davr talabi asosida kasbga yunaltirish, quruq yodlatish usulidan voz kechish.

8.Darsda fikrlatuvchi, mashq qildiruvchi, yangilik beruvchi, ijobiy ishlashga urgatuvchi ko'rgazmali qurollardan foydalanish, muammoli darslarni tashkil etish. O'quvchilarning fikrlash malakalarini takomillashtirish, o'quvchilarni axborot va informatsiyalarning tahlil qilishga o'rgatish.

9.Differensial ta'limni joriy qilib, o'quvchilarning bilim darajasini reyting tizimida xolisona baholash.

10.O'quvchilarda kunikma va malakalarni kamol toptirish, tahlil, sintezni o'rgatish, vaqtdan unumli foydalanish.

11.O'quv xonasini zamon talabiga javob beradigan qilib jihozlash, unda ilmiy texnika taraqqiyoti, texnika vositalari, elektron hisoblash texnikasi, yordamchi vositalar bo'lishiga e'tibor berish.

12.Gigiyena va estetika talablariga e'tibor berish va o'quvchilardan talab qilish.


13.Mavzu uchun o'qitish metodini to'g'ri tanlash, muammoli vaziyatlarning aniq yechimlarini topish.

14.Darsda o'z-o'zini tahlil qilishga e'tibor berish va o'quvchilar kelgusi darsda nimalarga e'tibor berishlari lozimligini rejalashtirish.

O'qituvchi darsni tushuntirishi, o'quvchi esa uni tinglashi orqali bu ikki subyekt o'rtalarida bog'lanish vujudga keladi, hamda bu bog'lanish orqali o'qituvchi o'quvchining ongiga ta'sir ko'rsatadi. Lekin o'qituvchi o'quvchining boshqa sezgi turlarini, ko'rish va eshitishni faollashtirish orqali mavzuni og'zaki taqdim etilishini

kengaytirsa, bunda o'quvchining ongiga ta'sir kuchayadi va mavzu uning xotirasida chuqurroq o'rnashadi.

Pedagogik motivlarning bir-biri bilan bog'liqligi.



Ta'limda o'rgatuvchi va o'rganuvchi faoliyatlari.

Ilg'or pedagogik

texnologiyaning markazida ta'lim jarayonning rahbari hamda shu jarayonning sub'ekti ham ob'ekti bo'lgan o'qituvchiva o'quvchi turadi. Shunday ekan, bu ikki shaxsning hamkorligi, o'zaro muloqati, bir-biriga ko'rsatadigan ta'siri eng zamonaviy va milliy talablar asosida tashkil topishi kerak. Buning uchun birinchi navbatda, o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayoni oldiga qo'yilgan talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarish tamoyillari hamda yo'llari, o'quvchini aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish usullari, u bilan hamkorlik qilish, uni uqishga, o'rganishga yunaltirish, o'quvchi shaxsi faoliyatini tug'ri tashkil etish, ular bilan muloqatga kirishish, muammo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish, sinfda ijodiy, ishchan muxitni vujudga keltirish, o'quvchi faoliyatini aniq va tug'ri baholash metodlari bilan qurollangan bo'lishi lozim. O'qituvchining samarali faoliyat ko'rsatishiga yunaltirilgan, darsning metodik ishlanmasidan farqli ularoq, ta'limning pedagogik texnologiyasi ta'lim oluvchilarga yunaltirilgan bo'lib, bolalarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda, o'quv materiallarini o'zlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi

o'quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat.

Pedagogik texnologiyaning tamoyillari quyidagilardan iborat:

- kafolatlangan yakuniy natija,
- ta'limning maxsuldorligi,
- teskari aloqaning mavjudligi,
- ta'lim maqsadining aniq shakillanganligi.

U yoki bu pedagogik texnologiyani tanlash, rejalashtirilgan dars va mashg'ulotda qaysi darajadagi bilim va kunikmalarni o'zlashtirish nazarda tutilganligiga bog'liqdir. Pedagogik texnologiya doirasida yangi o'quv materialini o'zlashtirishning boshlang'ich, algoritmik, evristik, ijodiy xarakterdagi darajalari mavjud. Boshlang'ich xarakterdagi daraja-o'quvchining eshitganlari, ularga berilgan namunalar, taqdim etilgan algoritm va kursatmalar asosida topshiriqlarni bajarish kunikmasini ifodalaydi.

Algoritmik xarakterdagi daraja-bilim va kunikmalar mazmunini tadbiiq qila olish mahorati, bir tipdagi masalalarni yecha olish, yozib olish va eslab qolish faoliyatini amalga oshirish kunikmasini ifodalaydi.

Evristik xarakterdagi daraja-taqdim etilgan o'quv masalalarini yechish yo'llarini izlash hamda bu muammolarni yechish uchun yangi axborotlarni mustaqil tarzda izlab topish kunikmasiga ega bo'lish bilan xarakterlanadi.

Ijodiy xarakterdagi daraja-o'quv materialini, shuningdek, ilgari o'zlashtirilgan bilim va kunikmalarni turli xolatlarda tadbiiq eta olish maxorati bilan xarakterlanadi.

Boshlang'ich va algoritm xarakterdagi darajalar reproduktiv bilim va kunikmalarni talab qiladi. O'zlashtirishning ushbu darajalardagi pedagogik texnologiyalarni ijrochi texnologiya deb atash mumkin.

O'quv materialini esda saqlab qolishga va kunikmalarni hosil qilishga yunaltilgan bilim va maxoratlar darajasi o'quvchilarning reproduktiv va maxsuldor faoliyatlarni uyg'unlashtirishni talab qiladi.

O'quv- bilish faoliyati izlanuvchan, evristik xarakter kasb etganda, yuqori darajadagi muammoli, muammoli rivojlantiruvchi ta'lim metodi, vaziyatni tahlil qiluvchi topshiriqlar metodi ishchan o'yinlar, mustaqil ishlar, muammoli xarakterdagi topshiriqlardan foydalanish zarur. Bu evristik texnologiya deb ataladi.

O'quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiyani tadbqiq etish va uning maqsadiga erishish o'qituvchining pedagogik maxorati, muloqot madaniyati, nutqining tug'riligi kommunikativ maxoratining o'quvchilarga ta'siri, pedagogik texnikani egallaganlik darajasi va bu texnikani bevosita darsda qo'llashga ulgura olishga bog'liqdir. O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqati ijtimoiy nuqtai nazardan o'quvchi shaxsiga yunaltirilgan bo'ladi. Muloqot guruhlariga muljallangan yoki yakka shaxsiga yunaltirilgan bo'lishi ham mumkin.

O'qituvchining o'quvchi bilan muloqati pedagogik xarakterdagi muloqot bo'lishi, aniq pedagogik vazifani bajarilishiga yunaltirishi kerak. Jumladan: optimal, yaxlit, qulay o'quv muxitini, ruxiy vaziyatni, o'quv faoliyatini optimallashtirish, o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi munosabatni tashkil etish shuningdek, o'quvchilar jamoasi orasidagi munosabatni shakllantirish nazarda tutilada.

Shu asosda ta'limda o'quvchilarga bilim berish yoki ularning o'zlarini bilim olishga undovchi motivlar mavjud ekan. Bugungi kun ta'lim sohasida yuqorida aytib o'tganimizdek ko'rgazmali qurollardan foydalanish eng samarali usullardan biri deb tan olinmoqda. Ularga quydagilar kiradi.

Ko'rgazmali materiallar:

1 O'quvchi darsni tushunishini, hamda har bir o'quvchining ongida bir xil tushuncha hosil bo'lishini ta'minlaydi.

2 O'quvchilarning diqqatini biror narsaga markazlashtirish orqali, ularda qiziqish o'yg'otadi va bu qiziqish so'nmasligini ta'minlaydi.

Turli uslublardan foydalanish orqali o'quvchilarni biror narsaga undaydi, ularning hayolotini uyg'otish yuli bilan, ularni motivatsiyalaydi.

3 Vaqt tejalishini ta'minlaydi, chunki bunda batafsil va so'zma-so'z og'zaki tushuntirishlar talab etilmaydi.

4 Real modellarni ishlatishda va diagrammalarni ishlab chiqishda o'quvchilar qatnashishi imkoniyatini beradi.


5 O'tilgan mavzuning mazmunini turli yo'llar bilan qisqacha umumlashtirilishi orqali o'rganish jarayonini jipslashtiradi.

Ko'rgazmali materiallar-jihozlarning quyidagi asosiy turlari mavjud:


1 Sinf doskasi (hozirda u turli ranglarda bo'lishi mumkin). Doskaga odatda dars paytida yoziladi, lekin zarur ma'lumotlarni doskaga oldindan yozsa ham bo'ladi.



2 Maxsus oq taxta (doska). Ularga odatda maxsus markerlar bilan yoziladi.



3 Magnit doskalar. Ular odatda o'rtacha qalinlikdagi maxsus metall yoki qora metall qoplamalaridan tayyorlanadi. Bunda ko'rgazma materiallar taxta yoki plastmassadan tayyorlanib, ularning orqa qismiga magnitlashtirilgan disklar qotiriladi.



4 Flipcharatlar. Ularga dars davomida maxsus qalam bilan yozib boriladi (zarur bo'lgan paytda kerakli yozuvlar flipchartalarga oldindan yoziladi).



5 Jadvallar, plakatlar, diagrammalar, xaritalar va kattalashtirilgan suratlar. Bu materiallar odatda yetarli darajada yirik bo'lib, ularni ko'rsatishda proyektorlardan foydalanish zaruriyati bo'lmaydi.

6 Proyektor va slaydlar. Odatda bunday slaydlar oldindan tayyorlaniladi yoki bo'sh slaydlarga mashg'ulot davomida markerlar yordamida yozuvlar yoziladi.

7 Yassi ekranli kompyuter proyektorlari va "Microsoft Power Point" kompyuter dasturi.

8 Taxtalarga o'rnatilgan noto'g'ri yig'ilgan qismlarning asl nusxasi.

9 Video tasvir materiallari (tijorat maqsadida ishlab chiqarilgan, hamda o'quv yurtlari tomonidan ishlab chiqilgan).

10 Turli jihozlarning nusxalari va modellari, shu jumladan ularning ishlaydigan va tahlil qilinadigan, yoyiq nusxalari.

11 Kabel televideniya. Bunda bu televideniya orqali murakkab va oddiy ko'z bilan kuzatish murakkab bo'lgan ba'zi ish jarayonlarini o'quvchilarning keng ommasiga namoyish qilish mumkin.

12 Maxsus qo'llanmalar, darsliklar va tarqatma materiallar.

Ko'rgazmali materiallarni tayyorlash.

Ko'rgazmali materiallarni tayyorlashga asosan qo'yidagilar talab etiladi: quvvat, hayol va tashabusskorlik. Ko'rgazmali materiallarni tayyorlashda zarur bo'lgan vositalarni, albatta, topish qiyin emas, lekin ularni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan vaqt va fikrlar har doim ham yetishmaydi. Hattoki, faqat bitta mashg'ulotda ishlatiladigan ko'rgazmali materiallarning ishlab chiqilishi muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotlarini va darslarini bir necha bor qaytarib o'tadigan o'qituvchilarga esa bunday materiallar ularning faoliyat va mehnat samaradorligini oshirishda yordam beradi. Kompyuterda ishlash imkoniyati bor o'qituvchilar "Microsoft Power Point" singari kompyuter dasturlari yordamida juda samarali ko'rgazmali materiallar tayyorlashlari mumkin.

Ko'rgazmali materiallar taqdimoti bo'yicha jihozlarning nazorat ro'yxati.

Ko'rgazmali materiallar va jihozlarni ishlatishdan oldin, quyidagi savollarga javob berishingiz zarur bo'ladi:

- Menga qanday jihozlar kerak?
- Bunday jihozlar qayerda bor?
- Bunday jihozlar sinfxonaga qachon va sinfxonaning qayeriga o'rnatilishi kerak?
- Ularni sinfxonalarga o'rnatilishini kim tashkillashtiradi?

Sinf doskasi - oq bo'r, rangli bo'rlar, uchirg'ich, doska tozalagichi, ko'rstakich tayoqcha

Ko'zlanotgan maqsadlar uchun sinf doskasi yetarli darajada kattami?

Sinf doskasi tozalanganmi?

Sinf doskasida bo'r va uchirg'ich bormi?

Doska tozalagichi namlanganmi?

Sinfxonada lineyka yoki boshka ko'rsatkich tayoqchasi bormi?

Sinf oq doskasi - maxsus marker, uchirg'ich, ko'rsatkich tayoqcha

Ko'zlanotgan maqsadlar uchun sinf oq doskasi yetarli darajada kattami?

Sinf doskasi tozalanganmi?

Sinfxonada maxsus marker va uchirg'ich bormi?

Sinfxonada lineyka va ko'rsatkich tayoqchasi bormi?

Flipcharta - flipcharta shtativi yoki tirkagichi, zarur formatdagi kog'oz taxtasi, maxsus markerlar

Tayyorlangan betlar kog'oz taxtasiga puxta mahkamlanganmi?

Xonada markerlar bormi? Ular xar hil rangdami?

Markerlar maxsus suyuqlik bilan to'ldirilganmi (yoki ular bo'shmi)?

Flipcharta tirkagichi yaxshi o'rnatilganmi?

Mashg'ulot davomida ishlatiladigan maxsus betlarga qisqichlar o'rnatganmisiz yoki ularning burchagini bukkanmisiz?

Proyektor - tayyorlangan slaydlar, toza slaydlar, ekran, maxsus markerlar, qo'shimcha elektr lampochkasi

- Elektr rozetkalari qayerda joylashgan?
- Qo'shimcha elektr uzatgich simlar talab qilinadimi?
- Proyektordan uzatilayotgan rasm ekranga markazlashtirilganmi?
- Proyektordan uzatilayotgan rasm trapezoid shakllida aks etishini oldini olish maqsadida ekran egiltirib joylashtirilganmi?
- Tayyorlangan slaydlar ularning ishlatilishi ketma-ketligida taxlanganmi?
- Slaydlar proyektor oynasida tekis joylashyapdimi?
- Toza slaydlar yoningzda bormi?
- Mavjud markerlar tekis va anik yozadimi?

Televizor-Videmagnitofon.

Elektr rozetkalari qayerda joylashgan?

Elektr uzatgich qo'shimcha simlari zarur bo'ladimi?

Jihozlarni mo'ljallangan joyga o'rnatib, ularni ishlatib ko'rdingizmi?

Zarur videomagnitfon/video kasseta tanlanildimi?

Yassi ekranli kompyuter proyektori.

- Elektr rozetkalari qayerda joylashgan?
- Elektr uzatgich qo'shimcha simlari zarur bo'ladimi?
- Jihozning hamma qismlari tug'ri ulanganmi?
- Jihozni ishlashini uni o'rnatilishi mo'ljallangan joyda tekshirib ko'rdingizmi?

- Zarur barcha kompyuter dasturlari o'rnatildimi?
- Zarur bo'lgan paytda maxsus texnik xodimni chaqirtirish imkoniyati bormi

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, dars jarayonida ko'rgazmali qurollardan foydalanish bugungi kun zamonaviy dars talablariga to'la mos kelishini ko'rib chiqdik. Shunday ekan o'z dars ishlanmamda undan foydalandim.

Ko'rgazmali vositalar tayyorlash. O'quvchiga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, xaritalar, maketlar, modellar, grafiklar, namunalar va h.k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, o'quvchilarga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni o'qituvchi tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga topshirish mumkin. O'quvchi ko'rgazmali materiallardan foydalanish bo'yicha yozma ravishda tavsiyalar tayyorlaydi .

Ta'limda ko'rgazmali metoddan foydalanish quyidagi afzalliklarga ega

Ta'lim tizimida yani dars jarayonlarida ko'rgazmali metodni qo'llash jarayonida o'qituvchi mavzuni ko'rgazmal bilan bayon qilishi o'quvchilar bilimni yanada yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradi. O'quvchi o'ziga ishonch , unda o'zini hurmat qilish, fanni chuqur o'rganish istagini hosil qiladi. O'quv dasturidagi minimum bilim daraja bilan maksimum talabga chiqish uchun hisob kitob qilib, o'ziga qo'yilgan bahoning noto'g'ri ekanligini isbotlaydi, kerak bo'lsa u shikoyat qilish huquqidan foydalana oladi. Test o'quvchining individual ishlash qobiliyatini yaxshi tahlil qilibgina qolmay, test orqali bir paytning o'zida o'quvchining nazariy va amaliy bilimlari sifatini tekshirish imkoniyatini yaratiladi. Dars jarayonlarida ko'rgazmali metod faqat bilimlarni mustahkamlash usuli bo'lmay, o'quvchiga yanada kengroq va chuqurroq bilimga ega bo'ladi. Ta'lim jarayoniga turli ko'rgazmalarni kiritish bilan o'quv jarayonini faollashtirishga erishiladi. Kichik hajmdagi ko'rgazmalarni o'quv jarayoniga tadbiq etish orqali o'quv materiallarni o'zlashtirganlik darajasi diaknostika qilinadi Keyinchalik barcha fanlarni kompyuterlashtirib o'qitish imkoniyatini yaratadi

Xulosa qilib aytganda, ko'rgazmali qurollardan ayniqsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan hamda test usulidan foydalanish o'quvchilar bilim olganligi,

o`zlashtirish darajasi, qiziqishining ortib borishini doimiy kuzatib borish imkonini beradi. Ayniqsa ko`rgazmali qurollardan foydalanib darsni tashkil qilinsada har bir o`quvchi chetda qolmay imkon qadar darsni yaxshi o`zlashtirishga harakat qilib bilimini oshirishga muvofiq bo`ladi.

3&. 7-sinf “Jahon tarixi” asosida BMI uchun dars ishlanma.

Sinf : 7

Fan: Tarix

O`qituvchi: Z. Hayitov.

O`tilgan mavzu: “Angliya XIV-XV asrlarda”

Yangi mavzu: “Yeropa madaniyati XI-XV asrlarda. Maorif va fan.”

Darsning maqsadlari:

1.Darsning ta`limiy maqsadi.

O`quvchilarga XIV-XV asrlarda G`arbiy Yevropa madaniyati va o`sha davr kishilarining hayot faoliyatlari, maorif va fan sohalarida erishgan

yutug'lari haqida ma'lumot berish.O'sha davr bilan o'quvchilarni yaqindan tanishtirish;

2.Darsning tarbiyaviy maqsadi.

O'sha davr G'arbiy Yevropa madaniyati va Sharq madaniyati o'rtasidagi uyg'unlik va alohida xususiyatlarini anglagan holda xulosalar chiqarish;

3.Darsning rivojlantiruvchi maqsadi.

O'quvchining tarix va zamon, madaniyat tushunchalarini mustaqil fahmlay olishi, erkin tahlil eta olishi, ulardan xulosa yasay olishi, bahsga kirisha olishiga sababchi bo'lish;

Darsda olib boriladigan usullar:

1. Aqliy hujum(test usulida)
- 2.Individual jang
- 3.Rang tasvir va kino bilan ishlash
4. Bahs
- 5.Fikrlar himoyasi

Darsda foydalaniladigan metod: Interfaol

Ko'rgazmali qurollar:

- a) darslik;
- b) testlar ;
- c) Yevropa kishilarining hayotidan rasmlar;
- d) A-4 formatdagi qog'oz;
- e) O'rta asrlarda Yevropa hayotini tasvirlovchi filmlardan lavhalar;
- f) XIV-XV asrlarda Yevropa madaniyatidan lavhalar.
- g) buklet;
- h) al'bom;

Adabiyotlar ro`yxati.

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T., 1998.
3. Ястребицкая Л. А. “Западная Европа XI-XIII веков”. М., “Искусство”-1978 г.
4. Под ред. С.П.Карпова. История средних веков: В 2 т. Т. 1: Учебник / — 4-е издание. — М: Изд-во Моск. ун-та; Изд-во «Высшая школа», 2003.

5. Под ред. А.А. Сванидзе. Город в средневековой цивилизации Западной Европы. М., 1999.

Darsning fanlararo integratsiyasi:

1. Tarix – O’rta asrlar tarixi;
2. Geografiya – O’rta asr shaharlarining joylashishi;
3. Tasviriy san’at – G’arbiy Yevropa madaniyatiga hissa qo’shgan rang-tasvir ijodkorlari rasmlari;
4. Mehnat – O’rta asr kishilarining mehnat qurollardan foydalanish;
5. Madaniyatshunoslik-Yevropa va dunyo madaniyatlarini qiyoslab o’rganish;
6. Adabiyot-O’rta asr Yevropa adabiyoti namunalarini o’rganish;

Darsdagi talablar:

- o’zaro hurmat;
- faollik;
- erkin fikr bera olish;
- dars-teatr, lekin siz tomoshabin emassiz.

Darsning borishi:

1. Uy ishini tekshirish- 2 min.
2. O’tilgan darsni mustahkamlash(test usuli bilan)- 8 min.

3.Yang mavzu-15 min.

4.Yangi mavzuni mustahkamlash - 5 min

5. Fikrlar himoyasi- 8 min.

6.Xulosalash- 4 min.

7.Uy vazifasi berish, baholash, rag'batlantirish -3 min.

O'tgan dars "Angliya XIV-XV asrlarda" mavzusida o'quvchilarga o'rta asrlarda G'arboy Yevropa davlatlarining dastlabki markazlashuv alomatlari va jaraynlari, o'sha davr kishilari hayoti va dunyoqarashlaridagi o'zgarishlar haqida ma'lumot berilgan.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun o'quvchilar bilan "Aqliy hujum", "Klaster usuli"da dars olib boriladi:

1-shart:"Aqliy hujum"da sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linib, Angliyaning XIV-XV asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotiga oid beshtadan 2 bosqichda test so'raydilar.

T/R	SAVOLLAR	1-GURUH	2-GURUH	3-GURUH	JAMI
1	Angliyada "Qizil va oq gullar" urushi boshlangandan yarim asr oldin O'zbekiston tarixida qanday voqea bo'lib o'tgan? A. Xalil Sulton Mirzo o'zini Movarounnahr oily hukmdori deb e'lon qildi B. Ulug'bek Buxoroda madrasa qurdirdi C. Ulug'bek pul islohoti o'tkazdi D. Klavixo Samarqandni tark etdi				
2	Angliyada "Qizil va oq gullar" urushi necha yil davom etgan? A. 25 yil B. 30 yil C. 35 yil D. 20 yil				
3	Qaysi Angliya qiroli gunohkor hisoblangan baronlarning mulklarini tortib olgan, vassallaridan katta to'lovlar talab etgan? A. Richarda II B. Genrix IV C. Ioann D. Genrix II				
4	Uot Tayler qo'zg'alonida qirolo o'zini xalqqa do'st qilib ko'rsatishga harakat qiladi. Bu orqali qirolo A. qo'zg'alonchilarning bosimini kamaytirishga intiladi B. o'z jonini saqlab qolishga urinadi C. qo'shinini Londonga yetib kelishi uchun vaqtdan yutadi D. barcha ayiblarni yirik zadagonlarga yuklamoqchi bo'ladi				
5	Qaysi angliya qiroli davrida qo'shimcha jon solig'i joriy etilgan? A. Richarda II B. Genrix IV C. Ioann D. Genrix II				

Test savollari tugagach, natijalar e'lon qilinadi.

2-shart: 1-shartda har bir guruhning faol qatnashgan 1ta va faol qatnashmagan 2 ta o'quvchi ishtirokida yangi 3 ta jamoa tuzilib ushbu shart beriladi:

2 ta konvertdagi oddiy tuzilgan test beriladi har bir guruhga uchtadan test beriladi (2 daqiqa vaqtda):

Nima Angliyada xalq
qo'zg'olonlariga sabab bo'ldi.

Yosh qirol Rechar II qo'zg'olonga
qanday munosabat bildirdi.

Jon Boll kim edi.

“Mayl End” dasturi nima.

Uot Tayler qo'zg'oloni haqida
gapiring.

“Oq va Qizil” gullar urushi qanday
kechdi.

O'tgan shartlar bo'yicha xulosalar, natijalar, baholar, rag'batlantirishlar e'lon qilinadi.

Shunday qilib, butun guruh bilimini sinash uchun klaster usulidan foydalanib test topshirig`ini beramiz.





Yangi mavzuga tayyorgarlik:

Doskaga yangi mavzuga oid xarita, rasmlar ilinadi A4 formatdagi qog`ozga chiqarilgan testlar o`quvchilarga tarqatiladi.

Yangi mavzuni tushuntirish:

“Yevropa madaniyati XI-XV asrlarda. Maorif va Fan” mavzusining bayoni.

O`rta asrlarda dunyo haqidagi tasavvur. O`rta asr kishilarining tasavvurlari din bilan uzviy bog`liq bo`lgan. Kishilar yerdagi og`ir qismlari uchun vafotidan so`ng jannata “haqqoniy” hayot bilan taqdirlanishga ishonganlar. Xususan, aniq vaqt haqida tushuncha faqat o`rta asrlarning so`ngida tarqala boshlaydi. Bu davr kishilari uchun vaqt: tong, kun


kech va kechadan iborat bo'lgan. Oila tushunchasi ham deyarli hech qanday ahamiyat kasb etmagan. Inson hayoti faqat yil fasllarining: qish, bahor, yoz va kuzning almashinuvi bilan belgilangan. Ayni paytda aholi tomonidan an'analar, urf-odatlar va udumlarning bajarilishiga qat'iy rioya qilingan. Insonning o'rtacha umri uzoq bo'lmasdan, odamlar 40 yoshdan so'ng qari hisoblangan. Bolalar o'limi ko'p bo'lgan. Shaharlar va savdoning rivojlanishi bilan odamlarda dunyoni ko'rish imkoniyati tug'iladi. Salb yurushlari esa Yevropaliklar uchun dunyoga darcha ochadi. Sayohatchilar uzoq mamlakatlarda yashovchi xalqlarning urf-odatlarini va madaniyatlarini haqida qiziqarli ma'lumotlar olib kela boshlaydilar. Ulardan biri Venetsiyalik savdogar va sayyoh Marko Polo edi. O'zining "Marko Polo kitobi"da sayyoh Uzoq Sharq va Xitoyda 1271-1295-yillar davomida ko'rgan-kechirganlarini tasvirlaydi.

Maorifning taraqqiyoti. O'rta asr maktablari antik davr an'analari davomchisi bo'lgan. Uning asosi avvalgidek "Yetti erkin san'at" deb atalgan boshlang'ich maktabda gramatika, falsafa asoslari va ritorika o'rganilgan. Yuqori bosqichda arifmetika, matematika, musiqa, geometriya va astronomiyadan bilim berilgan. G'arbiy Yevropa madaniyati XII-XIII asrlardan yuksala boshlaydi. Shaharlarning yuksalishi, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi, Vizantiya va Arab xalifaligi madaniyatlarini bilan tanishuv Yevropaliklar dunyoqarashi, bilim doirasini kengaytiradi. Shaharlarda xususiy va shahar kengashlari boshqaruvidagi maktablar soni oshib boradi. Bunday maktab o'quvchilari dunyoviy bilimlarni cherkov maktablaridagiga nisbatan kengroq va chuqurroq olishgan. XII asrdan yirik shaharlarda dastlabki oily maktablar-universitetlar ochila boshlandi. Jumladan, Bolonya va Parijda ilk universitetlar tashkil topib, ular o'z davri uchun yuksak ma'lumot berishgan. Eng yirik universitet Parijda edi. Uning asoschisi qirol xonadoni ruhoniysi Rober de Sorbon bo'lgan. Qirolning maxsus yorliq olgan universitetlar to'la mustaqil bo'lganlar.



XIII-XV asrlarda Yeropaning deyarli barcha mamlakatlari o'z universitetlariga ega bo'lishadi. Ularni papa va yepiskoplar, imperator va qirollar, knyazlar va shaharlar tashkil etgan. Angliyaning eng keksa universitetlari Oksford va Kembridj bo'lgan. Manbalarda yozilishicha Kembridj universiteti Fransiyadan kelgan to'rtta o'qituvchi tomonidan dastlab oddiy bostirmada tashkil qilingan. Italiyada Bolonyadan tashqari, Neapol universiteti bo'lib, unga Fridrix II asos solgan. Salamanka Ispaniyadagi eng e'tiborli universitet edi. Muqaddas Rim imperiyasidagi ilk universitet Chexiyada-Praga (1348-yil), so'ng Avstriyada-Vena (1365-yil) va nihoyat, Germaniyaning o'zida Geydelberg, Kyoln va Erfurtda ochiladi. Polshaning birinchi universiteti Krakovda, 1364-yilda tashkil topgan.

Magistr va shkolyarlar hamjamiyatlari. Universitet bu o'qituvchi va o'quvchilar jamiyatidir. U ko'p jihatdan o'rta asr sexlarini eslatadi. Sexni ustalar boshqargani singari universitetni o'qituvchilar-magistrlar boshqarishgan. Universitetlar ko'plab imtiyozlarga ega bo'lgan va mahalliy hukmdorlarga bo'ysunmagan. Agar ular bilan mojaro chiqib hal etilishi qiyin bo'lsa, magistr va shkolyarlar (talaba) boshqa joyga ketardilar. Ko'p hollarda ulardan uzr so'rab qaytishlarini iltimos qilishgan: sababi bu davrda o'z universiteti bo'lishi har qanday shahar uchun sharaf hisoblangan.



Taniqli o'qituvchilar ma'ruzalariga shkolyarlar Yevropaning turli burchaklaridan kelishgan. Ba'zida, Parijda 30 minggacha talaba baravariga to'plangan. Talabalar hayoti bir xil tabaqaga mansub shkolyarlar jamoalari birlashmalari tomonidan boshqarilgan. Omodli talabalar hozirgi yotoqxonalariga o'xshash kollegiyalarda joylashishga muvaffaq bo'lardilar. Eng qadimgi Parij kollegiyalaridan biri-Sorbonning nomi keyinchalik butun universitetga o'tadi. Angliya va Fransiyada kollegiyalar yangi o'quv muassasalari-kollejlarga asos bo'ladi.

O'qitish fakultetlarda olib borilgan, ularning har birini dekan boshqargan. Hamjamiyat tepasida esa-saylangan rektor yoki hokimiyat tomonidan tayinlangan kansler turgan. Parij universitetida to'rtta: biri quyi-tayyorlov va uchtasi oily fakultet bo'lgan. Quyi fakultetda yetti erkin san'at o'rgatilgan.

San'at lotinchada "artes" deyilgan, shuning uchun fakultetni artislik uning talabalarini artistlar deyishgan. Albatta, bu artistlarning teatrga umuman dahli bo'lmagan. San'at fakultetida bir necha yil tahsil olgan shkolyar birinchi ilmiy daraja bakalavrga imtihon topshirib ko'rishi mumkin edi. Bakalavr nimasi bilandir xalfani eslatar edi: u o'qishni davom ettirar, bir paytning o'zida o'zi ham o'qita boshlardi. Artistlik fakultetida o'qishni to'liq yakunlagan bakalavr nisbatan murakkab-erkin san'atlar magistri unvoniga imtihon topshirishi mumkin edi.

Faqat magistrlar Parij universitetining uch oliy fakulteti: ilohiyot, huquqshunoslik yoki tibbiyotda o'qishlari mumkin edi. Ularning har birida yana bakalavrligidan boshlab, hamma bosqichdan o'tgach, oily daraja-doktorlik unvonini olishi mumkin edi.

Qisqacha ma'lumotdan so'ng:

- proektor yordamida "rasmlar ko'rsatiladi;
- har bir band guruhlararo tahlil qilinadi;
- tahlil bo'yicha savol tashlanadi;
- har bir davr bo'yicha bahs o'tkziladi (ushbu sinov umumiy sinf bo'yicha o'tkaziladi):

-moder...

Tarix zarvaraqlari.

❖ **Magistr-**

❖ **Shkolyarlar-**

-maorif,

-fan sohalaridagi erishilgan yutuqlar bo`yicha test savollarini yechadilar. Bunda o`quvchilar maruzada olgan bilimlarini sinab ko`radilar “cho`qqini zabt etish” musobaqasini o`tkazadilar. (5 daqiqa).

T/rSa

vol

lar

1 Yevr
opa
shah
arlar
da
nech
anch
i
asrla
rda
yarat
ilgan
hajvi
y
asarl
arda
xalq
ichid
an
chiq
qan
epch
il va
hozi
rjav
ob
qahr
amo
nlar

ulug
`lani
b,
rohi
blar
ochk
o`zli
gi,
ritsa
rlar
taka
bbur
ligi
haqi
da
hiko
ya
qilin
adi?

A.
XI-
XII
asrla

rda
B.
XII-
XIII
asrla
rda
C.
XIII
-
XIV
asrla
rda
D.
XIV
-XV
asrla
rda

2 Mar
ko
Polo
qays
i
yilla
ri
sayo
hat
qilga
n?

A.
1270
-
1295
yy
B.
1265
-
1290
yy
C.
1271
-
1295
yy
D.
1204
-
1230
yy

3 Yevr
opad
agi
birin
chi
Krus
ka
akad
emiy
asi
nech
anch
i yili
Flor
ensi
yada

ochil
gan?

- A.
1483
yil
- B.
1582
yil
- C.
1515
yil
- D.
1569
yil

4 Roje
r
Bek
on
qays
i
univ
ersit
et
prof
esso
ri?
A.
Kem
bridj
B.
Oksf
ord
C.
Nea
pol
D.
Sala
man
ka

5 Rob
er de
Sorb
onni
ng
kasb
i?
A.
Tari
xchi
B.
Tun
ukas
oz
C.
Mun
ajji
m
D.
Ruh
oniy

Guruhlarga eng ko'p baho olgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. O'quvchilar namuna asosida ma'lumotlar omborini to'ldiradilar.

T/ 1- 2- 3

1	gur gur		
2	uh uh		
3			

Shundan so'ng, fikrlar himoyasi o'tkaziladi. Unda har bir guruh o'z topilmalarini izohlab beradilar va shunga yarasha "RAG'BAT" beriladi (6 daqiqa).


Baholash. Eng yuqori ball to'plagan guruh aniqlanadi. Har bir guruh ichidan ovoz berish orqali "eng faol ishtirokchi" aniqlanadi. Ularga o'qituvchining munosabati bildirilib, "5", "4" baholari bilan rag'batlantiriladi.

Uyga vazifa. "Yevropa madaniyati XI-XV asrlarda. Maorif va Fan" "savol va topshiriqlari"ga javob yozib kelish.

Qo'shimcha ball uchun: Mavzu bo'yicha test tuzib kelish va kelgusi mavzuni o'qib o'rganib kelish.

X u l o s a l a r:

Dars bo'yicha o'quvchilar fikri tinglanadi.



--	--

XULOSA

XVIII asr fransuz inqilobi o`z davri jamiyati uchun ulkan o`zgarishlarni amalga oshirdi. biz undan oldin yuz bergan va keyin sodir bo`lgan inqiloblar va isloxotlardan uning o`ziga xos tomonlarini kuzatishimiz mumkin.

U jamiyatning barcha sohalarida keskin o`zgarishlarni amalgam oshirdi. Feodal tuzumni umuman barbod qildi. Bu madaniyat va din masalalarida ayniqsa ko`zga tashlanadi. Madaniyat masalasi doim umumxalqqa tegishli tushuncha bo`lgani, undan jamiyatning biror a`zosi chetda bo`la olmasligi nazarda tutilsa va ayniqsa islohotlar amalga oshirilayotgan (xoh inqilobiy, xoh tadrijiy yo`l bilan) bir davrda unga e`tibor doimgidan ham kuchaydi. Chunki inqilobni amalga oshirishda targ`ibot-tashviqotda va xalqqa tushuntirishda, madaniyat sohalaridan unumli foydalanish mumkin.

Fransuz inqilobining boshida turgan siyosatchilar buni teran anglagan holda madaniyat ustidan nazoratni kuchaytirdi. Ayniqsa, madaniyatning muhim sohaları bo`lmish – xalq ta`limi va axborot vositalarining ustidan yurgizilgan siyosatda buni yaqqol kuzatish mumkin. Chunki XVIII asr oxiri fransuz inqilobi yuz bergan davrdagi

jamiyatda targ'ibot – tashviqot uchun muhim qurol vazifasini shu ikkisi bajargan edi. Ko'p hollarda xalq noroziligi va namoyishlarga gazetada yozilgan xabarlar: qonunlar, dekret va nizomlarning bosib chiqilishi sabab bo'lar edi. Shu sababdan hokimiyat organlari ularni bir zumga bo'lsada e'tibordan chetda qoldirmas edi. Qarama – qarshi tomonlar, partiyalar, odatda o'z gazetalariga ega bo'lardi. Ayrim vaqtlarda ular hal qiluvchi rol ham o'ynardi. lekin Robespyer boshchiligidagi yakobinchilar hokimiyatga kelgach, axborot vositalari uchun qat'iy nazorat o'rnatdi. Ularning erkin faoliyati bo'g'ilib senzura yo'l qo'yildi.

Xalq ta'limiga bo'lgan e'tibor ham bundan kam emasdi. Butun bir ta'lim tizimining isloh qilinishi, uni cherkovdan ozod qilib dunyoviy lashtirish inqilobning eng muhim bosqichlaridan biri bo'ldi. Siyosatchilar tomonidan inqilobning dastlabki bosqichlaridayoq unga e'tibor qilishi bekorga emas edi. Chunki inqilob harakatlanishida dastlabki to'siqlardan biri cherkov hisoblanardi. Uni hal qilish siyosatchilar oldida turgan dolzarb vazifa edi. Shuning uchun cherkov masalasi darhol ko'rib chiqildi va unga tegishli huquqlar Milliy Majlis tomonidan keskin ravishda bekor qilindi. Ko'p hollarda ta'lim – tarbiya cherkov bilan bog'liq faoliyatda bo'lgani uchun ta'lim tizimini undan ajratilganidan keyin, unga g'amxo'rlik qilish dunyoviy tashkilotlarga xususan yangi isloh qilingan hukumatga bog'liq bo'lib qoldi. Shu sababli ta'lim islohoti jadallashdi. Siyosatchilar bu masalani hal qilishda akademiya va turli o'quv yurtlaridan yirik olimlarni jalb qilib ta'lim islohotini amalga oshirishning nazariy va amaliy tomonlarining uddasidan chiqa oldi. Bugungi kundagi ta'lim tizimiga ma'lum ma'noda poydevor vazifasini o'tadi.

Madaniyat sohalaridan yana biri milliy teatr faoliyatiga ham siyosatchilar ta'siri katta edi. Ular teatrlarda qo'yiladigan sahna ko'rinishlarini inqilob g'oyalari va mafkurasiga mos kelishini talab qildi. Monarxiya va feodalizmni olqishlaydigan teatr tomoshalarini qo'yish ta'qiqlandi. Endi faqat inqilob namoyondalarining qaxramonliklari, ularning inqilob vaqtida ko'rsatgan jasoratlarini ulug'laydigan tomoshalarni ko'rsatishni rag'batlantirildi. Umuman har bir tomoshaning g'oya va mafkurasi inqilob uchun zid kelmasligi lozim edi. U ko'rsatgan tomoshalari orqali xalqni islohotlarga muhabbatini orttirishi, uning dastlabki qiyinchiliklariga bardoshli qilib

tarbiyalashni vazifa qilib olishi lozim edi. Shu tariqa teatr inqilobning yakunlanishiga hissasini qo`shardi.

Teatr bilan hamohang san`atning haykaltaroshlik, tasviriy san`at, arxitektura sohalari ham inqilob uchun xizmat qilishga jalb qilindi. Feodalizmni eslatuvchi yodgorliklar masalasi hukumat tomonidan chiqarilgan dekretlar orqali o`z yechimini topdi. Masalan bunday yodgorliklar po`lat yoki biron metallardan qilingan bo`lsa uni eritib inqilob uchun kurashayotgan harbiy qismlar uchun qurol – aslaha quyish haqida konvent dekreti e`lon qilindi. Shunday qilib inqilob uchun zararli bo`lgan yodgorliklar inqilobni amalgam oshirish uchun xizmat qilishi muhim deb hisoblandi.

Madaniyat bobidagi eng ta`sirli sohalardan biri bu – bayramlar masalasi edi. Bayram jamiyat hayotining baxtli damlarida muhim vazifa bajaradi. Biz o`rgangan davr fransuz jamiyatida inqilobni sharaflovchi, uni kuylaydigan, yangi hayotning afzalliklarini ko`rsatib beradigan, hamda jamiyatning barcha a`zolari: yoshu-qari, turli kasb egalkari, ijtimoiy qatlamlar, turli tashkilotlarga taaluqli va ularni birlashtiradigan bayramdan ustunroq turadigan, inson ruhiyatiga ta`sir ko`rsatadigan biron jabhani ko`rsatish qiyin. Buni inobatga olgan inqilob yetakchilari bayramlar masalasiga jiddiy e`tibor qaratdi. Qolaversa qo`shni monarxiya tuzumida yashayotgan davlat fuqarolari inqilob keltirgan baxtni ko`z – ko` qilish va ularni ham bunga chorlashi mumkin edi.

Feodal jamiyati umuman tubdan isloh qilindimi ular bilan bog`liq bayramlar ham o`z intihosini topishi qonuniy jarayon edi. Ularning o`rniga esa yangi bayramlar joriy qilindi. Bu inqilob keltirgan yangi hayotning baxtli tomonlarini ko`rsata oladigan va birinchi bobda ko`rsatilgan beshta bayram edi. Bayramlarning nishonlanishida hamma qatnashardi va bu jamiyatda mavjud tabaqaviy, diniy va boshqa muammolarning ma`lum ma`noda bartaraf etilishiga olib kelardi.

Shu tariqa madaniyat masalalaridagi inqilob yo`lidagi mavjud muammolar shu tarzda hal qilinib borildi. Buning barchasi esa kelajakda fransuz millatining ma`lumoti va madaniyati borasida dunyo xalqlari ichida alohida e`tirofga sabab bo`lishi uchun qo`yilgan dastlabki qadamlardan biri edi.

Inqilobni amalga oshirishda monarxiyachilar tomonida turib islohotlarga qarshi kurashuvchilar ichida cherkov xodimlari asosli, real kuchga ega edi. Shu sabab inqilobchilar bilan kurashishda feodal va monarxiya tarafida turgan cherkov islohot uchun dastlabki to`g`anoqlardan biri bo`ldi. Uni bartaraf etish uchun siyosatchilar kuchli kurash maydoniga kirishga majbur bo`ldi. Chunki cherkovning g`oyat ustunli tomonlari bor edi. U ham moddiy, ham ma`naviy quvvatga ega va butun davlatga, hatto undanda kengroq miqyos kasb etadigan qudratli markaz tomonidan boshqariluvchi yirik tashkiliy uyushma edi. Davlatda mavjud mulklarning katta qismiga egalik qilishi siyosatga aralashish imkonini berardi. Uning modiy qudrati shundan iborat bo`lsa, ma`naviy jabhada u xristian xalqlari ruhiyatiga kuchli ta`sir ko`rsata olardi. XVIII asr xristian kishisining ishonchi va e`tiqodini egallagan edi. Bu hol inqilob yetakchilari oldiga qo`yilgan dolzarb muammoni keltirib chiqarardi. Unga qarshi kurashish uchun tish – tirnog`i bilan harakat qildi. Milliy Konventda uzoq munozara va tortishuvlarga sabab bo`ldi. Oxir oqibat inqilob qo`li baland kelib cherkov davlatga bo`ysundirildi. Bu fransuz inqilobining tarixiy g`alabasi edi deyish mumkin. Endi cherkov davlat siyosatiga aralashishdan mahrum bo`ldi. Uning roli keskin pasayib ketdi. Siyosatchilar esa uning ustidan nazoratni puxta olib bordi. Cherkov xodimlarining barcha huquqi fuqarolar huquqiga tenglashtirildi. Marosimlar, ibodat masalasida nizomlar joriy qilindi. Hatto cherkov xodimining maoshi ham konvent tomonidan belgilab qo`yildi. Ularga hukumat ko`rsatmalari va ozodlikni ma`qullab qasam ichirildi. Rad etganlari davlatni tark etishi, aks holda surgunga yuborilishi bilan ogohlantirildi.

Cherkov masalasidagi siyosat ichida eng muhimi uning mulki musodara qilinishida edi. Shu orqali u moddiy quvvatdan mahrum qilindi. Desyatina yig`ish huquqidan ham mahrum etildi.

Inqilobchilarning dinni yangilash borasidagi harakati o`zini oqlamadi. Bir necha asr da`vomida millat mentalitetiga singib ketgan xristian dini qisqa muddat ichida yangi o`ylab topilgan e`tiqod – “Oliy mavjudot” ga o`rnini boshatib bermadi.

Shunday qilib madaniyat va din masalalaridagi siyosatda katta o`zgarishlarning amalga oshirilishiga sabab bo`ldi. Jamiyat yangilanishida bu ikki soha muhim bo`g`in

vazifasini o`tdi. Inqilobni xalq ongiga singdirish uchun muhim manba bo`ldi. Fransuz millatining kelajakdagi hayotiga kuchli ta`sir ko`rsatdi.

Buyuk fransuz inqilobi insoniyat tarixida birinchi marta barcha uchun tenglik, birodarlik va erkinlik olib kelgan bugungi farovon jamiyatlar bunyod bo`lishiga kuchli ta`sir ko`rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Каримов.И.А. «Тарихий хотирасиз келажак йўқ» Т., Шарқ 1998.
2. Каримов.И.А. «Юксак маънавият – енгилмас куч» Т., Маънавият, 2008.
3. “Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида” Т., Ўзбекистон. 2011.
4. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” 4-том. Т., 2002.

Manba va hujjatlar

1. Атеизм и борьба с церковью в эпоху Великой французской революции/подред. С. Фридлянда. М., 1933.
2. Бабёф Г. Новые документы Гракха Бабёфа/Публ. подгот. А.М.Бобков, В.М.Далин и Н.И.Непомнящая//Вопросы истории. 1961.№ 2.
3. Документы истории великой французской революции. В т.1, подред. А.В.Адо. М., 1990.
4. Кондорсе Ж.А. Эскиз исторической картины прогресса человеческого разума/подред.В.Н.Сперанского. М., 1936.
5. Конституции и законодательные акты буржуазных государств XVII-XIX вв. подред. П.Н.Галанзы.М.1957.
6. Марат Ж.П. Памфлеты/подред. Ф.Кана. М., 1937.
7. Новая история в документах и материалах/подред. Н.М.Лукина и В.М.Далина. М., 1934.

8. Педагогические идеи Великой французской революции: Речи и доклады Мирабо, Кондорсе, Ромма, Арбогаца, Лаканалья, Лепелете, Лавуазе и др./подред. А.П.Пинкевича. М., 1926.
9. Революционное правительство во Франции в эпоху Конвента: (1792-1794): Сб. докум. и материалов /подред. Н.М.Лукина. М., 1926.
10. Революционный трибунал в эпоху Великой французской революции: воспоминания современников и документы./ подред. Е. В. Тарле. Пг. 1918-1919. Ч 1-2.
11. Робеспьер М. Избр. Произв.: В 3-х томах./ Сост. А.З.Манфред.
12. Сборник документов по истории нового времени. Буржуазные революции XVII-XVIII вв. подред: В.Г.Сироткина. М., Высшая школа. 1990.
13. Сборник документов по истории нового времени стран Европы и Америки (1640-1870) Сост.Е.Е. Юровская, М., Высшая школа 1990.
14. Свобода, равенство, братство; Великая французская революция: документы, письма, речи, воспоминания, песни, стихи/Сост. О.Куцова, С.Коротков. Лг., 1989.
15. Французская революция в документах: 1789-1794. Сост. Я.М.Захер. Л., 1926.
16. Хрестоматия по новой истории: (1789-1870)/Соц. А.Ф Ефимов и В.А. Орлов. М., 1941.
17. Хрестоматия по новой истории/подред. В.Ф.Семенова и К.А. Антоновой. Ч.1: 1640-1815. М., 1963.

Umumiy adabiyotlar

1. Воронцов-Вельяминов Б.А. Лаплас. М., Наука. 1985.
2. Домнич М.Я. «Великая французская буржуазная революция и католическая церковь», Академия наук, М., 1960.
3. Манфред А.З. Великая французская буржуазная революция. М., Госполитиздат. 1956.
4. Михайлов. Я. М. Анаксагор Шомет. М., 1930.
5. Олар А., Таржимон: Н.Кончевский. «Политическая история французской революции» Пг., 1918.

6. Олар А. Церков и государство в эпоху Великой французкой революции. Госполиздат Украины. 1925.
7. Олар.А. Культ разума и культ Верховного существа во время французкой революции. М., 1925.
8. Олар.А. Христианство и французкая революция М., 1921.

Jurnallar

1. Гениффе.П. “Террор: случайност или неизбетны резултат революции? Из уроков французкой революцсии XVIII в.” Новая и новейшая история. 2003. № 3.
2. Мягкова Е.М. “Из принципа гуманности” Террор и Вандея. Новая и новейшая история. 2003. № 5.
3. Сергиенко В.Ю. Конституционны монархистый – эмигранты времен французкой революции конца XVIII в. Новая и новейшая история. 2003. № 5.

uzswlu.datasite.uz

<http://e-tarix.uz>

www.wattpad.com

www.bbc.co.uk

www.ziyonet.uz